



**TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI**

“Filologiya va pedagogika”
ilmiy-metodik jurnali
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 30-noyabrda
364/5-qarori bilan
10.00.00 – Filologiya va
13.00.00 – Pedagogika fanlari
bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari
(PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2025-yil
8 (12)-son**

e-ISSN 3060-4885

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI**

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL
ELECTRONIC JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Ushbu son

Xitoy ilmiy fantast
yozuvchisi 韩松 (Han
Song) asarlaridagi
obrazilarga xos
fantastik elementlar

4
bet

“Boburnoma”dagi ayrim
oykonimlar tarkibidagi
indikatorlarning
lingvogeografik
xususiyatlari

22
bet

Zoonim frazeologik
birliklarning
semantik
xususiyatlari

49
bet

Хронотоп как
литературоведческая
категория

104
bet



TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2024-yil
19-avgustda 360240-raqami
bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

2025-yil
8 (12)-son

e-ISSN 3060-4885

MAS'UL MUHARRIR

Shahobiddin Rasulov

MUHARRIRLAR:

Emma Torosyan

Shaxina Muxamedjanova

Nargiza Sotvoldiyeva

Muxlisa Do'stmuhammedova

SAHIFALOVCHI

Gulnoza Valiyeva

Tahririyat manzili:

100011, Toshkent shahri

Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefon: (55) 510-28-44,

(77) 358-57-67

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Materiallar

@FilologiyaPedagogikaBot

orqali qabul qilinadi.

Elektron jurnal 28.08.2025 da

nashr etildi.

MUASSIS

O'zbekiston Respublikasi

Maktabgacha va maktab

ta'limi vazirligi

"Til va adabiyot ta'limi"

davlat korxonasi

FILOLOGIYA VA PEDAGOGIKA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
МИНИСТЕРСТВА ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ФИЛОЛОГИЯ И
ПЕДАГОГИКА

PHILOLOGY AND
PEDAGOGY

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL
ELECTRONIC JOURNAL OF THE
MINISTRY OF PRESCHOOL AND
SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

TAHRIR HAY'ATI:

Farhod Boqiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari

Azizbek Turdiyev

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri maslahatchisi

Farrux Jabborov

*"Til va adabiyot ta'limi" – "Преподавание языка и литературы" –
"Language and literature teaching" jurnali bosh muharriri*

10.00.00 – FILOLOGIYA

Baxtiyor Mengliyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori,
filologiya fanlari doktori*

Baxtiyor Doniyorov

*Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Nurafshon filiali
professori, filologiya fanlari doktori*

Anatoliy Lixodzievskiy

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

Oksana Gibraltarskaya

*O'zbekiston Milliy universiteti
professori, filologiya fanlari doktori*

Sherzod Atamuradov

*filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Ranusha Atayeva

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti katta
o'qituvchisi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Mohichexra Boltayeva

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax
filiali dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Muxtarbay Kurbanov

*Nukus davlat pedagogika instituti
dotsenti, filologiya fanlari doktori*

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Qozoqboy Yo'ldoshev

*Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori*

Gulnora Mansurova

*Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti dotsenti,
falsafa fanlari doktori*

Xadicha Muxitdinova

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori*

G'ofir Hamroyev

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori,
pedagogika fanlari doktori*

Sevara Ziyayeva

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori*

Indira Narkulova

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti
katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining
2024-yil 30-noyabrdagi 364/5-qarori bilan 10.00.00 – Filologiya va 13.00.00 – Pedagogika fanlari bo'yicha
doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.*

M U N D A R I J A

10.00.00 – FILOLOGIYA

Nigina Rasuleva. Xitoy ilmiy fantast yozuvchisi 韩松 (Han Song) asarlaridagi obrazlarga xos fantastik elementlar	4
Sevinch Omonova. Omon Matjon she'riyatida ijtimoiy mavzular talqini	7
Nilufar Toshpo'latova. Reklama matnlarining psixolingvistik tahlili.....	9
Nargiza Qodirova. O'zbek tiliga o'zlashgan ot leksemalarida komponent tahlil	11
Davronbek Abdullayev. Grammatik tavsiflarni tafovutlashda frazeologik birlikning o'рни.....	13
Diyora Pardayeva. Optativlikning grammatik va leksik vositalar orqali ifodalanishi (Abdulla Qahhor hikoyalari misolida)	15
Nozima Habibullayeva. Abduvali Qutbiddin she'riyatida ritm	17
Madina Jalilova. "Boburnoma"dagi ayrim oykonimlar tarkibidagi indikatorlarning lingvogeografik xususiyatlari.....	22
Feruza Mamatova. Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatlarida "labour" va "mehnat" antropofenomenining lingvokognitiv kategoriyalashuvi	24
Bobir Maxammadov. Turk tilidagi Microsoft Windows operatsion tizimi terminlarining shakliy-struktur tavsifi.....	28
Anvar Bo'ronov. Poloves-qipchoq tillari tavsifi.....	30
Dilchehra Toshpo'latova. "Muammo" hikoyasida inson va jamiyat munosabati tasviri.....	33
Gavhar Muftulloyeva. Xoja Muhammad Porsoning ilmiy merosi.....	35
Barchinoy Musurmonova. Ignatiy Yulianovich Krachkovskiyning matnshunoslik sohasidagi xizmatlari.....	37
Nasiba Mamatkulova. Morfonologiyaning fonetika, morfemika va morfologiya bilan o'zaro munosabati: nazariy yondashuv	39
Ixtiyor Bazarov. Kognitiv lingvokulturologik yondashuv asosida madaniy lug'at yaratishning nazariy va amaliy asoslari.....	41
Feruzaxon Muratkhodjaeva. Kognitiv semantika doirasida emotsional konseptlarning tadqiqi.....	43
Dilnoza Bobokulova. Ingliz va o'zbek tillaridagi "aktyorlik" tushunchasining lingvistik ifodasi	45
Salim Doniyorov. Uchinchi Renessans – bilimga, ilmga oid hodisa	47
Manzura Tuychiyeva. Zoonim frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari.....	49
Gulhayo Po'latova. O'zbek tilidagi sifat komponentli iboralar semantikasi va tezaurusi	50
O'g'iloy Soxibova. Tarixiy romanlar va neoromantizmning aloqasi	56
Shakhribonu Sirojiddinova. Temptation and Punishment: Rwo visions of the Forbidden Fruit in East and West Literature.....	58
Khushnuda Samigova. Sociolinguistic Aspects of Affection in the English and Uzbek Languages	61
Nozima Kodirova. Lexical and Phraseological Representation of Wealth and Poverty in English: A Conceptual and Cultural Analysis	66
Nargis Yusupova. A Scientific-Theoretical Analysis of the Semantic Properties of Antonyms in the Uzbek Language	67
Malahat Ahmadova. Syllable Rhythm and Prosody: The Theory of Classification of Languages by Rhythm and the Manifestation of Isochrony in the Ppoetic System.....	69
Хилола Юнусова. Лингвокогнитивный анализ конструкции с поствербом «yoтmoq» в узбекском языке	72
Нозима Исраилова. Сопоставительный анализ категории вида глагола в русском и английском языках.....	75
Мохира Каримова, Гулмира Мададжанова. Заимствования в молодёжном сленге русского языка	76
Шохистахон Нуралиева. Эвфемистическая лексика как способ смягчения возрастной категоризации.....	78
Умида Хабибуллаева. Понятие эвфемизма и эволюция термина.....	80
Эрнст Петросянц. Концептуальные идеологемы с оппозицией «образ друга/ врага» и «свой/ чужой» в портрете А.Б.Пугачевой (из медийных материалов)	81
Отабек Усмонов. Грамматические оценочные средства в русском политическом дискурсе.....	85
Шохрат Мамедова. Концепция справедливого и сострадательного человека в «Страшных сказках» С.С.Ахундова.....	86

13.00.00 – PEDAGOGIKA

Райхан Алеуова. Вопросы приобщения детей дошкольного возраста к природе.....	90
Жулдыз Карлыбаева. Совершенствование методики обучения ручному труду умственно-отсталых учащихся на уроках технологии	91
Махсет Курбаниязов. Этнопедагогические аспекты взаимосвязи воспитательных идей в каракалпакских народных эпосах.....	93
Зухра Наимова. Методы воспитания детей с помощью каракалпакских народных сказок	95
Софья Тажетдинова. Музыкальное образование как фактор личного развития индивидуальных способностей	96
Гулширин Уразбаева. Роль конкурсов и фестивалей в воспроизводстве народной музыкальной культуры.....	98
Лиза Сапарова. Социально-психологические аспекты формирования личности подростков (на примере каракалпакских национально-нравственных программ).....	100
Шахида Отениязова. Духовно-нравственное воспитание детей на основе национальных и общечеловеческих ценностей	101
Арзайым Наурызбаева. Психофизиологические особенности обучения иностранному языку детей семи лет	103
Самаритдин Маджитов. Хронотоп как литературоведческая категория	104
Mashhura Aliyeva. Umumta'lim maktablarida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish holati: so'rovnomna natijalari va tahlil.....	108
Iroda Ernazarova. Folklor asarlarini o'qitishning ta'limdagi ahamiyati	114
Dilafroz Kenjabayeva. Estetik did va madaniy tafakkurni rivojlantirishda xorijiy adabiyotlardan foydalanish	116
Barno Yunusova. Tasviriy san'atni o'qitish mazmunini shakllantirishda nazariy va ilmiy yondashuvlarning o'rnini.....	118
Durdona O'tayeva. Alisher Navoiy g'azallarining tarjimalarida yor obrazining stilistik va lingvopragmatik tahlili	120
Mehriban Sardarova. Azərbaycan respublikasında miəllə təhsələn iənkəşafında dövlət siəyasətə.....	122
Zilolaxon Isakova. Morfologik sathda qo'shimchalar orqali bahoning yuzaga kelish holatlari	128

Nigina RASULEVA,

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Xitoyshunoslik oliy maktabi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

XITOIY ILMYI FANTAST YOZUVCHISI 韩松 (HAN SONG) ASARLARIDAGI OBRAZLARGA XOS FANTASTIK ELEMENTLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada ilmiy-fantastik yozuvchi 韩松 (Han Song)ning ijodiy yozuv uslubi, asarlarida ilgari surilgan mazmun va g'oya haqida hikoya qilinadi. Yozuvchi romanlaridagi personajlarda tasvirlangan fantastik elementlar tahlil qilinib, bu borada aniq xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: yangi davr xitoy adabiyoti, ilmiy-fantastik yozuvchilar; 韩松 (Han Song), fantastik elementlar, sirlilik, g'ayrioddiylik.

Annotation. This article discusses the creative writing style, content, and ideas of the Chinese modern science fiction writer 韩松 (Han Song). The fantastic elements depicted in the characters in the writer's novels are analyzed and clear conclusions are drawn.

Keywords: modern Chinese literature, science fiction writers, 韩松 (Han Song), fantastic elements, mystery, unusual.

Аннотация. В данной статье рассматриваются стиль, содержание и идеи творческого письма современного китайского писателя-фантаста 韩松 (Хань Суна). Анализируются фантастические элементы, отраженные в образах персонажей романов писателя, и делаются однозначные выводы.

Ключевые слова: современная китайская литература, писатели-фантасты, 韩松 (Хань Сун), фантастические элементы, таинственность, необычность.

韩松 (Han Song) – xitoylik taniqli fantastik adib va jurnalist. 1965-yili Chongqing shahrida tug'ilgan. Wuhan universitetida jurnalistika bo'yicha magistr darajasini olgan. Xitoyning davlat axborot agentligi – "Xinhua News Agency"da jurnalist sifatida faoliyat yuritadi. Asarlarida ko'pincha zamonaviy jamiyatning muammolarini fantastika orqali yoritib, o'quvchilarni chuqur fikrlashga undaydi. Ularda ilmiy fantastika (科幻; science fiction) unsurlari juda muhim o'rin tutadi. U o'ziga xos qorong'i, surreal va ko'p qatlamli fantastika uslubini shakllantirgan yozuvchilardan biri.

韩松 (Han Song)ning asarlari "o'z aksini kuzatib maftun bo'lish" hissi bilan ajralib turadi. Ularda ilmiy terminologiya, masalan, "krot tuynugi" (虫洞), "nanoradar" (纳米雷达), "mikro-tasvir monitori" (微成像监视器) yoki "genlarni o'zgartirish" (转基因) kabi tushunchalar noaniq formatda ifodalanadi [3: 48]. Yozuvchi asarlarida zamonaviy Xitoyning "ilmiy fantastik ruhi"ni tasvirlaydi. Bu haqda u shunday deydi: "Menimcha, biz aslida qishloq xo'jaligiga asoslangan bir millatmiz. Biz, aslida, mashaqqat bilan yerda mehnat qilib rizq qidiruvchi dehqonlardan iboratmiz. Endi esa bu dehqon xalqi yig'ilib, go'yoki og'ir sanoat bilan shug'ullanishni boshladi va hatto bir necha kosmik kemalarni parvozga uchirdi. Bu holat o'ziga xos ilmiy-fantastik ruh bilan to'la".

Ijodkor olti marotaba Xitoyning nufuzli "Galaxy" mukofotiga sazovor bo'lgan. "Los Angeles Times" uni "Xitoyning yetakchi fantastik yozuvchisi" deb ta'riflagan. 韩松 (Han Song)ning fikricha, zamonaviy Xitoy aslida yopiq bir makon. Shuning uchun u asarlaridagi voqealarni ko'pincha yopiq makonlarga joylashtirishni afzal ko'radi. "Okean", "Metro", "Tezyurar poyezd", "Kasalxonona" kabi joylar yozuvchining tasvirlarida hamisha yopiq va nafas qisiladigan makonlar sifatida aks etadi. Hatto okean kabi keng va cheksiz makon ham uning uning nigohida yopiq, siqilgan, qonli va tikanli muhitga aylangan [7: 147]. Okean, metro, tezyurar temiryo'l va kasalxonada

an'anaviy axloqiy munosabatlar chetga surilib, omon qolish eng katta fuqarolik masalaga aylanadi. Qudrat va istak o'zaro chambarchas bog'lanadi, telbalik va chalkashlik insoniyatning odatiy holiga aylanadi, buzuqlik va qon to'kish ham oddiy hol bo'lib qoladi. Hayotiy muhitning buzilishi, o'z navbatida, ilgari mavjud bo'lgan qadriyatlarga va axloqiy munosabatlarga zarar keltiradi. "Dengiz yulduzi" odamni iste'mol qilishdan bosh tortadi, chunki u onasi ta'riflaganidek, "Dengiz tubidagi shahar" – boyluk va uyg'unlikdagi joyda omon qolishni orzu qiladi. Ammo boshqa ideal makonni izlash jarayonida nafaqat tirik qolish uchun kurashadi, balki odamlarni yeyish xohishini ham yo'qota olmaydi [1: 278].

Kirish va chiqish yo'lining bir-biriga tutashishi, haqiqat va illyuziyaning birlashishi yopiq makonni labirintga aylantiradi, bu bo'g'uvchi va zerikarli labirintda qon to'kish va korrupsiya tarqalib, omon qolishga umid qolmaydi. 韩松 (Han Song)ning asarlari zamonaviy odamlarning yashash sharoitlariga ishora qiladi, makonning siqilishi va ma'noning yo'qligi davr kishisining buzg'unchiligi, g'azabi, yolg'izligi va o'zligini yo'qotishiga olib keladi. Siqilgan makondan har bir inson qochishni xohlaydi, lekin bu qochish bir qadar ma'nosiz va umidsiz bo'lib ko'rinadi [5: 110]. "Qochish" tushunchasining o'zi aslida loyqa botgan joyda kurashishdan iborat ekani, har bir urinish faqat yanada chuqurroq botishga olib kelishi aytiladi. Bir nechta asarlaridagi qahramonlar misolida yozuvchining ilmiy-fantastik obraz va elementlarni tasvirlash usulini tahlil qilamiz.

"末班" – "So'nggi reys" romanida 老王 (Lao Wang) ismli qahramon zerikarli "uy – ish – uy" labirintida yashab, o'zini nihoyatda havotirda his qiladi. Nihoyat, nafaqaga chiqqanida, shisha idishga solinib, na'munaga aylanadi. Lao Wang uchun nafaqaga chiqish qochishning bir shakli edi: u zerikarli jadval labirintidan, zamonaviy yoshlardan va zerikarli hayotdan qutulishni istardi. Ammo uning bu

qochishi yanada qattiqroq cheklovga olib keldi: u shisha idishga solinib, tamoman qamalib qoldi.

“惊变” – “Hayratlanarli o'zgarish” asarida yo'lovchilar doimiy ravishda harakatlandigan, to'xtamaydigan metroda tuzoqqa tushib qoladilar. Ular alpinistlik mahoratiga ega 小寂 (Siao Ji) bilan kelishib, tashqaridagi holatni bilib kelish uchun uni yuboradilar. Yo'lovchilar uning qaytishini sabrsizlik bilan kutishadi. Ammo Siao Ji qaytib kelganida vagondagilar “evolutsiyalashib”, chumoli, baliq va boshqa xil jonzotlarga aylanganini ko'radi. Natijada u maxluqlar uchun qurbonga aylanadi. Peshqadam sifatida 小寂 (Siao Ji) tashqariga chiqish umidini o'z zimmasiga olgan edi. Ammo yo'lovchilar uzoq kutish jarayonida qochishni unutib, yangi bir tanazzul bosqichini boshdan kechirdilar. Bu asarda yerosti metrosida qolib ketgan odamlar tirik qolish uchun cheklangan resurslarga moslashishga majbur bo'lishlari, ular portativ energiya o'zgartirgich yordamida evolutsiya jarayonini boshdan kechirishlari tasvirlangan [1: 89].

“红色海洋” – “Qizil okean” romanida yadro urushi tufayli chuqurlikda yashashga majbur bo'lgan suv osti odami – “海星” (Dengiz yulduzi)ning ongida onasi tasvirlagan “海底城” – “Dengiz tubidagi shahar” yashirilib yotardi. Hokimiyat va ehtiroslar chirmashgan zulmatli tubanlikda “Dengiz yulduzi” doim boshqa bir dunyoni orzu qiladi va “Dengiz tubidagi shahar”ni yagona najot yo'li sifatida ko'radi. Tinimsiz ko'chishlar va sinovlardan so'ng, nihoyat, “Dengiz tubidagi shahar”ga yetib boradi. Ammo u qurib qolgan, majolsiz, buzilgan va tanazzulga yuz tutgan shahar ekanini ko'radi. Sehrli deb tasavvur qilingan hududi suv osti odamlari uchun najot emas, balki sivilizatsiyaning qabri bo'lib chiqadi. Suv osti odamlari labirintga o'xshash cheksiz okean tubida yashar, lekin qochib qutulishning hech qanday ilinjiga ega emasdilar [5: 33]. “Qizil okean” “bizning hozirgi zamonimiz”, “bizning o'tmishimiz”, “bizning o'tmishdagi o'tmishimiz” va “bizning kelajagimiz” tushunchalari orqali dengizning epik hikoyasini tasvirlaydi. Biroq unda o'tmish, hozirgi zamon va kelajak o'zaro murakkab va tushunarsiz bir bog'liqlik hosil qiladi. Natijada bu davrlar chalkashib ketadi, manba va oxirgi maqsad esa bo'm-bo'sh xayolga aylanadi. Insonlar evolutsiya orqali qochishni orzu qiladilar, ammo evolutsiya va degeneratsiya (inqiroz) o'rtasidagi bog'liqlik ham noaniq va tushunarsiz bo'lib qolaveradi. “红色海洋” – “Qizil okean”da yadroviy urushning halokatli ta'siri tufayli insoniyat texnologiyadan foydalanib, o'zlarini avtomatik ravishda okeanlarga moslashtiradi va suvda yashovchi mavjudotlar, ya'ni suv hayotiga moslashgan odamlarga aylantiradi. Bu qaror yadro falokatidan qochib omon qolish uchun qilingan bo'lsa-da, evolutsiya va regressiya o'rtasida paradoksnii yuzaga keltiradi, evolutsiyaning haqiqiyligi shubhali masalaga aylanadi. “Ilmiy fantastika parallel olamlar va kelajak dunyolarni quradi, u eng texnikaviy va eng kuchli qochish hissi bilan bog'liq adabiy shakldir. Bu janr real voqelik bilan o'ziga xos, tabiiy begonalik va uzoqlik hissini uyg'otadi. Ammo aynan shu qochishning o'zi xuddi ijro san'ati kabi eng yirik realizmdir. Chunki biz, aslida, qochib qutula olmaymiz”.

Texnologiya yaratgan murakkabliklarga duch kelganda yozuvchilar 韩松 (Han Song) va 刘慈欣 (Liu Cixin) butunlay qarama-qarshi strategiyalarni qabul qilishadi. Han Song asarlaridagi qahramonlar “逃离” – “qochish” modelini qo'llab, mavjud muammolarga qarshi chiqadilar. Masalan, “末” – “So'nggi reys”da Lao Wang nafaqaga chiqish orqali zerikarli ish joyi va metro makonidan qochishga harakat qiladi [7: 56]. “红色海洋” – “Qizil okean”da “海星” – “Dengiz yulduzi” o'zini doim “海底城” – “Dengiz tubidagi shahar” haqidagi orzu bilan ovutib, qizil okeandan qochishga intiladi. “医” – “Kasalxona” asarida 我 (Men) va 白黛 (Bai Dai) obrazi doimiy ravishda kasalxonadan va “药时代” – “Dorilar asri”dan qochishga urinadi. Ammo bu qochishlar faqatgina bir xayol ekani va odamlar o'zlarini yanada kattaroq muammolarga duchor qilishlarini isbotlaydi.

刘慈欣 (Liu Cixin)ning asarlarida 拯救 – najot markaziy g'oya sifatida namoyon bo'ladi, unda insoniyatning texnologiya va intellektual g'oya orqali qutqarilishi tasvirlanadi. “三体· 黑暗森林” – “Uch jism muammosi: qorong'u o'rmon” asarida to'rt nafar devor qoplovchilar insoniyatni uch jism dunyosining sofonlari (zarralari) olib borgan kuzatuvdan qutqarish uchun kurashadi. “乡村教” – “Qishloq o'qituvchisi” asarida esa oddiy bir qishloq o'qituvchisi o'z bilimini, insoniyatning madaniy merosini kelajak avlodlarga yetkazib, bashariyatni qutqarishga hissa qo'shadi.

韩松 (Han Song) yozgan hikoyalarda ko'pincha xayoliy va ma'nosiz “qochish” mavzusi o'rtaga tashlanadi. 刘慈欣 (Liu Cixin) esa asarlarida texnologiya orqali “qutqarish” umidini aks ettiradi. Bu yozuv uslubidagi farqlar ularning texnologiyaga bo'lgan turlicha qarashlaridan kelib chiqadi. Liu Cixin optimistik dunyoqarashga ega yozuvchi bo'lib, texnologiyaning ijobiy yutuqlariga ishonadi. “江晓原” – “Jiang Xiaoyuan” kitobida u: “Men aqldan ozgan texnologizm tarafdoriman va texnologiya har qanday muammoni hal qilishiga qat'iy ishonaman”, – deydi. Shuning uchun qahramonlar orqali insoniyatni qutqarish yo'lini izlaydi va shu orqali hayotning ma'no va qadriyatlarini taqdim etadi. Han Song esa aksincha, ilmiy-fantastik realizm tarafdori bo'lib, asarlari ko'proq zamonaviy jamiyatdagi muammolarni tanqid qilishga, insonning ozod emasligi holatlarini o'ylab ko'rishga qaratilgan. Ushbu davrda texnologiya va erkinlik o'rtasidagi ziddiyat – “qochish”ni eng katta to'siq sifatida tasvirlaydi [4: 94]. Metropoliten shahar sivilizatsiyasi va zamonaviy jamiyatning bir ramzi sifatida tasvirlanadi. Zamonaviy texnologik sharoitda tabiiy makon bir nechta qamoqxonalarga bo'linib ketgan va bunday makonda har bir kishi qochishga intiladi, ammo qayerga qochishini bilmaydi. Shuning uchun yo 老王 (Lao Wang) kabi “idishga solinadi”, yoki metroda yo'lovchilardек “evolutsiya”ga uchraydi, yo bo'lmasa 小寂 (Siao Ji) kabi boshqalarga yem bo'ladi. Makonning bosimi insonni hamma yerda soyadek kuzatib boradi, “erkinlik” esa faqat bir ramzga aylanadi, bema'nilik va yo'qotishlar esa texnologik davrning hosilasi bo'ladi.

Zamonaviy hayotning noaniqligi va inqirozi 韩松 (Han Song)ning asarlarida muhim bir belgiga aylandi. U bu mavzuni ifodalash uchun matn yaratishda aqldan ozdiruvchi, chigal tasvirlarga murojaat qiladi. Yozuvchining asarlari har doim kuchli va o'ziga xos muhit yaratadi. Murakkab va tushunishga qiyin hikoya hamda tasvirlar bir-biriga aralashib, chigal va aqldan ozdiruvchi hayot manzarasini hosil qiladi. Adib qahramonlarini aqldan ozdiruvchi uslubda tasvirlagani sababli ularning hayotiy tajribalari ham g'ayritabiyy va ajablanarli bir rangga ega.

“末班” – “So'nggi reys”da poyezdning oxirgi yo'lovchisi bo'lgan (老王) Lao Wang poyezdning oxirgi bekatida yotgan yo'lovchilarni kichik yashil odamlar shishaga solib olib ketayotganini aniqlaydi. Ammo yer yuzidagi odamlar go'yo hech narsa bo'lmagandek, o'z hayotini odatdagidek davom ettirayotganini ko'radi. Telba kabi javob topishga urinib, yo'lida davom etadi [2: 207].

“符号” – “Belgilar” asarida 小武 (Siao Wu) dunyoga ishonmasdan, kun bo'yi ko'chada xuddi tentak kabi uyqusida yugurib yuradi. Metrodagi yashirin sirlarni aniqlagach, uning haqiqatni izlash istagini yo'qotib bo'lmaydi va u yer osti dunyosiga sho'ng'iydi. Yer osti dunyosida doim hamrohlari uni yeb qo'yishidan qo'rqib yashaydi. Bir paytlar g'oyib bo'lib, keyin qaytgan chet ellik yo'lovchilarni esa o'tmishdagi missionerlar kabi odamlarni azoblash uchun maxsus jo'natilgan shaxslar deb hisoblaydi. Kuchli qo'rquv va taranglik holatida katta inqirozga tushib qoladi, o'zini aldangan his qiladi va oxir-oqibat, “Meni qutqaring!” deb baqiradi. “红色海” – “Qizil okean” asarida suvda yashovchilarning muhim xususiyatlaridan biri – xotira yo'qligi. Ular qisqa vaqt odatiy holatga, abadiylik esa bir lahzaga aylangan edi. **Ular uchun vaqt juda qisqa: odatiy holat darhol o'zgaradi, abadiylik esa bir lahzaga aylanib qoladi.** O'tmish va kelajak esa bir orzu xolos, uning yo'qligi munosabatlarning uzilishiga, ma'noning noaniqligiga olib keladi. Asosiy qahramon “海星” – “Men” doimiy taranglik va umidsizlik holatida tasvirlanadi. U tug'ilgan zahotiy hayotiy kurash ichiga tortiladi va o'shandan buyon tinimsiz urushlar, hokimiyat uchun kurashlar muhitida yashashga majbur bo'ladi. “海星” (“Dengiz yulduzi”) dastlab zaif, qo'rqqoq va dengizga begona mavjudot sifatida gavdalanadi. Ammo vaqt o'tishi bilan u asta-sekin aqlini yo'qotib, tajovuzkor va talonchi “海洋王” – “Dengiz qiroli”ga aylanadi [6: 22].

韩松 (Han Song) asarlaridagi qahramonlar odatda asabiy va nozik tabiatli bo'lib, ularni ta'qib qilinayotganlik qo'rquvi zabt etadi. Bu noziklikning ichki qatlamida esa ko'pincha ruhiy beqarorlik. ya'ni aqldan ozgan harakatlar, doimiy shubha, haqiqatni izlash yoki o'zga mulkni egallash va talash istagi yotadi. Qahramonlarning shaxsiy hayotidagi ichki xavotirlar ularning irratsional va manik holatlarining asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Natijada bu ruhiy beqarorlik kuchayib, ularni doimiy asabiylik, bezovtalik va qo'rquv bilan to'ldirilgan holatga olib keladi. Aynan shu hissiy yuk har bir qahramonning ichki fojiasini va oxir-oqibatda ado bo'lishini belgilaydi.

韩松 (Han) o'zgacha sezgirligi bilan tasvirlarni kuchli emotsional ranglar bilan boyitib, chayqalib turgan, g'ayrioddiy, umidsizlik chulg'agan va qorong'u hayot sahnasini yaratdi. Osmon qizil va ulkan, dengizga o'xshaydi. Uning ustida qora, g'aroyib dumaloq narsa bor, qorong'i chiroqqa o'xshaydi. Unda suyakdek oq, poydevori baland osmono'par binolar qad ko'targan. Qorong'u oy ostidagi bu shahar ulkan bir qabristonni eslatadi: qabrlarga o'xshagan binolar bir-birining ustiga zich, notekis uyulgan. Siyrak avtomobillar esa ruhlarni kabi qorong'ulik ichida kezadi.

“末班” – “So'nggi reys” asarida 老王 (Lao Wang)ning ko'ziga ko'ringan dunyo tasvirlangan. Qorong'u oy o'lim chirog'i kabi, osmono'par binolar suyak kabi, shahar qabriston kabi, binolar esa qabr tepaliklari kabi tasvirlanadi. Xayoliy tasvirlar, qora rangli sifatlar, asabiy taqqoslashlar ruhan tayyor bo'lmagan o'quvchini ruhiy bosim ostiga oladi. Bu tavsif ko'proq ruhiy kasallikka chalingan bemorning xayoliy gaplariga o'xshaydi, butun dunyo bezovtalik va tashvish his-tuyg'ulari bilan to'la. Butun shahar qorong'u, qizil yomg'ir tomchilari, nafas izlari, chiqindi qog'ozlar xuddi jinoyatchilikning nuri kabi neon reklamalari bilan to'la. Bu – 小武 (Siao Wu) ko'rgan dunyodir [4: 115]. Qizil qon, o'ziga tortuvchi tubsizlik, qorong'uda uchib yuruvchi o'simliklar, muzdek suvlardagi tinchlik – bular esa “海星” – “Dengiz yulduzi”ning dunyosidir.

韩松 (Han Song) romanlarida aqldan ozganlik motivi asosan obrazlar va personajlar orqali ochib beriladi. Muallif yaratgan keskin, g'ayrioddiy va paradoksal sujetlar oqibatida yuzaga keladigan tartibsizlik hamda mantiqsizlik holatlari zamonaviy Xitoy jamiyatidagi “katta janjal”, ya'ni ijtimoiy, siyosiy va madaniy ziddiyatlarning badiiy aksidir. Muallifning ta'kidlashicha, u o'z asarlarida Xitoyning eng chuqur og'rig'i, uning qalbidagi katta bo'shliq, axloqiy tanazzulga qarshi kurash, shuningdek, mamlakat uyg'onib, rivojlanidan so'ng ham yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan noaniqliklar va ichki inqirozlarni tasvirlashni maqsad qilgan. Ayniqsa, bu holatlarning farzandlar, ya'ni yangi avlod ongida yuzaga kelayotgan sarsonlik, notinchlik va ruhiy iltirab orqali yanada haqqoniy tarzda aks ettirilishini ko'zlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, 韩松 (Han Song) asarlari va pesonajlarida uchraydigan fantastik elementlar quyidagi yo'nalishlarga bo'linadi:

1. Distopik kelajak (distopiya). Yozuvchi ko'plab asarlarida kelajakdagi boshqaruv tizimlarini qorong'u, totalitar, va repressiv tarzda tasvirlaydi. Insonlar nazorat ostida yashaydi, erkinlik yo'qoladi, hamma narsa tizimga bo'ysunadi. **Elementlar:** yopiq jamiyatlar, davlat nazorati, erkinlikdan mahrum etilgan odamlar.

2. Texnologik mutatsiyalar. Texnologiyaning haddan tashqari rivojlanishi insoniyatning o'zgarishiga, ong va tana mutatsiyalariga olib keladi. Adib insoniyatning sun'iy intellekt, robototexnika, va boshqa ilg'or texnologiyalar bilan qanday o'zgarishini o'rganadi. **Elementlar:** kibernetik tanalar, sun'iy ong, odam-robot aralashmalari.

3. Ong va haqiqat masalalari. Ko'plab hikoyalari va romanlarida 韩松(Han Song) ong, tush va haqiqat o'rtasidagi chegaralarni noaniq qiladi. O'quvchi nima haqiqat, nima illuziya ekanini aniqlashda qiynaladi. **Elementlar:** ong o'zgarishi, gallyutsinatsiyalar, tush-reallik aralashuvi.

4. Kosmik sayohat va yot sayyoraliklar. Ba'zi asarlarida insoniyat kosmosga chiqadi, yangi sayyoralariga ko'chadi yoki yot sayyoraliklar bilan to'qnashadi. Bu orqali u insoniyatning o'z tabiati va kelajagi haqidagi savollarni

ilgari suradi. **Elementlar:** fazoviy ekspeditsiyalar, yot sivilizatsiyalar, begona muhitlar.

6. Bioetika va tibbiy tajribalar. Muallif tibbiyot sohasiga oid bilimlarini qo'llab, sog'liqni saqlash, genetik modifikatsiya, inson organizmi ustida olib boriladigan tajribalar haqida yozadi. **Elementlar:** genetik o'zgarish, kasalxonalar distopiyasi, etikani buzuvchi tajribalar.

7. Simvolik va falsafiy fantastika. Adibning fantastikasi nafaqat texnologik, balki chuqur falsafiy va simvolik ma'nolarga ega. Ularda jamiyat, insoniyat, haqiqat, va axloq haqida savollar ko'tariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 韩松. 红色海洋[M]. 上海: 上海科学普及出版社, 2004.
2. 韩松. 地铁[M]. 上海: 上海人民出版社, 2011.
3. 韩松. 高铁 [M]. 北京: 新星出版社, 2012.
4. 韩松. 2066年之西行漫记[M]. 上海: 上海人民出版社, 2012.
5. 韩松. 医院[M]. 上海: 上海文艺出版社, 2016.
6. 赵欢. 科幻文学的信仰性[J]. 东北师大学报 (哲学社会科学版), 2011.
7. 李雯. 中西科幻小说界定之比较[J]. 成都教育学院学报, 2002.
8. 刘志荣. 当代中国新科幻中的人文议题[J]. 南方文坛, 2012.

Sevinch OMONOVA,

Navoiy davlat universiteti magistranti

OMON MATJON SHE'RIYATIDA IJTIMOIY MAVZULAR TALQINI

Annotatsiya. Maqolada badiiy adabiyotdagi ijtimoiylashuvi masalasi Omon Matjon she'riyati misolida tahlil etiladi. Unda shoir ijodida davr muammolarining shaxsiy dard darajasiga ko'tarilishi va lirik qahramon "men"i orqali shaxsiylashuvi misollar asosida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: she'riyat, lirik qahramon, davr, inson, ijtimoiylashuv, tarix.

Annotation. The article analyzes some reflections on the socialization of literature through the poetry of Amon Matjon. Examples show the transformation of the problems of the era into personal problems in the poet's poems and their personalization through his "I".

Keywords: poetry, lyrical hero, era, personality, socialization, history.

Аннотация. В статье анализируются некоторые размышления о социализации литературы через поэзию Амона Матждона. На примерах показано преобразование проблем эпохи в личные проблемы в стихах поэта и их персонализация через его "Я".

Ключевые слова: поэзия, лирический герой, эпоха, личность, социализация, история.

Badiiy adabiyotda, davr va inson konsepsiyasining mohiyatida shaxs erki va ruhiy-ma'naviy olamini tasvirlash, uning tabiat va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarga qarshi kurashi, o'zini o'zi taftish qilishga oid o'y-fikrlari yotadi. Ijtimoiy ong shakli sifatida xalq o'tmishi, buguni va kelajagini aks ettiradigan o'zbek adabiyoti, xususan, o'zbek she'riyatida davr va inson, uning ijtimoiylikka bo'lgan ziddiyatli munosabati o'tgan asrning avvalida Cho'lpon she'riyatida yaqqol bo'y ko'rsatgan edi. Ijtimoiylashgan o'zbek she'riyatida "davr muammolari san'atkorona aks ettirilgan, ko'pning dardi shoir dardiga, demakki, ijtimoiy dard shaxs dardiga aylangan, shaxsiylashgan (personifikatsiya bo'lgan) she'riyat" [1: 78]. Mustaqillikkacha bo'lgan o'zbek poeziyada Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Omon Matjon, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron kabi shoirlar o'z asarlarida davr muammolari va

inson ma'naviy olamining fojialarini ijtimoiy mavzular orqali ko'rsatishga intilgan. Avvalo, ijtimoiy mavzudagi asarlarning yuzaga kelishida davrdagi siyosiy, madaniy o'zgarishlar, ularning odamlarga ta'siri sabab bo'ladi. Shu bois bunday mavzudagi asarlarda insonning atrof-muhitdan ko'ngli to'lmasligi, uni o'zgartirishga bo'lgan xohish-istagi yotadi. Nazariy qarashlarga e'tibor bersak, davr va inson konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy, badiiy-estetik, diniy-etnik tadriji barcha zamonlarda tadqiq etilgan. Aflotun yangi davlat qurish nazariyasi, jamiyatda har bir soha vakillarining o'rni, vazifasi, davlat va jamiyat munosabatlari haqida bahs yuritayotib, yangi jamiyatdagi inson konsepsiyasining qator tamoyillarini sanab o'tgan [2: 264]. Arastu esa voqelikni badiiy idrok etish, badiylik masalalari, obraz, xarakter, adabiy tur va janrlar haqida fikr bildirar ekan, inson konsepsiyasiga tayanadi [3: 87].

Qadimgi Sharq, jumladan, o‘zbek badiiy tafakkuri tarixida chuqur iz qoldirgan Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy kabi mutafakkirlarning asarlarida davr va inson konsepsiyasining falsafiy-psixologik aspektlari tadqiq etilgan. Taniqli adabiyotshunos A.Rasulovning ta’kidlashicha esa “har bir zamon, millat adabiyoti insonni qanday nuqtai nazardan tasvirlanishi bilan bir-biridan farq qiladi... Hozirgi ilg‘or jahon adabiyotida insonni barcha tomonlarini qamragan holda, bus-butun aks ettirish yo‘llari izlanmoqda” [4: 27].

Biz o‘z ijodida davr va shaxs muammolari, tarix va bugun, sevgi-muhabbat, mumtoz she’riyat an’analarini zamonaviy lirikaga olib kirgan Omon Matjon asarlaridagi ijtimoiy mavzular talqiniga doir o‘z mulohazalarimizni bildirishni joiz topdik. Shoir shamollarda sham ko‘targan qahramonga (Farida Afro‘z) mengzaladi. Omon Matjon yaqin tarixdagi qaltis zamonlarda ham o‘zligini tanigan va o‘zligini tanitgan shoir siyoqida shuhrat topdi. “Men qanday muhitda kim bilan bo‘lmay, Ruhim doim uyg‘oq va yo‘lga tayyor”, deb yozadi Omon Matjon. She’r orqali tarix va zamonga ko‘zgu tutadi: olis-olislardan kelayotgan qadim Sharq taronalari, afsona va rivoyatlarini bugungi zamondosh ong-u shuurida aks etayotganini badiiy lavhalar orqali tasvirlaydi:

*Men voha o‘g‘liman, talabim – kenglik,
Erkin havolarda to‘qiyman she’rlar.
Bor bo‘l, ma‘no qadar yorqin bo‘lgan so‘z,
Bor bo‘l, ufq osha yo‘llar va yerlar!* [4: 39]

Omon Matjon she’riy to‘plamlaridagi sarlavhalarining o‘zi ham ramziylikka ega: “Ochiq derazalar”, “Gaplashadigan vaqtlar”, “Quyosh soati”, “Yonayotgan daraxt”, “Yarador chaqmoq”, “Odamning soyasi quyoshga tushdi”... She’rlardagi ramziy, majoziy obrazlar shoir ijodining asosini tashkil etadi. Dunyoga ochilgan deraza – lirik qahramonning ko‘nglini olamga ochishi, muallifning o‘zi izoh berganidek, bu – yurak, ruh, iymon uchun go‘yo yangi ochilayotgan derazalar. Yonayotgan daraxt – ijodkor, uning isyonlari.

Omon Matjon qalamiga mansub ilk she’r “Baliq va chirik to‘r” deb nomlanadi. O‘zining xotirlashicha, bu she’rni u o‘quvchilik yillarida yozgan. Hayotiy voqelikka qurilgan mas’alnamo she’rda chuqur ramziylik bor. “She’rda to‘rga ilingan Baliq va chirigan To‘r muloqot qiladi. Bu uslub yosh shoirning bolalarcha badiiy tafakkuri, fantaziyasini aks ettirgan bo‘lsa, ayni paytda, o‘zi anglab-anglamagan holda majoziy, falsafiy she’r namunasini yaratganiga guvoh bo‘lasiz. Chirik to‘r – chirigan tuzum ramzi bo‘lsa, to‘rga ilingan baliq – sobiq sho‘ro odami. Chirik to‘r baliqni tezroq ovchiga yetkazmoqchi bo‘ladi. Ammo uddaburon, qo‘rqmas baliq chirigan to‘rni dog‘da qoldirib, ozodlikka intiladi. Bu ishning uddasidan chiqadi ham. She’r xulosasi chuqur optimizm va gumanizm g‘oyalari bilan sug‘orilgan. Umuman, she’rda yosh shoirning ijtimoiy munosabatlar, ezigulik va yovuzlik, tutqunlik va ozodlik o‘rtasidagi abadiy

ziddiyatlar haqidagi hukm-xulosasi timsolli obrazlarda o‘z aksini topgan” [5].

Omon Matjonning she’rlari o‘z davrida hislarga, yuraklarga osilgan qo‘ng‘iroqdek jarangladi va hanuz she’rxon qalbini javobsiz so‘roqlar qarshisida o‘yga toldiradi. O‘quvchini dunyo va inson muammolari, iztiroblari, tushuniksiz kechinmalarini ichki nigoh bilan ko‘rishga o‘rgatdi. So‘zda hayot borligini, dunyoning yaralishiga sabab bo‘lgan so‘zning muqaddasligiga sodiq qoldi. Bu dunyoning o‘tkinchi hoy-u havaslariga ko‘ngil qo‘ygan, uning turfa g‘avg‘osi-yu, ishvasiga mahliyo bo‘lgan zamondoshining qilmishlari esa uni muttasil qiyadi:

*Boqdim jahon ishina, ma‘nosi turli-turli,
Bir boshdagi to‘foni, g‘avg‘osi turli-turli.
Har sorida quyoshning ziyosi turli-turli,
Bu ne mangu bozordir, savdosi turli-turli,
Va‘dasi bir libosda, vafosi turli-turli* [5].

Shoir ijodida tuyg‘ularning o‘ta nozik ruhiy tasviri kishini hayratlantiradi. “Ochiq derazalar”da bunga guvoh bo‘lish mumkin:

*Ammo nechog‘ og‘ir,
Eh, og‘ir menga –
O‘zga derazaga boqmoq suq bilan.
Men o‘z derazamni orzu qilaman
Yog‘dusi, soyasi, kulgisi bilan* [5].

Omon Matjon lirik qahramoni olam va odam munosabatlariga javob izlaydigan, iztirob chekayotgan, qalbini muttasil taftish qilayotgan shaxs sifatida tasvirlanadi. 1987-yilda yozilgan quyidagi bandlar yerni uyg‘otgan bahor, farzandni uyg‘otgan ona, vijdonni uyg‘otgan iymon, tunni uyg‘otgan sevgi haqida. Shoir so‘nggi misrada millatni kim uyg‘otadi, degan qaltis savolni o‘rtaga qo‘yadi:

*Lekin bir xalq mudrab, yotinqirasa,
Har kimga o‘z tinchi yoqinqirasa,
Shoirlari qo‘rqib bosinqirasa,
Xalqni kim uyg‘otar,
Savolim shuldir?! [5]*

Adabiyotshunos Bahodir Karim shoir ijodini muhtasham gujumlarga qiyos etadi: “Agar adabiyot olami ko‘zimizga yashil ma‘vo bo‘lib ko‘rinsa, bu og‘ochliklar orasidan Omon Matjon she’rlarini obraz o‘laroq bezaydigan muhtasham gujumlarni hech qiynalmasdan topish mumkin. Shoir bir o‘rinda: “Qoraqumda nur iyib, jazira to‘qir oftob, Voha kengliklarida gujumlari bitar kitob”, deb gujumlarni kotibga aylantiradi. Boshqa bir she’rida “yoz olovidan, qish sovug‘idan” qayg‘uga tushgan qushlar baxti uchun “cho‘ng gujumlik”ni ko‘rib quvonadi” [6].

O‘tgan asrning 80–90-yillariga kelib, she’riyatda “Vatan” tushunchasi dard, iztirob, o‘kinch va alamga

yondosh tushuncha sifatida talqin qilina boshladi. Lirik qahramon faqat shoirning kayfiyat-u o'ylarini emas, balki ommaning, zamondosh insonlarning og'riqlarini ifodalay boshladi. Masalan, Omon Matjon "Gaplashadigan vaqtlar" she'riy qissasida sho'ro siyosati, mustabid tuzumning xalqimiz boshiga solgan ijtimoiy-iqtisodiy zug'umlarini fosh etdi. Asarda ekologik fojialar: Orolning qurishi, Xorazmning tuz bo'ronlari ostida qolishi, dalalarga kimyoviy dorilarning samolyotdan sepilishi oqibatida atmosferaning buzilishi va insonning zaharlanishi, shuningdek, o'ttiz yettinchi yillardagi qatag'on siyosati, sho'ro hokimiyati yillaridagi paxta yakkahokimligi, turg'unlik yillaridagi ayollarning o'z

joniga qasd qilishi, ilm-ma'rifatning qadrsizlanishi, insoniy tuyg'ularning toptalishi singari turfa muammolar qalamga olingan.

Davr kayfiyati she'riyatda o'z aksini topadi. Omon Matjon she'rlarida sho'ro istibdodi, turg'unlik yillaridagi fojialar, xalqimizning yaqin o'tmishda boshidan kechirgan achchiq kechmishi haqqoniy tasvirlangan, ijodkorning bir millat farzandi sifatidagi iztiroblari aks etgan. Chinakam she'r o'quvchining qalbini poklash bilan birga, uni tevarak-atrofga teranroq nazar tashlash orqali tarix, bugun va kelajak oldidagi insoniy mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2003.
2. Aflotun. Davlat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
3. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
4. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007.
5. Matjonov O. Umr o'tar, vaqt o'tar. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
6. O'zim o'z qalbmning bo'lsam Kolumbi. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/mar-abo-ch-orova-zim-z-albimning-b-lsam-kolumbi/>.
7. Kim ul oyning hajri ham avvalgilarga o'xshamas... <https://yuz.uz/news/kim-ul-oyning-hajri-ham-avvalgilarga-oxshamas>.

Nilufar TOSHPOLATOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

REKLAMA MATNLARINING PSIXOLINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada reklama matnlarining psixolingvistik jihatlari tahlil qilingan. Psixolingvistika nuqtayi nazaridan reklama matni inson ongiga qanday ta'sir ko'rsatishi, til vositalari orqali qanday emotsional, motivatsion va kognitiv holatlarni yuzaga keltirishi o'rganiladi. Muallif reklama matnlarida qo'llaniladigan psixolingvistik vositalarni (murojaat shakllari, baholovchi so'zlar, metaforalar, urg'ular va vaqt cheklovlarini) aniqlab, ularning qabul qiluvchiga ta'sir darajasini baholaydi. Tadqiqot doirasida 10 ta reklama namunasi amaliy jihatdan tahlil qilinib, ularning psixolingvistik xususiyatlari tizimli ravishda jadval ko'rinishida ifodalangan. Maqolada nazariy yondashuvlar bilan birga amaliy ko'rsatkichlar ham berilgan bo'lib, bu soha bo'yicha keyingi tadqiqotlar uchun metodik asos yaratadi.

Kalit so'zlar: reklama matni, psixolingvistika, til vositalari, emotsional ta'sir, murojaat shakli, baholovchi so'z, motivatsiya, semantik tahlil, iste'molchi xulq-atvori, reklama diskursi.

Annotation. This article analyzes the psycholinguistic aspects of advertising texts. From a psycholinguistic perspective, it explores how advertising language affects human cognition and which emotional, motivational, and cognitive states are triggered through language means. The author identifies key psycholinguistic tools used in advertisements – such as direct appeals, evaluative words, metaphors, emphasis, and time constraints – and evaluates their impact on consumers. The research includes a practical analysis of 10 advertising samples, systematically presented in a table format. The article combines theoretical approaches with empirical data, offering a methodological foundation for future studies in the field.

Keywords: advertising text, psycholinguistics, linguistic means, emotional impact, appeal forms, evaluative vocabulary, motivation, semantic analysis, consumer behavior, advertising discourse.

Аннотация. В статье рассматриваются психолингвистические аспекты рекламных текстов. С позиции психолингвистики анализируется воздействие рекламного текста на сознание человека, а также то, какие эмоциональные, мотивационные и когнитивные состояния он вызывает с помощью языковых средств. Автор определяет основные психолингвистические средства, используемые в рекламе (обращения, оценочные слова, метафоры, акценты и временные ограничения), и оценивает их влияние на восприятие потребителя. В рамках исследования проведён практический анализ 10 рекламных образцов, представленных в виде таблицы. В статье сочетаются теоретические подходы и эмпирические данные, что делает её методологически значимой для дальнейших исследований в данной области.

Ключевые слова: рекламный текст, психолингвистика, языковые средства, эмоциональное воздействие, формы обращения, оценочная лексика, мотивация, семантический анализ, поведение потребителя, рекламный дискурс.

Zamonaviy jamiyatda axborot oqimi tobora ortib borayotgan bir sharoitda, reklama kommunikatsiyasi inson ongiga tez va samarali ta'sir ko'rsatuvchi vosita sifatida alohida o'rin egallaydi. Reklama matnlari nafaqat

mahsulot yoki xizmat haqida ma'lumot beradi, balki uni iste'molchining xotirasida mustahkamlash, unga hissiy-psixologik ta'sir o'tkazish orqali uni sotib olishga undaydi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, reklama matnlarining

strukturasi, til birliklari va psixologik omillari o'zaro uyg'unlashgan murakkab tizimni tashkil etadi. Ayniqsa, reklama matnlarining inson ongida qanday qabul qilinishi, emotsional reaksiya uyg'otishi, e'tiborni jalb etishi va xatti-harakatga ta'siri kabi jihatlarini o'rganish uchun psixolingvistik yondashuv dolzarb hisoblanadi.

Psixolingvistika tilni idrok qilish, xotirada saqlash, uni qayta ishlash va anglash mexanizmlarini o'rganadi [2: 46]. Reklama esa bevosita ayni kognitiv va emotsional jarayonlarga ta'sir qilishga mo'ljallangan. Shu sababli, reklama tilining psixolingvistik jihatdan tahlil qilinishi, bir tomondan, til vositalarining psixologik ta'sir kuchini aniqlashga, boshqa tomondan esa samarali reklama yaratish texnologiyalarini ishlab chiqishga yordam beradi. Mazkur maqolada reklama matnlarida ishlatiladigan lingvistik birliklar va ularning psixolingvistik ta'sir omillari tahlil qilinadi. Amaliy tahlil orqali ushbu vositalarning qanday yo'llar bilan inson ongida aks etishi ko'rsatib beriladi.

Psixolingvistika XX asr o'rtalaridan boshlab mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan bo'lib, til va tafakkur, til va ong, til va emotsional reaksiya o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Bu fan sohasining asoschilari qatoriga T.V.Akhutina, A.A.Leontyev, L.S.Vygotskiy, A.A.Zalevskaya kabilarni kiritish mumkin. Ularning fikricha, til kommunikatsiyaning vositasi bo'lishi bilan birga, inson tafakkurining strukturaviy elementi ham hisoblanadi.

Psixolingvistikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- til vositalarining qanday kognitiv jarayonlar orqali qabul qilinishi va qayta ishlanishi;
- lingvistik birliklarning emotsional, semantik, pragmatik jihatlari;
- til birliklarining inson xotirasida qanchalik samarali saqlanishi;
- til va xatti-harakat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash [4: 100].

Reklama matnlari esa bu jihatlarining barchasini mujassam etgan vositadir. Masalan, reklamada ishlatiladigan metafora, baholovchi so'zlar, emotsional rangga ega birliklar, takrorlar va interaktiv shakllar insonning psixik qobiliyatlariga bevosita ta'sir o'tkazadi. Zamonaviy reklama psixologiyasi, neuromarketing va lingvoreklamashunoslikda quyidagi yondashuvlar asosida reklama tili o'rganiladi:

- **Kognitiv yondashuv** – reklama matnining idrok jarayoniga qanday ta'sir etishini aniqlaydi.
- **Emotsional yondashuv** – reklama matnlari orqali qaysi hissiyotlar chaqirilishi mumkinligini tahlil qiladi.
- **Pragmatik yondashuv** – reklama tilining funksional va ijtimoiy-psixologik samaradorligini baholaydi.
- **Semantik yondashuv** – matndagi g'oya, ramz va semantik yukning tahlilini o'z ichiga oladi [10: 26].

Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, reklama matnlarida qisqa, obrazli, takrorlovchi va emotsional so'zlar ustunlik qiladi [5; 6]. Aynan mana shu jihatlar reklama matnini inson ongi va xotirasida samarali saqlanishini ta'minlaydi. Quyidagi jadval orqali reklama matnlarini amaliy tahlil qilamiz:

Nº	Reklama matni misoli	Psixolingvistik komponent	Tahlil tavsifi
1	Orzuingizdagi sifat – bizda!	Leksik/emotsional	“Orzu”, “sifat” – emotsional yuki kuchli, baholovchi birliklar orqali e'tibor jalb etiladi.
2	Yangi! Arzon! Sifatli!	Sintaktik/ritmik	Qisqa gaplar, takror va ritm – xotirada qolish imkonini oshiradi
3	Korzinka – siz uchun. Har kuni. Har safar.	Sintaktik/ emotsional	Shaxsiy murojaat (“siz uchun”), oddiy tuzilmalar, yuqori ishonch uyg'otadi.
4	Farzandingiz salomatligi uchun eng yaxshi tanlov – Roza Kids.	Emotsional/motivatsion	“Farzandingiz”, “salomatlik” – parental hissiyotlarga murojaat qilinmoqda.
5	Buyurtma bering – bugunoq yetkazib beramiz!	Pragmatik/imperativ	Harakatga undash (call-to-action), vaqt bosimi orqali tezkor reaksiya chaqiriladi.
6	Hali sinab ko'rganmisiz?	Interaktiv/savol shakli	Psixologik muloqot illyuziyasi – fikrlash jarayonini boshlaydi
7	Artel – ishonchli hamroh.	Semantik/emotsional	Brendga insoniy fazilat yuklanadi (“hamroh”) – semantik antropomorfizatsiya
8	Qizil rangli fon + “Bugun oxirgi kun!”	Vizual/pragmatik	Rang + vaqt cheklovi = kognitiv va emotsional faollik uyg'otadi.
9	Hayotingizni o'zgartiring!	Chaqiriq/emotsional	Qisqa gaplar. Motivatsion xarid
10	Sevimli ta'mingizga qayting.	Emotsional xotira	Brendga sadoqat

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, reklama matnlari odatiy matnlardan farqli ravishda ko'p darajali (leksik, sintaktik, emotsional, vizual) ta'sir usullaridan foydalanadi. Ayniqsa **baholovchi sifatlar** (orzu, eng yaxshi, ishonchli), **imperativ gaplar** (buyurtma bering, sinab ko'ring), **shaxsga yo'naltirilgan murojaatlar** (siz uchun, farzandingiz uchun), **grafik** (rang, shrift, tartib) dizayn elementlari orqali kuchli psixolingvistik ta'sir ko'rsatiladi.

Shunday qilib, reklama tilini tahlil qilishda nafaqat lingvistik, balki psixolingvistik yondashuv muhim hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, reklama matnini nafaqat shaklan, balki mazmunan ham samarali yaratishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, reklama matnlari inson tafakkuriga va hissiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi psixolingvistik vositalar bilan boyitilgan bo'lsa, ularning samaradorligi sezilarli darajada ortadi. Bunda leksik birliklarning semantik yuki, gap tuzilmasining oddiyligi, takrorlovchi ritm, emotsional urg'ular, chaqiriq (call-to-action) formulalari, savol va murojaat shakllarining ishlatilishi muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, grafik elementlar (rang, shrift, dizayn) va audio komponentlar

ham psixolingvistik ta'sirni kuchaytiruvchi omillar sifatida baholanishi mumkin. Masalan, qizil rang fonidagi "Oxirgi kun!" yozuvli reklama insonda vaqt bosimi, shoshilish hissini uyg'otadi, bu esa sotib olish ehtimolini oshiradi. Maqolada keltirilgan amaliy tahlil misollarida reklama tili ko'p hollarda psixologik mexanizmlarni ishga soluvchi strategik vosita ekanini ko'rish mumkin. Reklama matni inson idrokiga qanchalik mos bo'lsa, u shunchalik samarali bo'ladi. Shu asosda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- Psixolingvistik jihatdan puxta ishlab chiqilgan reklama matni mahsulot yoki xizmatga bo'lgan qiziqishni oshiradi.
- Matnda ishlatilgan emotsional, baholovchi va motivatsion elementlar iste'molchining hissiy javobiga sabab bo'ladi.
- Reklama samaradorligini oshirishda psixolingvistik yondashuvlarni qo'llash dolzarb va foydalidir.
- Kelgusida bu yo'nalishda tajribalar, madaniyatlararo solishtirma tadqiqotlar, yosh va jins omillari bo'yicha tahlillar olib borilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. Psixolingvistika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Yo'ldoshev A. Reklama tilining lingvistik xususiyatlari. – O'zbek tili va adabiyoti, 2019, №2.
3. Mamadaliyeva M. Reklama tilining stilistik tahlili. // Filologiya masalalari, 2020, №1, 67–72.
4. Aitchison J. Words in the Mind: An Introduction to the Mental Lexicon. – Oxford: Blackwell, 2003.
5. Cook G. The Discourse of Advertising. – London: Routledge, 2001.
6. Myers G. Words in Ads. – London: Edward Arnold, 1994.
7. Schmitt B.H., Simonson A. Marketing Aesthetics: The Strategic Management of Brands, Identity, and Image. – Nyu-York: Free Press, 1997.

Nargiza QODIROVA,

Farg'ona davlat universiteti lingvistika: o'zbek tili mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

O'ZBEK TILIGA O'ZLASHGAN OT LEKSEMALARIDA KOMPONENT TAHLIL

Annotatsiya. Komponent tahlil orqali umumiy tahlil haqida tasavvur hosil qilish imkoniyati yaratiladi. Komponent tahlil bo'yicha o'zbek tilshunosligida, ayniqsa, ot leksemalari misolida olib borilgan tadqiqotlarning kamligi ushbu mavzuni o'rganish doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Maqolada komponent tahlil tushunchasining mazmuni yoritilib, mavzu doirasidagi qonun-qoidalar va ilmiy yondashuvlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tahlil, morfologik, assotsiativ, grammatik, sifatli, komponent, obyektiv tahlillar.

Annotation. Component analysis creates an opportunity to form an idea of the general analysis. The lack of research on component analysis in Uzbek linguistics, especially on the example of noun lexemes, serves to expand the scope of study of this topic. The article highlights the content of the concept of component analysis and describes the rules and scientific approaches within the framework of the topic.

Keywords: analysis, morphological, associative, grammatical, qualitative, component, objective analyses.

Аннотация. Компонентный анализ позволяет получить представление об общем анализе. Недостаток исследований по компонентному анализу в узбекском языкознании, особенно на примере лексем существительных, служит расширению сферы изучения данной темы. В статье освещается содержание понятия компонентного анализа, излагаются правила и научные подходы в рамках темы.

Ключевые слова: анализ, морфологический, ассоциативный, грамматический, качественный, компонентный, объективный анализы.

Jahon tilshunosligida tilni tipologik nazardan o'rganish, bir tildan ikkinchi bir tilga o'zlashgan lisoniy birliklar mohiyatini ochib berish, ularni struktur-semantik jihatdan tahlil etish, muhim o'zlashma so'zlarning talqinini yoritish,

ularning lisoniy, ijtimoiy madaniy xususiyatlari borasida izlanishlar olib borish eng muhim masalalardan biridir. Jahon tilshunosligida muayyan til birligining boshqa bir tilga o'zlashish masalasi til ilmining leksikologiya,

leksikografiya, lingvokulturologiya, etnologvistika, tarjima nazariyasi, chog'ishtirma tilshunoslik singari sohalari bilan bog'liq jihatda o'rganilgan. Mazkur hodisaning leksika va semantika sathida atroflicha yoritilishi u yoki bu tilning leksik imkoniyatlarini aniqlash bilan bir qatorda, uning strukturaviy-semantik tuzilishi, tushunchalarni ifodalash usullari, variantlilik, polisemiya hodisalarining rivojlanishi hamda ularning tilda qo'llanish mexanizmini aniqlashga imkon beradi.

Badiiy asar matniga nutq aktining birin-ketin keluvchi tanlangan majmuasi deb qarash mumkin. Bu esa o'z navbatida, bir qator obyektiv va subyektiv, shaxsga nisbatan aloqador faktorlar bilan izohlanadi. Tilga olib o'tilgan faktorlarning ta'siri ko'proq ikki xil nutqda namoyon bo'ladi. Bu ikki xil nutqning birinchisi vaziyat (norasmiyligi) bilan karakterlanadi.

Tahlil so'zi mavjud lug'atlarda turlicha izohlanadi. Jumladan, falsafaga oid ensiklopedik lug'atlardan birida "tahlil (yunon tilidan – ajralish, parchalanish) predmetni (hodisa, jarayon), predmetning (predmetlar) xususiyatlarini yoki predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni tarkibiy qismlarga (belgilar, xususiyatlar, munosabatlar) fikran yoki amaliy ravishda ajratish tartibi" deb berilsa, tarjima lug'atlarda "tahlil 1 [ilmiy tekshirish (tadqiqot) usuli; obyektiv voqelikni ilmiy bilish, o'rganish vositasi]; 2 analiz, tahlil; tahlil qilish; matematik tahlil (oliy matematikaning bir bo'limi) [2: 31] deb izohlanadi. Ya'ni 2 ma'nosiga urg'u beriladi.

Morfologik tahlil – to'g'ridan to'g'ri komponentlar bo'yicha tahlil.

Assosiativ tahlil – so'zni tashkil etuvchi allofonlar va allomorflarni ma'lum bir tadqiqot darajasi uchun o'rnatilgan strukturaviy qatorlar bilan (ya'ni tegishli fonema va morfemalar bilan) o'zaro bog'lash.

Grammatik tahlil – so'zlar orasidagi grammatik bog'lanishlarni aniqlash (mos ravishda leksiklashgan iboralarni).

Ikkilik tahlil lingvistik tahlilning asta-sekin ochiladigan juft qarama-qarshiliklar qatoriga asoslanadi.

Kategoriya tahlilida fe'dagi zamon quyidagi juft qarama-qarshiliklar tizimiga keltirilishi mumkin:

a) nutq momentini o'z ichiga oluvchi ish-harakatning belgilanishi nutq momentini o'z ichiga olmagan ish-harakatga qarama-qarshi qo'yiladi;

b) nutq momentini o'z ichiga olmagan harakatga esa 2 guruhga bo'linadi: nutq momentidan oldin sodir bo'lgan va nutq paytidan keyin sodir bo'ladigan harakat.

Sifatli tahlil – tilni tavsiflash usuli sifatida analitiklik va muxolifatga asoslangan "mavjudlik – yo'qlik" qarama-qarshiligi qo'llaniladi. Bunda hodisaning chastotasi emas, balki uning bor yoki yo'qligi asos qilib olinadi.

Obyektiv tahlil – faol tahlil va umumiy prefiksni ajratish. Tillarning miqdoriy tahlili – til tadqiqotining statistik usuli.

Yaxlit tahlil usuli integral usul bilan bir xil. U grammatik munosabatlarni perifrastik (tasviriy) usullar orqali ifodalashga asoslangan analitik tillar morfologiyasini

o'rganishda qo'llaniladi. Bu yondashuv grammatik birliklarni ikki qutbli sintez orqali aniqlash va chuqur tahlil qilishni ko'zda tutadi [3: 352].

Lingvistik tahlil o'zbek tilshunosligining nazariy bo'limlarini sistemali o'rganishning maqbul usullaridan biridir. Tahlil jarayonida til faktlari haqidagi nazariy ma'lumotlar, grammatikaning qonun-qoidalari konkret misollarda amaliyotga tatbiq qilinadi. Tahlil etuvchi har bir tilning nazariy asoslarini puxta egallashga intiladi. Til hodisalari lingvistik tahlil asosida amaliy o'rganiladi. Lingvistik tahlil – olingan nazariy bilimlar asosida har bir fanning talabiga ko'ra konkret bir til yoki nutq birligini (so'z yoki gapni) parchalab o'rganishdir. Bu hodisa til o'rganuvchilarning til hodisalarini tez va to'g'ri ajrata olish malakalarini egallashlarida muhim rol o'ynaydi [4: 241].

Lingvistik nazariya, til sistemasi va tarixiy faktlarga asoslangan filologik tahlil. Adabiy metod, janr, badiiy-estetik prinsiplar muallif shaxsi va uning nutqiy maneriyasini, boshqa matn va til ifoda vositalarining tarkibini belgilovchi omillardir. Lingvistik tahlil – til va nutq birliklarini uni tashkil etuvchi qismlar, mazmun vazifasi va boshqa xususiyatlari nuqtayi nazaridan tadqiq etish, til (nutq) birliklarining aniq holatini belgilash. Masalan, *hosildorlikni* so'zida ikki asil til hodisasi mavjud bo'lib, u xuddi shu hodisalar nuqtayi nazaridan tahlil etilishi mumkin: 1) so'z yasalishi hodisasi; 2) shakl yasaliish hodisasi (morfologik hodisa). Bu so'zda ikkita yasama so'z mavjud. So'z yasaliishi tahlilida har bir yasama so'zning tarkibi va bu tarkibiy qismlarning mohiyati, vazifasi, ma'nosi va shakli belgilanadi. Bunda *hosildor* yasama so'z ekani, so'z yasaliish asosi *hosil* va so'z yasovchi *-dor* qo'shimchasidan iborat tarkibiy qiymatga egaligi, so'z yasaliish asosi (*hosil*) ot turkumiga oidligi, *-dor* qo'shimchasining qaysi turkumga oid so'zdan qaysi turkumga mansub so'z va qanday ma'noli so'z yasashi hamda uning boshqa xususiyatlari qayd etiladi. *Hosildorlik* yasama so'zining tahlili ham xuddi shu tarzda olib boriladi, ya'ni u yasama so'z ekani, unda *hosildor* yasaliish asosiligi, *-lik* so'z yasovchi qo'shimcha ekani, shuningdek, bu qo'shimchaning ma'nosi va boshqa xususiyatlari qayd etiladi. Morfologik tahlilda *hosildorlik* so'zining ot ekanligi, *-ni* qo'shimchasi shu so'z (ot)ning tushum kelishik shaklini hosil qilishi, uning ma'nosi va shakli qayd etiladi [5: 59].

Nutqning fonetik qismlarini o'rganishiga qarab fonetika ikki turli bo'ladi: segmental fonetika va supersegmental fonetika. Nutq tovushlari hosil bo'lishi va uning xususiyatlarini o'rganuvchi fonetika segmental (segment-nutq bo'lagi) fonetika deyiladi. Nutq tovushlaridan katta bo'lgan fonetik birliklar: bo'g'in, so'z va frazalarni o'rganuvchi fonetikaga esa supersegmental fonetika deyiladi yoki prosodika deyiladi. Asosiy fonetik birliklar: fraza, takt, bo'g'in, nutq tovushlari. Grammatika ham nutqni tarkibiy qismlarga ajratadi: gap, so'z birikmasi (fraz), so'z va morfemalarga. Garchi har ikki qatlam nutqning son nuqtai nazaridan bir xil bo'lsa ham sifat jihatidan bir biriga mos kelmaydi [6: 12].

LSG (leksik-semantik guruh) talqinida til kategoriyalarining shakllanishi ierarxik prinsip asosida izohlanadi. Bu yondashuvda kategoriyalar o'zaro qatlamlangan tizim sifatida qaraladi. N.N.Boldirev ilgari surgan **prototipik yondashuv** til kategoriyalarining shakllanishiga boshqa, muqobil nuqtayi nazarni taklif etadi. Unga ko'ra, til kategoriyalari **nisbiy o'xshashlik prinsipi** asosida shakllanadi. Bunda leksik birliklar prototipik xususiyatlarga ega bo'lish darajasiga qarab farqlanadi va ushbu xususiyatlarning mavjudligi yoki yaqinligi asosida bitta guruh a'zolari sifatida birlashtiriladi. Ya'ni guruhdagi barcha birliklar aynan bir xil emas, balki **prototipga yaqinligi** darajasiga ko'ra turg'unlik kasb etadi. Mazkur yondashuv, xususan, *loziman* so'zining semantik dinamikasini o'rganish metodikasi uchun asosiy tayanch nuqta sifatida qabul qilingan. Bu esa tilshunoslikda prototipik strukturalarni aniqlash va kategoriyalarining dinamik shakllanish mexanizmlarini chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Lozimanda (fors-tojik tilida **lozimona** [7: 136]) so'zi o'zbek tiliga o'zlashgan, N.N.Boldirevning metodikasi, ya'ni komponentlarni birlashtirib tahlil qilib ko'ramiz:

1. Semantik yadro (asos va qo'shimcha morfemalar):
 - a) lozim – zarur, kerak, darkor, majbur [8: 241];
 - b) *-anda* + *-da* qo'shimchasi (vaqt, joy, holatni bildiruvchi qo'shimcha).

2. Komponentlar: lozim + anda (ona)
 - a) lozim – zarurlik, majburlik [9: 164];
 - b) *-anda* – joy, vaqt, holat.
3. Komponentlarni birlashtirish.

“Lozimanda” so'zi lozim va *-anda (-ona)* komponentlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lgan va ayollar yig'ilib marosim qiladigan joy ma'nosini bildiradi.

“*Binafsha*” leksemasi fors tilida *binafsha* tarzida yoziladi [10: 263]. Bahorda ochiladigan giyoh. *Binafsha* leksemasi fors-tojik tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan bo'lib, *u* unlisi yillar davomida o'zbek tilida *i* unlisiga almashgan.

Yer yuzidagi barcha tillar morfologik nuqtayi nazardan tadqiq etilib, ularning kelib chiqishi, boshqa tillar bilan munosabatlari va o'zaro yaqinligi haqida ilmiy manbalarda ko'p fikrlar bor. Ushbu tadqiqot doirasida faqat o'zbek emas, balki turk va fors-tojik tilshunosligi doirasidagi tahlillar ham o'rganildi. Xususan, turk tilining morfologik tuzilishi, agglutinatativ xarakteri boshqa tillarga nisbatan farqli va o'ziga xos tizimga ega ekani ko'rsatib berildi. Tilning rivojlanishi va boyib borishi ichki imkoniyatlariga emas, boshqa tillar bilan bo'ladigan doimiy aloqaga ham bog'liq. Shu bois, tilshunoslik doimiy izlanish va tadqiqotni talab qiladigan soha sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ruscha-o'zbekcha lug'at. Ikki tomli. I tom. – Toshkent: Sovet ensiklopediyasi, – 1983.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов, Изд. 2-ое, стереотип., – М.: Советская энциклопедия, 1969.
3. Ильичева Л.Ф., Федосеев П.Ф., Ковалев С.М., Панов В.Г. Философский энциклопедический словарь. М.:Советская энциклопедия, 1983.
4. Жеребило Т.В. Термины и понятия: Методы исследования и анализа текста: Словарь-справочник. Назрань: Пилигрим, 2011.
5. Mengliyev. В Hozirgi o'zbek tili. // Tafakkur bo'stoni, 2018.
6. Mirtojdiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
7. Karimov S. Tilshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2012.
8. Qudratov T. Lingvistik tahlil. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
9. Xojiyev A. Tilshunoslik terminlari izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1985.
10. Фарҳанги забони тоҷикӣ (X – XX вв.). Ҷ.И. М.: Советская энциклопедия, 1969.

Davronbek ABDULLAYEV,

*Qoraqalpoq davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

GRAMMATIK TAVSIFLARNI TAFOVUTLASHDA FRAZEOLGIK BIRLIKNING O'RNI

Annotatsiya. Joriy maqolada frazemalarning polisemantik xususiyati til frazeologik tizimining semantik taraqqiyotiga xos ifoda ekanligi konkret dalillar bilan ochib berildi.

Kalit so'zlar: frazeologik tizim, semantik taraqqiyot, polisemik ibora, frazeologik omonim.

Annotation. This article reveals, based on concrete evidence, that the polysemantic nature of phraseological units is a distinctive expression of the semantic development of the phraseological system of the language.

Keywords: phraseological system, semantic development, polysemic expression, phraseological homonym.

Аннотация. В данной статье на основе конкретных доказательств раскрывается, что полисемантическая природа фразеологических единиц является характерным выражением семантического развития фразеологической системы языка.

Ключевые слова: фразеологическая система, семантическое развитие, полисемическое выражение, фразеологический омоним.

Ma'lumki, til harakatdagi ijtimoiy hodisa sifatida sharoit taqozosiga muvofiq ravishda muntazam yangilanib turadi. Ijtimoiy hayotda yuzaga keladigan o'zgarishlar lisoniy munosabatlarga ichki va tashqi omillar ko'rinishida ta'sir o'tkazadi. Shuni hisobga olgan hukumatimiz til siyosatini takomillashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqdi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentyabrdagi 311-sonli qarori bilan ko'p jildli o'zbek tili izohli lug'atini tuzish vazifasi davlat dasturiga kiritildi. Uni nashrga tayyorlash bilan bog'liq tashkiliy ishlar O'zRFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti (hozirgi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti) zimmasiga yuklatildi. Joriy holat muayyan ilmiy va amaliy ehtiyoj hosilasi sanaladi. Negaki, 60 ming so'z va so'z shaklidan iborat amalda mavjud ikki jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" (1981), birinchidan, keyingi yillarda o'zbek amaliy leksikografiyasi erishgan yutuqlarni qamrab olmagan, ikkinchidan, eskicha andozadagi lug'at maqolasi yangi davr dunyoqarashidagi kemtiklikni to'ldira olmaydi, uchinchidan, to'ldirilgan hamda boyitilgan har bir yangi manbada so'z shakli ma'no siljishi jarayonida grammatik tafovutlanadi [1: 197].

Lug'atda istilohlarga yangicha yondashuv, imkon qadar adabiy tilda faol ishlatilayotgan so'z va so'z shakllarini qamrab olishga intilish, shuningdek, ma'nolarni izohlash tamoyillarining tizimli ifodalaniishi o'z ifodasini topdi. Imlo, talaffuz, so'z yasash va nutqda qo'llanish me'yorlari orasidagi grammatik farqlar masala mohiyatini yanada aniqroq ochib beradi. Har bir til taraqqiyotida asosiy semasiologik qonun til birliklari ko'p ma'noli (polisemantik) xususiyatga ega bo'lishi bilan aloqador. Shunga ko'ra ayrim olimlar ko'p ma'nolilikni til takomili obyektiv ko'rsatkichlaridan biri deya hisoblaydilar. o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab tilshunoslikda frazeologik polisemiya tahliliga doir bir qator nomzodlik ishlar paydo bo'ldi. Joriy tadqiqotlarda frazemalarning polisemantik xususiyati o'sha til frazeologik tizimining semantik taraqqiyotining o'ziga xos ifodasi ekani aniq dalillar bilan ochib berildi. Biroq frazeologiya fanida ko'p ma'noli frazema paydo bo'lish jarayoniga doir boshqacha qarashlar ham mavjud. Jumladan, N.N.Amosova, I.I.Chernisheva, Y.D.Apresyan kabi olimlarning fikricha, polisemantik frazemaning semantik strukturasi ma'no ottenkalari (semalari) o'zaro bog'liq va aloqador munosabatda bo'ladi [2: 268]. Bunday farqlar frazema ma'nolari o'zaro aniqlik va mavhumlik, qo'shimcha ottenkalar mavjudligi yoki yo'qligiga ko'ra bir-biriga bog'lanadi. Masalan, rus tilidagi *пускать корни* (*rustit'ь korni*) polisemantik frazemasini ikki ma'noga ega. Ulardan biri – "biror joyda mustahkam o'rnatish, tomir ko'ymoq", ikkinchisi esa "alohida kuch-quvvatga ega bo'lmoq" degan ma'noni bildiradi. *Перемывать косточки* yoki *промывать косточки* polisemantik frazemasini ham ikki ma'noli bo'lib, ular o'zaro aloqador semalarni ifodalaydi: "birovning g'iybatini qilmoq" va "go'riga g'isht qalamoq" [3: 43].

Izohli lug'atda, eng avvalo, ma'no chegarasi belgilab olinadi. Leksik birlikka tenglashtirilgan iborada semantik munosabat asosiy o'ringa ko'tariladi. Bosh so'z va ustama

ma'no sharhini har xil tipdagi lug'at havolasi muqoyasasida o'rganish muammoga to'g'ri yondashuvni kafolatlaydi. Binobarin, FB uchun xos xususiyat uning ko'p ma'noliligi bilan o'lchanadi. Shu jihatdan, o'zbek tilidagi polisemantik iboralarning asosiy qismi ikki ma'noli tarkibga tayanadi. Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tili frazeologik lug'ati" [O'TFL]da bunday iboralar asosan bir ma'noga birlashuvchi polisemantik frazeologizmlar deb yuritiladi. Aslida "frazeologik polisemiya deganda iboraning o'zi bittadan ortiq frazeologik ma'no anglatishini tushunamiz. Vazifa ana shu frazeologik ma'nolarning o'zaro munosabatini o'rganishdan iborat" [4: 3].

Masalan, tilimizda *adi-badi aytishmoq* polisemantik iborasi bo'lib, O'TFLda uning quyidagi ikki ma'nosi qayd qilingan: "1. Turli mavzularda yengil-yelpi suhbatlashmoq. *Qizlar adi-badi aytishib qorong'i tushib qolganini sezmay qolishdi*. 2. So'z talashmoq, janjallashmoq. *Daryodil shart burilib, eshikni yopdi. U yana ozgina adi-badi aytishib o'tirsa, qattiq mushtlashuv boshlanib ketishini, Shahzoda uchun o'ch olmay qo'ymasligini, boshiga tosh bilan o'rib, majaqlab tashlashdan o'zini zo'rga tiyib turganini bilardi*" [7]. O'TILda bu ibora bir ma'noli sifatida quyidagicha izohlangan: "bir-biriga tegadigan gap-so'z qilmoq, behudaga tortishmoq. *U hazil harom ekanligini his etib, adi-badini darhol to'xtatganicha, qo'yin cho'ntagida bor narsalarni stol ustiga olib qo'yd*" [6: 40].

Iboraning O'TFLda qayd qilingan ikkinchi ma'nosi esa O'TILda "adi-badiga bormoq" shaklida berilgan hamda quyidagicha izohlangan: "janjallashishgacha bormoq, san-manga bormoq. *Kichik oyim (uni ovuldagilar ishchan ayol, baraka topsin, bunaqasi topilmaydi, deb maqtashardi) brigadir bilan adi-badiga borib o'tirmas, buyurgan ishlarini qilaverar, yur deganda yuraverar, qo'lidan sira ketmon tushmasdi*. Ch.Aytmatov. *Jamila*" [6]. O'TFLda esa *adi-badiga bormoq* iborasi alohida bir ma'noli ibora sifatida "janjallashuv darajasiga yetmoq" tarzida izohlangan: "*Xonadon a'zolari yig'ilgach, kechki tamaddi paytida ota va qiz orasida adi-badi aytishuv kuzatilmadi*. N.Ismoilov. *Baxtning olis manzili*" [7: 18]. Ibora O'TILda "adi-badi aytishdi" shaklida berilib, uning ikki ma'nosi quyidagi shaklda izohlangan: 1) "turli mavzuda yengil-elpi suhbatlashdi"; 2) "so'z talashdi, janjallashdi" [6: 7].

O'zbek adabiy tilida qo'llaniladigan *barmog'ini tishlamoq* iborasi ham ikki ma'noli. O'TFLda frazemaning ikki ma'nosi berilgan: "1. Hech narsa qilolmay, natijaga erisha olmay lol qolmoq: "*Xongirey barmog'ini tishlab qolsa, qay ahvolga tusharkan?*" [7: 27]. 2. Afsuslanmoq: *Endi nima qilsam ekan, – dedi barmog'ini tishlab Rena*" [7]. O'TILda ham iboraning ikki ma'nosi ta'kidlangan: "1. Afsus qilmoq, attang demoq: "*Attang, – barmog'in tishladi Said*". 2. Lol qolmoq, hayron bo'lib o'ylanib qolmoq, xayol surmoq: "*Vaziyat ancha murakkablashgach, butun qism barmog'ini tishlab qoldi*. N.Ismoilov. *Baxtning olis manzili*" [6: 170]. Polisemantik ibora "O'TIL"da "barmog'ini tishladi" shaklida berilgan hamda uning ikki ma'nosi quyidagicha izohlangan "1. Hech narsa qilolmay, natijaga erisholmay qoldi. 2. Afsuslandi" [6: 8].

Tilimizdagi *boshini silamoq* iborasi ham ikki ma'nolidir. O'TFLda iboraning quyidagi ma'nolari qayd qilingan: "1. Kaft yurgizib erkalatmoq, suymoq, yupatmoq: *Kampir og'ir xo'rsinib, nevarasining boshini siladi va peshonasidan o'pib qo'ydi*. Sh.Bo'tayev. Bir kunlik mehmon. 2. G'amxo'rlik qilmoq, siylamoq, hayotini yengillashtirish yo'lida yordam bermoq: *Endi u Bek himoyasiga o'tganligini angladi, akaxoni uning boshini silashi tayin*. T.Malik. Shaytanat [6: 49]. *Boshini silamoq* polisemantik iborasi O'TILda qayd etilmagan. Uning ikki ma'nosi O'TILda quyidagicha izohlangan: "1. Erkalamoq, yupatmoq: *Tarzan akang chempion bo'ladi, deya qizchani boshini silamoqchi bo'lganida u chayon chaqqandek sapchidi*. 2. O'z panohiga olib ardoqlamoq, boqmoq, tarbiya qilmoq: *Farzand sifatida boshini silasang, keksayganingda ardog'ida bo'lasan*" [6].

Ayrim polisemantik iboralar ma'nosi jonli yoki jonsiz predmet hamda voqea-hodisalarga nisbatan yo'nalishi nuqtayi nazaridan farqlanadi. Masalan, *dunyoga kelmoq* polisemantik iborasi shunday xususiyatga ega. Iboraning bir ma'nosi jonli predmet, voqea-hodisaga nisbatan qo'llaniladi, sintaktik qurshovi jihatidan "kim" yoki "nima" so'rog'iga javob bo'ladigan egani talab qiladi: *Sening dunyoga kelishing onang ikkalamizni qanchalar hursand qilgandi*. T.Malik. Murdalar gapirmaydilar" [7: 77]. Iboraning ikkinchi ma'nosida jonsiz predmet, voqea-hodisa izohlanadi. *Tarixiy haqiqat dunyoga kelguncha, qanchadan qancha jonlar uziladi*. D.To'rayev. Haqiqat taqozosi" [7: 77]. O'TILda iboraning faqat bir ma'nosi "tug'ilmoq" tarzida qayd qilingan: *Yangi farzand dunyoga kelishi qancha dillarni quvontirdi*" [6: 663]: O'TILda ham bu ibora monosemantik

ibora sifatida ta'kidlanib, "tug'ildi" tarzida izohlangan [6: 14]. Bundan ko'rinadiki, *dunyoga kelmoq* iborasining mavhum hodisalarga nisbatan qo'llanuvchi ma'nosi faqat O'TFLda to'g'ri ko'rsatilgan, biz ko'zdan kechirgan boshqa lug'atlarda esa bu monosemantik ibora tarzida qayd qilingan.

Ba'zi polisemantik iboralarning bir ma'nosi kam qo'llanuvchi holga kelib, eskirib qoladi. Masalan, tilimizdagi *jar solmoq* iborasi shunday xususiyatga ega. Bu iboraning bir ma'nosi O'TFLda "jarchi vositasida eshittirmoq" ma'nosini bildiradi va bu ma'no hozirgi davrga nisbatan arxaiklashgan: *Bozor tomonda Xolmat jarangdor ovozda jar solayotgani eshitildi*. N.Norqobilov. Olapar" [7: 92]. 44. Bu iboraning yana bir ma'nosi O'TFLda "keragidan ortiq darajada bo'rttirib xabar tarqatmoq" tarzida izohlangan: *O'z hayotida yuz bergan buyuk o'zgarish to'g'risida Suyun burgut olamga jar solg'isi, xotini Marjonaga bu haqda maqtangisi kelar edi. Undan ko'ra Moskva radiosiga chiqib jar sola qolmaysanmi?* O'TILda *jar solmoq* polisemantik iborasining ma'nolari O'TFLga nisbatan aniq va ishonchli izohlangan: "1) Jarchi qo'yib, hammaga xabar bermoq, e'lon qilmoq. *To'da pastga siljidi. Bakovul jar soldi*. T.Murod. Ot kishnagan oqshom [6: 73]. 2. *Ko'chma*: "ovoza qilmoq, gap tarqatmoq, hammaga bildirmoq: Mahallaning qitirlari Azizbek boshiga tushgat kulfat to'g'risida butun qishloqqa jar solib yubordilar" [6: 73]. O'TILda *jar soldi* polisemantik iborasining arxaik va yangi ma'nosi quyidagicha izohlangan: "1. Jarchi vositasida eshittirildi. 2. Keragidan ortiq darajada bo'rttirib xabar tarqatdi" [6: 22].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жуков В.П. О сопоставлении многозначной фразеологической единицы с многозначностью слова // Проблемы устойчивости и вариантности фразеологических единиц. Материалы межвузовского симпозиума. – Тула: Изд-во Тульского госпединститута, 1968.
2. Сидоренко М.И. Типы различий между семемами многозначных фразеологических единиц // Проблемы устойчивости и вариантности фразеологических единиц. Материалы межвузовского симпозиума. – Тула: Изд-во Тульского госпединститута, 1968.
3. Шанский Н.И. Фразеология современного русского языка. М.: Высшая школа, 1985.
4. Mamatov A. Frazeologizmlarning shakllanishi asoslari. – Toshkent: Navro'z, 1996.
5. Mamatov A. Frazeologizmlarning shakllanishi asoslari. – Toshkent: Navro'z, 1996.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli // A.Madvaliyev tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
7. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: Universitet, 1978.

Diyora PARDAYEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti

OPTATIVLIKNING GRAMMATIK VA LEKSIK VOSITALAR ORQALI IFODALANISHI (Abdulla Qahhor hikoyalari misolida)

Annotatsiya. Mazkur maqolada optativlik kategoriyasining o'zbek tilidagi grammatik va leksik vositalar yordamida ifodalanishi Abdulla Qahhor hikoyalari misolida tahlil qilindi. Tilshunoslik nazariyasida optativlik istak, tilak va niyatning grammatik shakllar orqali ifodalanishini bildiradi. Qahhor asarlarida optativ gaplar nafaqat grammatik vositalar orqali, balki leksik birliklar – duo, tilak, la'nat va baraka mazmunidagi so'zlar orqali ham ifodalangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yozuvchi optativlik vositalaridan badiiy maqsadda foydalangan, ular qahramonlarning ruhiy holati va nutq madaniyatini yoritishda muhim semantik yukni bajaradi.

Kalit so'zlar: optativlik, grammatik vositalar, leksik vositalar, Abdulla Qahhor, hikoya, istak gap.

Annotation. This article examines the expression of the optative category in the Uzbek language through grammatical and lexical means, with a focus on Abdulla Qahhor's short stories. In linguistic theory, optativity denotes the grammatical expression of wish, desire, or intention. In Qahhor's works, optative constructions are realized not only through grammatical markers but also through lexical units such as blessings, curses, prayers, and wishes. The findings indicate that the writer employs optative means for artistic purposes, highlighting characters' psychological states and reflecting cultural aspects of speech.

Keywords: optativity, grammatical means, lexical means, Abdulla Qahhor, short story, wish clauses.

Аннотация. В статье рассматривается выражение категории опативности в узбекском языке посредством грамматических и лексических средств на примере рассказов Абдуллы Каххара. В лингвистической теории опативность отражает выражение желания, намерения и благопожелания в грамматических формах. В произведениях Каххара опативные конструкции реализуются не только через грамматические формы, но и через лексику – слова с семантикой благопожелания, проклятия, молитвы и пожелания. Результаты исследования показывают, что писатель использует опативные средства с художественной целью, подчеркивая психологическое состояние персонажей и особенности речевой культуры.

Ключевые слова: опативность, грамматические средства, лексические средства, Абдулла Каххар, рассказ, желательные предложения.

Tilshunoslikda optativlik kategoriyasi istak, tilak, duo, la'nat kabi ma'nolarni ifodalovchi grammatik va leksik vositalar tizimini o'z ichiga oladi. Optativlik gapning maqsadga ko'ra turlari ichida alohida semantik yukni belgilaydi va u modal ma'no bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi [1: 25]. O'zbek tili sintaksisida optativ gaplar odatda *istak mayli shakllari, modal birliklar (iloji bo'lsa, Xudo xohlasa, nasib qilsa)* va *maxsus leksik birliklar (baraka, rahmat, la'nat, omad)* orqali ifodalanadi [4: 112]. O'zbek adabiyotida, xususan, Abdulla Qahhor hikoyalarida optativlikning turli ifoda shakllari qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy dunyosi hamda ijtimoiy-madaniy qarashlarini aks ettiradi. Yozuvchi bunday nutqiy shakllar orqali personajlarning ijtimoiy mavqeyini, xalqona dunyoqarashini va milliy qadriyatlar bilan bog'liq til birliklarini yoritib beradi. Masalan, A.Qahhor hikoyalarida duo va tilak shaklidagi optativ gaplar ko'pincha *mehr, ezigulik, xayrixohlikni* ifodalashda qo'llansa, *la'nat va qarg'ish* mazmunidagi gaplar konflikt, g'azab yoki ijtimoiy keskinlikni ochishda qo'llanadi [3: 56]. Shu bois adibning hikoyalarida optativ gaplarning badiiy-estetik vazifasini o'rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy-semiotik nuqtayi nazardan ham dolzarb masala hisoblanadi.

Optativlik haqida o'zbek tilshunosligida A.Madrahimov, N.Mahmudov, A.G'ulomov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan [1: 45]. Ularning tadqiqotlarida optativ gaplarning grammatik vositalari, istak mayli, tilak ohangi alohida o'rganilgan. Xorijiy tilshunoslikda ham optativlik "modality" doirasida tahlil qilingan bo'lib, ko'plab tadqiqotlarda (Masalan, Palmer [2]) istak va niyatning lingvistik vositalar orqali ifodalanishi muhokama etilgan. Badiiy adabiyot materiallari asosida optativ gaplarning tahlili kam o'rganilgan bo'lib, Abdulla Qahhor hikoyalarida bu hodisaning ifodalanishi mustaqil tadqiq etilmagan. Shu bois mazkur maqola ushbu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida bir necha ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, deskriptiv tahlil usuli yordamida A.Qahhor hikoyalaridagi optativ gaplar aniqlanib, grammatik va leksik shakllari tavsiflandi. Bu usul optativlik kategoriyasining til birliklarida qanday namoyon bo'lishini ko'rsatishga xizmat qiladi [1: 45]. Qiyosiy tahlil metodi yordamida optativlikning grammatik vositalar (istak

mayli, modal birliklar) hamda leksik vositalar (duo, tilak, la'nat, baraka bildiruvchi so'zlar) orqali ifodalanishi o'zaro taqqoslandi. Bu usul optativlik kategoriyasining turli darajadagi til birliklarida qanday farqlanishini aniqlash imkonini berdi [4: 102]. Kontekstual tahlil asosida esa optativ gaplarning badiiy vazifasi, ya'ni ular orqali qahramonlarning ruhiy kechinmalari, milliy qadriyatlar va nutqiy portreti qanday yoritilishi tadqiq qilindi. Adabiy matnlar tilini bunday tahlil qilish optativ gaplarning nafaqat lingvistik, balki uslubiy va semantik funksiyasini ham ochib beradi [2: 77]. Tadqiqot materiali sifatida Abdulla Qahhorning mashhur hikoyalari: "Anor", "Sinchalak", "O'g'ri", "Bemor" tanlab olindi. Bu asarlar yozuvchining turli davrlardagi ijodiy uslubini ifodalashi bilan birga, unda xalqona nutq shakllari, jumladan optativlikning rang-barang ifodalari uchrashi bilan ham ahamiyatlidir [3: 56].

Optativlik kategoriyasi A.Qahhor hikoyalarida muhim badiiy-estetik vazifani bajaradi. Yozuvchi optativ gaplar orqali qahramonlarning ichki dunyosini, ijtimoiy qarashlarini, shuningdek, milliy urf-odat va qadriyatlarni yoritadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, adib hikoyalarida optativlikning ikki asosiy ifoda shakli mavjud: *grammatik vositalar va leksik vositalar*. Optativlik, avvalo, istak mayli shakllari yordamida yuzaga chiqadi. Masalan, "*Qaniydi, bolam odam bo'lsa*" (**Sinchalak**) jumlasida "*qaniydi*" yuklamasi istak ohangini bildiradi va ota-onaning farzandiga bo'lgan umidlarini ifodalaydi [3: 74]. Shuningdek, istak mayli fe'llari ham yozuvchi uslubida faol qo'llanadi: "*Xudo xohlasa, tezroq sog'ayib ketarman*" (**Bemor**) jumlasida "*-man*" qo'shimchali istak mayli va "*Xudo xohlasa*" modal birligi uyg'unlashib, qahramonning shifo topishga bo'lgan umidini ifodalaydi. Bunday shakllar qahramonning ruhiy holatini ko'rsatishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi [1: 65]. Yozuvchi asosan duo shaklidagi gaplar orqali milliy qadriyatlarni tasvirlaydi. Masalan, "*Iloyim, umrlaring uzoq bo'lsin*" (**Anor**) jumlasida "*iloyim*" yuklamasi duo mazmunini kuchaytiradi. Bu kabi gaplar xalq og'zaki ijodida keng uchraydi va yozuvchi uni badiiy matn tiliga olib kiradi [4: 118].

Optativlikning ikkinchi muhim qatlamini leksik vositalar tashkil etadi. A.Qahhor hikoyalarida duo, tilak, la'nat va barakani ifodalovchi so'zlar tez-tez uchraydi. Masalan, "*Baraka top, bolam*" (**Sinchalak**) jumlasida *mehr-oqibat* va *ezigulik* istagini bildiradi. Bu kabi ifodalar xalqona tilning

badiiy matnda saqlanishiga xizmat qiladi. Aksincha, **“La’nat bo’lsin o’g’riga!” (O’g’ri)** jumlasida la’nat va g’azabni ifodalaydi. Adib bunday optativ birliklardan ijtimoiy ziddiyatni ochishda foydalanadi [3: 121]. Bundan tashqari, hikoyalarda baraka bildiruvchi birliklar ham faol qo’llangan. **“Omad yo’ldoshing bo’lsin”** yoki **“Xayrli bo’lsin”** kabi gaplar odatda qahramonlarning mehribonlik yoki samimiy tilaklarini ifodalaydi. Shu orqali yozuvchi milliy qadriyatlarni til vositasida aks ettiradi.

Alohida ta’kidlash lozimki, A.Qahhor optativ gaplardan faqat istak yoki duo ifodalash uchun emas, balki badiiy-estetik maqsadlarda ham foydalanadi. Masalan, **“La’nat bo’lsin bu qismatga” (Bemor)** jumlasida optativlik qahramonning hayotiy iztiroblarini, taqdirga bo’lgan noroziligini ifodalaydi. Bu yerda optativlik ruhiy drammatizmni kuchaytiruvchi uslubiy vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, optativ gaplar xalqona nutq uslubini yaratadi. Yozuvchi hikoyalarda keksa avlod vakillari ko’pincha duo va tilaklar orqali nutq qiladi, bu esa obrazning ijtimoiy-madaniy portretini yanada tabiiy va jonli ko’rsatadi [2: 77]. Bundan tashqari, optativlikning grammatik ifodalari yozuvchining uslubida faol qo’llanadi. Istak mayli fe’llari, shuningdek, **“qaniydi”, “Xudo xohlasa”, “iloyim”** kabi yuklamalar matnda keng uchraydi. Ular qahramonlarning orzu-umidlari, tilaklari, duolari va ba’zan taqdirga noroziliklarini ifodalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, **“Qaniydi, bolam odam bo’lsa”** kabi gaplarda ota-onaning kelajakka bo’lgan umidlari ochiq ifodalanadi, **“Iloyim, umrlaring uzoq bo’lsin”** kabi jumalarda

esa xalqona duolar va ezguliklar badiiy matn tiliga ko’chadi. Bu esa milliy madaniyat va qadriyatlarning yozuvchi uslubida, til vositasida aks etishini ta’minlaydi [3: 118].

Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, optativ gaplar yozuvchining badiiy niyatini yuzaga chiqarishda ko’p qirrali vazifani bajaradi. Bir tomondan, ular qahramonlarning ichki dunyosini ochadi, ikkinchi tomondan, xalqona nutqning tabiiyligini yaratadi. Shu bois, A.Qahhor hikoyalardagi optativ gaplar o’zbek tilining xalqona ifoda imkoniyatlarini namoyon etadi. Ular qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ochishda va milliy qadriyatlarni ifodalashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi, qolaversa, milliy mentalitet, urf-odat va qadriyatlarning lingvistik ko’rinishini ifodalaydi. Xulosa qilib aytganda, adib hikoyalarda optativlik kategoriyasi 2 usulda ifodalanadi:

1. Grammatik jihatdan – istak mayli, yuklama va modal birliklar yordamida;

2. Leksik jihatdan – duo, tilak, la’nat va baraka bildiruvchi birliklar orqali.

Ushbu ifodalar yozuvchining badiiy maqsadlariga xizmat qiladi, qahramonlarning ijtimoiy va ruhiy qiyofasini yoritadi hamda milliy qadriyatlarni badiiy matn tilida jonlantiradi. Demak, optativlik kategoriyasini faqat grammatik hodisa sifatida emas, balki milliy ruhni, xalqona nutqni va badiiy-estetik maqsadlarni amalga oshiruvchi keng qamrovli hodisa sifatida o’rganish lozim. Bu holat o’zbek tili sintaksisida optativlikning ilmiy tadqiqiga qo’shimcha ma’lumotlar berish bilan birga, adabiy matn tilini tahlil qilishda ham muhim ilmiy asos bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. O’zbek tilida gapning maqsadga ko’ra turlari. – Toshkent: Fan, 1995. – 130 b.
2. Palmer F.R. Mood and Modality. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 220 p.
3. Qahhor A. Hikoyalar. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. – 280 b.
4. G’ulomov A. O’zbek tili sintaksisi. – Toshkent: Universitet, 2005. – 210 b.
5. Madrahimov A. O’zbek tili modal birliklari va ularning semantikasi. – Toshkent: O’ZMU, 2010. – 175 b.

Nozima HABIBULLAYEVA,

“Madaniyat va ma’rifat” telekanali muharriri

ABDUVALI QUTBIDDIN SHE’RIYATIDA RITM

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o’zbek she’riyatining yorqin vakillaridan biri – Abduvali Qutbiddin ijodidagi ritmik unsurlar tahlil qilinadi. Xususan, yashirin ritmlar, barmoq tizimi, metrik o’lchovlar, anafora, epifora, assonans, alliteratsiya va onomotopeya kabi poetik vositalar orqali ritm qanday yaratilgani ko’rsatib beriladi. Shoir she’rlaridagi ohangdorlik, tovushlar uyg’unligi va qofiya tizimi orqali hosil bo’lgan ichki musiqiy ritm musiqiy hamda adabiy-nazariy asoslar bilan asoslab beriladi. Abduvali Qutbiddinning satrlarida poetik tovush oqimi nafaqat mazmun, balki shakl jihatidan ham ritmik mukammallikka erishgan.

Kalit so’zlar: Abduvali Qutbiddin, ritm, metrika, barmoq tizimi, she’riyat, assonans, alliteratsiya, onomotopeya, epifora, anafora, qofiya, tovushlar garmoniyasi.

Annotation. This article analyzes the rhythmic elements in the works of one of the prominent representatives of modern Uzbek poetry – Abduvali Qutbiddin. It specifically examines how rhythm is created through hidden patterns, the syllabic (barmoq) system, metrical structures, and poetic devices such as anaphora, epiphora, assonance, alliteration, and onomatopoeia. The internal musical rhythm formed through the melody, sound harmony, and rhyme system in the poet’s verses is explored based on musical and literary-theoretical principles. The poetic sound flow in Qutbiddin’s lines reflects rhythmic perfection not only in meaning but also in form.

Keywords: Abduvali Qutbiddin, rhythm, metrics, syllabic system, poetry, assonance, alliteration, onomatopoeia, epiphora, anaphora, rhyme, sound harmony.

Аннотация. В статье анализируются ритмические элементы в творчестве одного из ярких представителей современной узбекской поэзии – Абдували Кутбиддина. Особое внимание уделяется тому, как создаётся ритм с помощью скрытых структур, силлабической (бармок) системы, метрических форм, а также таких поэтических приёмов, как анафора, эпифора, ассонанс, аллитерация и ономапопея. Внутренний музыкальный ритм, возникающий благодаря мелодичности, звуковой гармонии и системе рифм в стихах поэта, рассматривается с опорой на музыкальные и литературно-теоретические основы. Звуковая поэтика строк Кутбиддина отражает ритмическое совершенство не только в содержании, но и в форме.

Ключевые слова: Абдували Кутбиддин, ритм, метрика, система слогов, поэзия, ассонанс, аллитерация, ономапопея, эпифора, анафора, рифма, гармония звуков.

Borliqdagi deyarli har bir hodisaning ma'lum ritmi mavjud. Hayotning, tiriklikning ritmi dunyodagi milliardlab odamlarning yurak urishi, qadamlari, so'zlashuvlarida muntazam harakatdadir. His tuyg'ularga ta'sir o'tkazuvchi ritm inson ruhiyatida allaqachonlar paydo bo'lgan (*"Ritm" yunoncha – "rheo" – "oqaman"; marom, davriylik: 1) tabiiy hodisa va jarayonlarning muayyan vaqt davomida takrorlanib turishi, kun bilan tunning almashinishi bilan bog'liq jarayonlar, fasllarning almashinishi, iqlimiy tebranishlar; 2) she'riyat, musiqa, raqs, tasviriy san'at, amaliy bezak san'ati va me'morlik turlari shakllarining asosiy prinsipi. Inson bioritmi tabiiy ritmlar bilan bog'liq*). Yig'laganimiz, kulganimizda o'zimiz bilmagan holda hissiy ritmni hosil qilamiz. Tomchilar avval bo'g'zingizdan tiqilib birma-bir o'tadi, so'ng ko'zingizdan bir maromda oqa boshlaydi. Chak-chak-chak... Ha, bu aynan ritm. Ushbu jarayonda siz ijro qilgan yig'i esa ohang. Ana shunday tuyg'ular ritmikasinig so'zlar orqali ma'lum bir oqimga solinishi **she'riy ritmni** hosil qiladi. Ritmsiz musiqa ohang emas, balki tovushlar majmuyi sifatida qabul qilinadi. Xuddi shu kabi she'r ham.

Eng ibtidoiy jamiyatlardan tortib to hozirgi va zamonaviy jamiyatlargacha har bir xalq adabiyotida she'riyat va musiqa birgalikda rivojlangan. Rivoyat qiladilarki, yer yuzidagi birinchi qo'shiqni Odam Ato tomonidan Hobil otli o'g'li o'lganda aytilgan marsiya bo'lgan ekan. Demsk, olamdagi birinchi qo'shiq va she'r birgalikda paydo bo'lgan. Ularni aynan so'z, ritm va ohang birlashtirgan.

Ritmni qog'ozga yozib olish uchun **"vaqt belgisi"** deb ataladigan belgilar qo'llaniladi. Uning yordami bilan musiqachilar musiqani qanday ritm va tempda ijro etish kerakligini tushunadilar. She'riyatda aynan barmoq tizimi metr o'lchovi orqali tahlil qilinadi (*Metr – ikki yoki undan ortiq bo'g'inlardan tashkil topgan qatorning ritmik tuzilishi va bo'g'inlarning har birida urg'u yoki urg'u yo'qligini aniqlash o'lchovi. Metr birligi sifatida tayoqchalar ishlatiladi. Satrni tayoqchalar bilan ajratish turoqqa bo'linishga ham o'xshab ketadi. Ammo farqi shundaki, metrik tahlilda urg'uga alohida e'tibor beriladi. Eng keng tarqalgan metrik tayoqlar iambik, troxaik, spondaik, anapetik va daktildir*).

"Mening bilishimcha, kuyga, musiqaga tobe so'z – qo'shiq. So'zga, fikrga tobe musiqa esa she'r. "She'r – so'z bilan ifodalangan musiqa" degan ta'rif menga juda maqbuldir. Navoiy, Bobur, Mashrab she'rlari, eng avvalo, mana shu fikrning to'g'riligini isbotlaydi. Axir har bir she'r misrasi, hamma narsadan oldin mavzun, musiqiy bir jumla emasmi? She'rda hijoning soni emas, balki uning sasi, ohangi muhim-ku! Musiqa she'rning "javhari"dan yangrab yuzaga chiqadi va muvaffaqiyat vositasiga aylanadi, xoh aruz, xoh barmoq vaznida bo'lsin, qolgan hamma ish

hamma narsa ayni shu musiqani ta'minlashga xizmat qilmog'i zarur. Shuning uchun she'r o'qish, she'rning ruhiy olamiga kirib mushohada qila bilish ulug' bir kuyni so'z bilan tinglovchiga yetkaza olishdek alohida salohiyatdir. Xususan, aruzda bitilgan she'rlarning "notalari" ichki va tashqi ohang tovlanishlari bo'ladiki, buni bilish uchun ohangshunoslik zarur, deb o'ylayman", – deya ta'kidlagan edi Ibrohim Haqqul maqolalaridan birida.

Shu jihatdan olib qaralganda ham ritm bu – she'rning yurak urishi, jilvakor oqim. Uning hosil bo'lishida muhim o'rin tutadigan omillar bor. Eng birlamchichi urg'u, vazn mutanosibli va qofiyadir. Anafora, epifora, assonans, alliteratsiya, ritmik pauza va tovushlar garmoniyasi esa ikkilamchi omillar. O'zbek modern she'riyatidagi ohanglarda ayni shu nazariyalarning unsurlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

80–90-yillar avlodining zabardast vakili Abduvali Qutbiddin ijodi misolida she'rning ohang dunyosiga sho'ng'ir ekanimiz, shoir ijodining ritmik omillari bugungacha tadqiq qilinmaganini alohida ta'kidlash lozim. "Shoir she'rlarini o'qir ekansiz, uning juda ko'plab diniy-falsafiy adabiyotlardan xabardorligini, xalq og'zaki ijodining yetuk bilimdoni ekanini, ijodi boshdan oyoq ezoterik bilimlar bilan sug'orilganini chuqur anglaysiz. Shoir vazn va qofiya, badiiy san'at singari she'riy unsurlar emas, balki tabiiy tushuncha va tafakkur tarzini ham qoliplaridan chiqarib, butunlay boshqa o'zanlarga solib yuboradi. Uning satrlarini o'qir ekansiz, qandaydir ilohiy kuy, sehrli ertak qulog'ingizga asta oqib kirgandek bo'ladi" [1]. Ayni shu jihatlarni hisobga olgan holda sohrinafas shoir ijodidagi yashirin ritmlar sirini ochamiz.

Abduvali Qutbiddin she'riyati o'ziga xos va ritmga boy. Bu ritmlarda uni hosil qiluvchi omillarning har turi jo bo'lgan. Ba'zi she'rlar bir o'qishda o'ynoqi satrlarning tebranma harakati bilan ovozingizda raqs tushadi. Nainki ovozingizda, balki ichingizdagi devona ruhni ham uyg'otib "sa'mo"ga chorlaydi. Bundan shoir she'riyati tasavvufiy ohanglarga cho'milganini ham anglash mushkul emas. Ushmundoq ohanglar ritm jihatdan goh Yunus Emro soziga jo'r bo'lsa, goh o'zi yangi sozning torlaridan taraladi. Ba'zi she'rlar o'qilganda shu qadar quymadek tuyuladiki, qaysi ritmik omillar evaziga yangrayotganini ilg'ash mushkul. Bunday yashirin ohanglardagi mahoratni tahlil qilib chiqamiz. Dastlab Abduvali Qutbiddin she'rlaridagi ritmik tarkibni sarhisob qilamiz.

Masalan, "Ey, dilbarim" she'rining boshlanishi:

O-hu-mi-ding / yo-bo-nim-da / suv iz-la-gan,

12=4+4+4

Yo-hu-mi-ding / to-mo-nim-da / lab iz-la-gan [2: 186].

12=4+4+4

Texnik jihatdan ushbu she'r yuqoridagidek vazn va turoqqa ega.

Metr o'lchovi bo'yicha esa **diyambik geksametr** (*Geksametr* (yunoncha "hex" – "olti", "metronome" – "o'lchov") 6 daktildan (yunoncha "daktylos" – "barmoq") iborat qadimiy misralarning eng mashhur turi. Gomer davridan beri geksametr epik she'riyatning hal qiluvchi omili bo'lib kelgan. Ya'ni olti bo'lakdan iborat satrlarning metrik chizig'i. Bu klassik yunon va lotin adabiyotida, masalan, Iliada, Odissey va Ovidning metamorfozalari, Orfey madhiyalarida an'anaviy epik o'lchagich bo'lgan. Yunon mifologiyasiga ko'ra, geksametrni Apollonning qizi va Delfining birinchi Pifiyasi Femonoe ixtiro qilgan) toifasiga to'g'ri keladi.

— – urg'uli/uzun bo'g'in; ◡ – urg'usiz/qisqa bo'g'in;
◡—◡— **diamb**

Bu ohang tizimi **tetrasillab**, ya'ni to'rt bo'g'inli metrik guruhga mansub bo'lib, urg'usiz bo'g'indan keyin urg'uli bo'g'in va uning takroridan hosil bo'lgan satrlarga nisbatan ishlatiladi. Yanada aniqroq aytganda, bu – yambning qo'shma ko'rinishi. Yamb o'zbek she'riyatida ko'p uchraydi va o'ziga xos ritmik tuzilma bilan ajralib turadi. Chunki boshqa metrik o'lchovlardan farqli ravishda, unda urg'u ikkinchi va to'rtinchi bo'g'inlarga tushadi. Tilimiz fonetik xususiyatlariga ko'ra, urg'u asosan ikkinchi va oxirgi bo'g'inlarda namoyon bo'lishi bilan bu tizim o'zaro uyg'unlashadi. Shu jihatdan A.Qutbiddinning yuqoridagi she'rini ushbu o'lchov bo'yicha tasnifladik. Yuqoridagi nazariyalarga asoslansak, she'rning ritm bo'linishi quyidagicha yozilishi mumkin:

O-hu / mi-ding / yo-bo / nim-da / suv iz / la-gan,
◡—/◡—/◡—/◡—/◡—/◡—
Yo-hu / mi-ding / to-mo / nim-da / lab iz / la-gan.
◡—/◡—/◡—/◡—/◡—/◡—

Ritmni hosil qiluvchi boshqa omillarga ko'ra she'r "mag'z – mag'zi oltin" ichki qofiyalar bilan boshlangan. Bunda birinchi va ikkinchi satr ustunlari hech qayerga toyimay, bir-biri bilan vertikal silliq qofiyalarga tayanmoqda. Uchinchi satr ham shunday davom etarkan, shoir to'satdan to'rtinchi satr ustunini "sindirib" qo'yadi. Bu esa o'z navbatida, aralash ritmni hosil qiladi va she'r jozibasiga joziba qo'shadi:

Dalligina jahonimda
Siyму zarim: –
Ey, Dilbarim...

Go'yoki o'ynoqi to'lqinlar birdan shu yerda tin olib, keyingi kupletlar osha yana o'z yo'lida davom etadi. She'r boshdan oxir mana shu ritmik shakl asosiga qurilgan.

Chashmaming toshlar uzra to'kilasan,
Ufqmiding quyosh ketgach yiqilasan,
Yamoq tushgan hayotimda
Sen chevarim:
– Ey, Dilbarim...

Shoir ijodida ritmik ohangni ta'minlashda anafora va epiforalarning ham o'rni katta. Masalan, bir she'rida **epiforani** quyidagi tarzda qo'llaydi:

Payg'omlar yo'lladim, uyg'on, hilolim,
Junun oqshomlari ochdi jamolin,
Poyalar uribman domingga sening,
Sen mening,
Sen mening,
Sen mening [3: 10].

Har band oxirida takror keluvchi "Sen mening" birikmasi nafaqat ritmik ohangga, balki o'quvchiga, u orqali butun dunyoga ko'nglining sohibasi faqat unga tegishli ekanini qayta-qayta uqtirib, bu ifodani mustahkamlaydi. "Illo" she'rida esa **anaforaga** murojaat qilinadi:

Illo, qismatimni titib qo'yganman,
Illo, havasimni qirqib qo'yganman.
Illo, jamolingga ko'zim o'yganman,
Illo...

Bunda shoir "illo" orqali hasratlarini tizib boradi. Xuddi tasbeh o'girayotgandagi tovushlar chalinadi quloqqa. Biroq birinchi va ikkinchi misralardagi **"titib"** va **"qirqib"**ning qofiyasida andak "aybchasi" bordek tuyulsa-da, yuqorida ta'riflaganimiz **assonans** tovushlarga tayanib yozilgan bo'lishi ham mumkin.

Quyidagi she'rda ham **anafora**, ham **epiforadan** unumli va mahorat bilan foydalanilgan:

Hech kim suygan emas, **meni** senchalik,
Hech kim sevgan emas **meni** yurakdan.
Hech kim to'kilmagan sendek elanib,
Hech kim to'kilmagan sendek elakdan.

Hatto epifora va anaforaning o'rtasida ham bir-biriga uyqash takrorlar bor. Bu esa she'rning bir o'qishda yod bo'lgulik ohangiga doyalik qilgan. Lekin hech bir takror vazn to'ldirish uchun behuda qo'llanmagan. Shoir bir xil so'zlarning har biriga o'zgacha rang berganki, bunda nafaqat ritmik izchillikni his qilish, balki tasviriy san'at jozibasiga ham guvoh bo'lish mumkin.

Demak, rimik unsurlardan unumli foydalangan shoirning bir necha boshqa she'rlarini yaxlit tahlil qilamiz. Dastlab "Osima" turkumidagi "Ushmundoq" she'ridan boshlaymiz. Ushbu turkumdagi she'rlar mavzu jihatidan **ballada** janriga xosdir. Musiqiy ohanglari jihatidan ham. Unda hasratlar to'lqini raqs tushayotganini his qilmaslik mumkin emas.

Metrik tahlilga o'tsak! Ritmik o'lchov bo'yicha she'r **anapestik-(yambik) trimetr**ga mos keladi.

◡◡— **anapest antidaktilus**; ◡— **iamb (yoki yamb yoki yambus)**

She'rda uchta uch bo'g'inli, urg'usi oxirgi bo'g'inga tushuvchi metr o'lchovidan tashqari, ikki bo'g'in ham turli

o'rinlarda almashib yuradi. Bu esa aralash ritmni hosil qiladi:

O-si-ma, / ne qi-lay / ko'ng-lim / ush-mun-doq,
 ○○○—/○○— / ○— / ○○○—
Bir che-ti / os-mo-nu, / bir che-ti / tup- roq.
 ○○○—/○○— / ○○○— / ○—

Quyidagi satrlardan boshlab **epifora** ichki qofiyalar bilan juda quyuqlashib kelgan:

*Bir tunda podshoman ikki kishivarga,
 Bir kunda zordirman bir qur nazarga.
 Lipillab, lipillab bo'zardi ruhim,
 Xohla porlatib qo'y,
 xohla parchala,
 Esiz, har tomonga urdi shukuhim,
 Esiz, o'tolmadim shum darichadan.*

Keyingi banddan **rimik pauzalar** juda go'zal tus oladi. Go'yo har nafasda oshiqning ko'ngli to'kilib, cho'kallab borayotgan qiyofa chiziladi:

*Osima,
 Roziman,
 mendan asar yo'q,
 Ista,
 men haqimda boshqa xabar yo'q.
 Ammo dilim erka dilingni istar,
 Mendek xushxabar yo'q,
 Mendek xatar yo'q.*

“Osima”ning “roziman”ga uyqashligini aytmaysizmi? Uning asosini “roziman”ning “r” hamda “n” tovushlari ikki tomondan quchib turadiki, bu tovushlar tarkiban *m, h, x* undoshlari bilan birgalikda band davomida ham aylanib **alliteratsiyani** va u orqali ajoyib ritmni hosil qiladi.

Yana lirik qahramonga murojaat bilan boshlanuvchi quyidagi bandda esa bir qarashda sezilmaydigan ichki qofiyalarni uchratish mumkin:

*Osima,
 Alarga ko'p ham inonma,
 Ular qush ko'mganlar xiyobonlarga.
 Quamlari zarlangan
 Bo'lsa ham bordir,
 Lek harom o'rmalar tovonlarida...*

Shu yergacha *a, b, c, b* shaklida kelayotgan qofiya tizimi so'nggi bandda *a, b, a, b* shakliga o'tib, to'q qofiyalar orqali she'r ritmini va qahramonning iqrortlarini yanada mustahkamlaydi.

*Osima,
 Sen haqsan,
 Men tugab botdim,*

*Bu qissa so'ngida, shudir qasida.
 Go'zal borlig'imni maydalab sotdim,
 Yo'g'imni qaytardim
 O'z egasiga...*

Bitta satr tarkibida kishilik va ko'rsatish olmoshlarining ketma-ket qo'llanilishi ichki qofiyani hosil qilib she'r ritmiga o'z ta'sirni o'tkagan.

A.Qutbidinning Hofiz Sheroziyning mashhur iborasiga atalgan “Hofizga” she'rida ritm va mavzu uyg'un boshlangan:

*Sohibdilim – diloro,
 Ayyit, to'xtasin karvon [3: 8],
 (sizga ham sahroda ketayotgan tuyaning yurish ritmi sezilyaptimi? eshiting-da)
 Nay puflagan quyunning
 Enasimi biyobon.*

Tovushlarning chiroyli garmoniyasi bilan boshlangan she'r. Ichki ohangini ham his qilyapsizmi? Bunda birinchi satrga xalqimizning “sopini o'zidan chiqarmoq” iborasidek yondashilgan. Biroq ikkinchi satrda o'z-o'zidan savol paydo bo'ladi. Nega “ayyit”? “*Siz o'ylaysizki, shoir bilmaydimi “ayt” deb yozishni. Bo'g'in to'ldirishning boshqa yo'lini bilmaydimi? Gap shundaki, shoir bu so'zni o'qiyotganda uzoq cho'zib talaffuz qiladi. Zotan, uning o'z she'riy texnikasiga individualistik nuqtayi nazari bor. “Ayyit” uzoq so'lish bilan talaffuz etilarkan. U keyingi ikki satrdagi nay, quyun, ena, biyobon so'z-obrazlari bilan ajib bir tarzda hamohanglik topadi. Quyunning nay kabi ovozigga ushbu “ayyit” to'la ohangdosh” (I.G'ofurov) [4].*

Hech bir ritmik o'lcham formulasiga tushmaydigan bu she'rning o'z individual ritmi bor. Karvon ohanggi bor. Tabiiyki, mavzuga monand. “Quyulib kelgan” iborasi aynan ushbu she'rga xosdir. She'r yakuniga qadar mana shu quyma oqimi bilan davom etarkan, satrlar chayqalib-chayqalib, so'z karvonida ketaveradi.

*Sohibdilim – diloro,
 Ko'p riyozat chekdim-ku!
 O'zim ketdim, yo'lingga
 Toqatimni ekdim-ku!*

Yakunda esa shoir ushbu karvonning sarboni Hofiz ekanini ta'kidlaydi. Abduvali Qutbiddin esa mana shu “ishq ohanglarini puflagan nay” desak haqli ta'rif bo'lar ehtimol.

*Sohibdilim – diloro,
 Vasling sarobmi, ro'yo,
 Hofiz emasman, ishqda
 Abduvaliman go'yo...
 Sohibdilim – diloro!*

Shoir tarkibdosh so'zlarni bir satrda saf torttirish bilan ham jozibador ohanglarni yaratganini juda

ko'plab she'rlari misolida ko'rish mumkin. Bu so'zlar garmoniyasining dunyoga kelishiga va o'qiganda silliq "falsh"siz jaranglashiga sabab bo'ladi.

"Afsonaviy qo'shiq"ning boshlanishi:

Yuzlandimo bo'shliqqa.

Ena, endi qo'shiqman.

"Yuzlandimo"dan tashqari bari uyg'un.

Mirrixda tirik giyoh,

Zuhalda obihayot.

"Mirrix" va "tirik"ning tarkibi "i" va "r" tovushlari asosiga qurilgan bo'lib, muallif bunaqa "fishka"larni juda ko'p qo'llaydi. Keyingi satrda bu *h, a* tovushlariga to'g'ri keladi.

Biqinlarim og'riydi,

Bo'layotirman G'irotd.

Bog'i eram, eramo,

Yashnayapti yaramo.

Bu to'rtlikda yaqqol ko'zga tashlanadigani "b" undoshiga vertikal, "y" gorizontal alliteratsiyani tushishi. "G'irotd" va "og'riydi"ning esa tovush tarkibi yaqin: *o, g', r, i*.

"Osima" turkumidagi yana bir she'r ham ana shunday hodisalarga boy:

Ko'zimdan o'pib qo'y, Osima!

Senga olma bergum mag'z-mag'zi oltin [3: 2].

"O" tovushi bilan assonans yuzaga kelgan. Keyingi satrlarda esa "t" bilan alliteratsiya:

Tishlasang, tishlaring hammasi tilla,

Lablaring yolqin...

Navbatdagi kupletda esa ichki och qofiya bo'y ko'rsatadi:

Xohlasang beraman sehrgar kaklik,

Sayrasa bo'g'zidan tushadi guhar,

Endi qizig'ini ko'ring. She'rda ritm va ohangga ta'sir qiluvchi yana bir qancha omillar borki, uni hamma shoirida ham uchratavermaysiz. Bu – ayrim bo'g'inlarning ko'zgu "qofiya"si:

Istasang zumurrad tarog'im senga,
Sochingni tarasang yarmisi zumrad.

Yoki

Ayoz ishqab o'tar eshikka betin.

Ququlab yuborar hovlida tovuq,

kabi tarkibiy akslanishlar ham namoyon bo'ladi.

Quyida berilgan satrlarda esa ichki qofiyalar jilvalanadi:

Mashaqqat sohibim, arkonim armon,

Amirim qashqir...

Bunisi esa top-toza assonans:

izingdan izlarim izillab ketgan.

Shoirning barcha kitoblarida "Qo'shiq" turkumi juda ko'p uchraydi. Masalan, "Hijron haqida qo'shiq", "Qo'shiq haqida qo'shiq", O'layotgan hindu qo'shig'i" va hokazo. Lekin ana shu turkum sarlavhalardan tashqari ham Abduvali Qutbiddinning barcha she'rlari nomsiz qo'shiqlardir. Har birining qatida ko'hna ohang, yangicha ritmlar ovozi berib turadi. Iste'dod va mehnatning mahsuli bo'lgan bu "qo'shiq"lariga shoir Abduvali Qutbiddinning doira bilan hamohang mamnun ovozi jo'r bo'lib qoladi:

Qumri sayla, gulruhim,

Ravza ayla shukuhim,

Sayrog'imdan sayrona,

Qo'shiq to'qiy g'ayrona.

Abduvaliman, hay-hay,

Laqa-tam-tam, lay-lay,

Abduvaliman, hay-hay,

Laqa tam-tam, lay-lay [3: 16].

Shuningdek, A.Qutbiddin she'riyatidagi ritmik omillarda onomatopeyaning ham hissasi bor. Buning ilk misolini allaqachon yuqoridagi she'riy parchada o'qib bo'ldingiz: "laqa tam-tam, lay-lay". Mana shu so'zlar yasalishi ortidan go'yoki doira usullari hosil bo'lgan: *bum ba-ka, bum bak*.

Yoki "Kaptarlarim, kaptarlar hay-u, hay-u, hay-ula" misolida arg'imchoq uchganda aytiladigan so'z tempini beixtiyor his qilasisiz.

Bir onomatopeyaning turli ifoda ma'nolarini kasb etishi ham uchraydiki, u faqat ritm hosil qilibgina qolmay, xatto yasalgan so'zning ham turli ranglari borligini yaqqol chizib, isbotlab beradi. Masalan, shoirning "Beshik" she'ridagi "ship-ship"... [5: 34]:

Qimirladi. Jimirladi,

Asta-sekin shivirladi:

- Ship-ship...

Xaxolab kuldi yalpiz,

Dikkillab chiqdi chechak:

- Ship-ship...

Qo'shiq aytadi beshik,

Beshikda uxlar qo'shiq:

- Ship-ship...

Mana Abduvali Qutbiddinning ohang sirlari nimada?! Klassik ritmlar, assonans va alliteratsiya; ichki va ko'zgu

qofiyalar, tovushlar garmoniyasi. Bu ritmik unsurlar ehtimol tafakkur mahsuli, yoinki, ilohiy in'omdir. Nima bo'lgan taqdirda ham, shoir to'zining mana shu ovozinu topgunga qadar qanchadan qancha qoralamalar g'ijim qog'ozlarda

“to'lg'o-naa-to'l-g'o-naa jon bergani” aniq. Demak, zamonaviy she'riyatdagi ritmik unsurlarning tasavvufiy ruh epkinlari bilan qorishgan manzarasi Abduvali Qutbiddin ijodining individualligiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduvali Qutbiddinning sirlu dunyosi – bir she'r tahlili. https://oyina.uz/uz/article/3328?utm_source=chatgpt.com.
2. Qutbiddin A. Bor. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
3. Qutbiddin A. Xayol kechasi – Toshkent: Yozuvchi, 1994.
4. Abduvali Qutbiddin. Shoirning o'zi o'qigan she'rlar & Ibrohim G'afurov. Tafakkur shakllari. https://kh-davron.uz/kutubxona/multi-media/abduvali-qutbiddin-she'rlar-ibrohim-gafurov-tafakkur-shakllari.html?utm_source=chatgpt.com.
5. Qutbiddin A. Nayson – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
7. Fitrat A. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O'qituvchi, 1995.

Madina JALILOVA,

Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

“BOBURNOMA”DAGI AYRIM OYKONIMLAR TARKIBIDAGI INDIKATORLARNING LINGVOGEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi ayrim oykonimlar tarkibidagi kent indikatorlarning lingvogeografik xususiyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: oykonim, indikator, variant, dromonim, oronim, areal, lingvogeografiya.

Annotation. In the article, the linguogeographic features of the city indicator in some of the names in the work “Boburnoma” by Zahiriddin Muhammad Babur are studied.

Keywords: oikonym, indicator, variant, dromonym, areal, linguogeography.

Аннотация. В статье изучаются лингвогеографические особенности показателя кент в произведении “Бабурнаме” Захириддина Мухаммада Бабура.

Ключевые слова: ойконим, индикатор, вариант, дромоним, ороним, ареал, лингвогеография.

“Boburnoma”da tasvirlangan oykonimlarni kuzatar ekanmiz, ular tarkibida kat, kent, kand indikatorlari (lot. “indicator” – aniqlagich, ko'rsatkich) [2: 34] keng qo'llanganligini guvohi bo'lamiz. Indikatorlardan biri kat – shahar degan ma'noni bildiradi. Bu terminga Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asarida ham sharh berilgan. V.V.Bartoldning fikricha, kat (kand) – sug'd tiliga mansub so'z bo'lib, dastlab uy, yashash manzili degan ma'noni anglatgan va keyinchalik turkiy tillarga o'zlashgan. Ma'lumki, Z.Do'simov indikator (aniqrog'i, toponimik indikator) atamasini o'zbek onomastikasiga ilk marotaba olib kirgan edi. U joy nomlari tarkibida qatnashib, ular ifodalagan obyektning turini, xarakterini bildiruvchi lug'aviy birliklarni “indikatorlar” deb izohlagan [4: 71–74].

Olimlar kat (kass) va kent (kand) aslida sug'dcha bir so'zning variantlari ekanini aniqlashgan [9: 31]. O'zbekiston toponimlari tarkibida eng ko'p keladigan indikatorlar kat (kass) va kent (kand) qishloq, shahar, manzilgoh degan ma'noni bildirgan. Memuarda yuqoridagi indikatorlar bilan ifodalangan 10 ta oykonim (Axsikat (Aksi), Banokat (Shohruhiya), Navkand, Piskent (Bishkent), Dahkat, Yorkand, Lotkand, Toshkand, Fanokat, Farkat) va 1ta dromonim (Archakent yo'li) hamda 1 ta oronim

(Yettikent tog'lari) keltirilgan. Demak, Bobur davrida ham bu indikatorlar bilan yasalgan toponimlar ancha faol bo'lgan.

Eroniy tilli hududlarda kat, turkiy tilli hududlarda esa kent aniqlagichli qishloq, qo'rg'on, shahar, nomlari aniqlangan [11: 63]. Biroq biz memuarda turkiy tilli hududlarda ham kat so'zli oykonimlar faol qo'llanganiga guvohi bo'ldik: “Sayxun suyining shimoli tarafidagi qasabalar: bir Axsidur. Kitoblarda Axsikat bitirlar...Farg'onada, Andijondin so'ngra mundin ulug'roq qasaba yo'qtur” [10: 36]. Aкси oykonimi haqida X asrda yaratilgan “Hudud ul-olam” asarida Axsikat tarzida ikki o'rinda qo'llangan.

Memuarda, shuningdek, Banokat shahri tasvirlangan: “Ma'muraning kanorasida voqe' bo'lubtur, sharqi Farg'ona va Koshgar, g'arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruxiyakim, Shosh va Banokat deb bitarlar” [10: 59]. “Banokat – Shohruxiya qo'rg'onining o'rnidagi qadimiy shahar. Chingizxon vayron qilgan, Amir Temur qaytadan tiklab, kenja farzandi Shohrux nomi bilan atagan. Qoldiqlari Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida (hozirgi Oqqo'rg'on tumanida) saqlanib qolgan” [3: 79]. Memuarda Shohruxiyaning qadimgi nomi Banokat ekani ta'kidlangan. Bobur bir o'rinda bu shaharni Fanokat deb tilga olgan: “Sayxun daryosikim, Xo'jand suyig'a mashhurur, sharq-u shimol tarafidin kelib, bu viloyatning ichi bila o'tub, g'arb

sori oqar, Xo'jandning shimoli va Fanokatning janubiy tarafidinkim, holo Shohruxiyag'a mashhurdir, o'tub yana shimolga mayl qilib, Turkiston sori borur" [10: 34]. "Bu shahar ilk bor "Muqaddasiy" asarida tilga olingan" [11: 49]. Demak kat indikatorli qishloq, shahar nomlari faqat eroniy tilli hududlarda emas, turkiy tilli hududlarda ham faol qo'llanilgan.

Kat (kent) so'zi ishtirokida paydo bo'lgan geografik nomlar eng qadimiy toponimlar hisoblanadi. Kat termining areali juda keng va u butun Yevrosiyo materigi bo'ylab tarqalgan. Bu esa toponimlarning asl kelib chiqishi bir-biriga yaqin ekanidan va uzoq o'tmishda xalqlar orasida mustahkam aloqalar bo'lganidan dalolat beradi. Chunonchi, memuarda keltirilgan Toshkent (O'zbekiston), Dahkat (Tojikiston), Yorkand (Xitoy) kabi ko'plab tarixiy toponimlar bunga misol bo'la oladi: "Men Muhammad Husayn mirzo bila so'zlashib, O'ratepaning kentlaridan Dahkat degan yerda qishlamoq bo'ldum" [10: 86]. Dahkat O'ratepa va Mascho viloyatlarini ajratib turuvchi tog' etagidagi qishloq bo'lib, O'ratepa hokimi Muhammad Husayn Dug'lat taklifi bilan Bobur shu yerda qishlagan. Dahkat oykonimi tarkibidagi dah so'zi fors-tojikcha o'n, ya'ni o'n qishloq ma'nosini anglatgan. Demak, kat termini shaharlarga nisbatan ham, qishloqlarga nisbatan ham ishlatilgan. Shuningdek, qaysi hududdagi nomlar tarkibida bo'lishidan qat'i nazar, qishloq, qurg'on, shahar ma'nosini bildirgan.

Yana shunday komponentli toponimga Toshkent viloyatidagi qadimiy shahar Farkat kiradi: "Hazrati Xojago Xoja Samarqandtin chiqib kelib, Farkatta o'lturub edilar" [10: 87]. X asrga mansub "Hudud-ul olam" asarida Farnkas tarzida keltirilgan [3: 523]. Hozirda esa Parkent deb ataladi. Demak, kas va kat so'zlari kent so'zining tarixiy shakllari bo'lgan va o'tmishda toponimlarni yasashda faol ishtirok etgan. E.M.Murzayev kat termining hind-yevropa, fin-ugor, turk va mo'g'ul tillarida bir qancha variantlari borligini qayd etgan [5: 56].

"Boburnoma" asarini o'rganar ekanmiz, asarda kat, kent, kand indikatorlarining hindcha varianti pur termini asosan Hindiston, qisman Kobul (Afg'oniston) hududidagi oykonimlar tarkibida faol qo'llanilganining guvohi bo'lamiz. Memuarda jami 21 ta Hindiston hududidagi pur aniq lagichli oykonimlar: (Abapur, Burhonpur, Bujpur, Bahlo'lpur, Dipalpur, Dahpur, Diydapur, Do'lpur, Jo'npur, Manikpur, Nanapur, Odampur, Piro'zpur, Sultonpur, Sarangpur, Ratanbo'r (Qozon bosmasida Ratanpur) Sekandarpur, Udaypur (Dungarpur), Fatxpur, G'ozipur, Hojipur) va 1 ta Kobuldagi (Odinapur) oykonim tilga olingan. Bugungi kunda ham pur bilan yasalgan oykonimlar mavjud bo'lib, V.A.Juchkevichning fikricha, Hindiston xaritasida pur indikatorli 500 dan ortiq shahar nomi mavjud [6: 309].

Hindiston toponimiyasi nihoyatda murakkabligi bois eng kam o'rganilgan soha. Bu aholining etnik va til jihatdan xilma-xilligi, murakkab mingyillik tarixga egaligi bilan izohlanadi. Mintaqadagi ko'pgina geografik nomlar qadimgi Sanskrit tiliga borib taqaladi. Janubiy Osiyoning ko'plab zamonaviy tillari (hind, bengal, panjob, urdu va

boshqalar) shu til asosida shakllangan. Shuning uchun joy nomlari ushbu til bilan bog'liq. Masalan, pur – shahar bilan bog'liq nomlarni (Hindistonda Kanpur, Jabalpur, Jodxpur, Pokistonda Bhawalpur; Nepalda Lalitpur; Bangladeshdanda Chandpur) ko'p uchratish mumkin [1: 148].

V.A.Kocherginaning "Санскритско-русский словарь" kitobi 30000 so'zni o'z ichiga oladi va ular orasida biz quyidagilarni topamiz: puru – shaxs, qabila; puru – urug', qabila, paura – shaharlik degan ma'noni anglatadi [6: 402]. Shuningdek, V.A.Kochergina "Учебник санскрита" kitobida pur so'zi shahar, pura-qal'a degan ma'nolarni anglatishini qayd etgan [8: 22;160].

Shunday qilib, shahar va qishloq nomlari tarkibida keluvchi pur so'zi asosan hind joy nomlari tarkibida kelgan. Qadimgi Aryan madaniyatining muqaddas sanskrit tilidagi pura so'zidan olingan bo'lib, shahar va qal'a degan ma'nolarni anglatgan. Masalan, buni asardagi Fathpur shahri tahlilida ko'rishimiz mumkin: "O'rdi Fathpurda tushub edi, Fathpurda bir kun turub, shanba sahari vuzu qilib, o'tlanib, Rapriyning yovug'ida namozi bomdodni jamoat bila o'taduk" [10: 248]. Jamna daryosi sohilida joylashgan bu shahar ikki so'zdan tashkil topgan bo'lib, fath arabcha – ochish, ochilish, egallash, zabt etish, g'alaba, bosib olish kabi ma'nolarni anglatadi [12: 335]. Demak, Fathpur – g'alaba shahri degan ma'noni ifodalab, arabcha va sanskritcha so'zlar birikmasidan hosil bo'lgan.

Hindiston shaharlarini o'rganar ekanmiz, ular tarkibidagi pur ma'lum ma'noda har bir joy haqida noyob hikoyalar so'zlaydi. Jumladan: "Pahorxonni bosib Laho'r va Dipalpurii fath qilg'ai yili keyla kelturub, ekturub edim, sabz bo'lub edi" [10:110]. "Dipalpur buyuk tarixiy o'tmishga ega va juda qadimiy shahardir. U hozirgi Pokistonning Panjob viloyatida, Ravi daryosi bo'yida joylashgan 2000 yillik tarixga ega Shahar" [3: 225]. Ko'pgina pur indikatorli shaharlarga qirollar nom bergan. Ular ko'pincha qirollik nomlariga pur so'zini qo'shib yangi nomlar (oykonimlar) hosil qilishgan. Masalan, Dipalpur so'zma-so'z tarjimada Dipa shahri deb tarjima qilingan bo'lib, asoschisi – paramara sulolasi hukmdori Raja Depa Chand Bhatti (1216–1240) sharafiga nomlangan.

Yana shunday o'z ismini tarixga muhrlagan shohlarning nomi aks etgan oykonimlarga memuarda keltirilgan Bahlo'lpur misol bo'ladi: "Yo'ldin borib, Bahlo'lpurkim, xolisa edi, sayr qilduk" [10: 186]. Bahlo'lpur Chinob daryosi bo'yidagi baland jarlik ustida joylashgan qal'a (hozir Pokistonning Panjob viloyatida) bo'lib, nomi lo'diylar sulolasining asoschisi Bahlul Lo'diy (1451–1489) nomi bilan bog'liq.

Keltirilgan dalillarga asoslanib, Udaypur shahri ham uning hokimi nomi bilan bog'liq deb ayta olamiz: "Az jumla Raval Uday Sing Bagariyki, volii viloyati Udaypur buda va duvozdah hazor suvor doshta..." [10: 229]. Udaypur Hindistonning Rojastan shtati hududidagi viloyat/shahar bo'lib, bizningcha, shahar uning rojasi Raval Uday Sing Bagariy nomi bilan atalgan. Do'lpur (Dholpur, Daulpur), Jo'npur shahar nomlari ham uning rojalari nomi bilan

bog'liq. Demak, Hindiston hududidagi oykonimlar asar leksik tarkibining bir qismi bo'lib, tarixiy voqealar va hukmronlik qilgan shoh va rojalarning taqdirining ko'zgasidir. Shuningdek, Do'lpur (Dholpur, Daulpur) – Rajastan shtatining janubiy qismida, Chambal daryosi yaqinida joylashgan tarixiy shahar. Roja Dholan asos solgan. Bobur Do'lpurni xolisa deb e'lon qilgan va u yerda bog'-rog'lar yaratib, hududni obod maskanga aylantirgan: "Do'lpurni xolisa qilib, shiqdorlig'ini Abulfath turkmang'a inoyat qilib, Do'lpurg'a yiborildi" [10: 217]. Demak, shahar uning asoschisi Roja Dholan sharafiga Dholpur deb atalgan. Keyinchalik fonetik o'zgarishga yuz tutib Do'lpur deb atalgan.

Jo'npur (Jaunpur) – hozirgi Hindistonning Uttar Pradesh shtatidagi shahar. Bobur Dehlini egallaganidan keyin, Jo'npurni Humoyun qo'lga olgan: "Ham ushbu kun G'iyosiddin qo'rchikim, o'lti kunluq buljor bila Jo'npurg'a

borib edi, keldi" [10: 246]. Shahar nomi Juana Xon xotirasiga qo'yilgan. 1359-yilda shaharni Dehli sultoni Feruzshoh Tug'loq bosib olgan va amakivachchasi Muhammad bin Tug'luq xotirasiga atagan, uning ismi Juana Xon edi. Demak, Juanapur – Juana shahri ma'nosini anglatgan.

Xulosa qilib aytganda, kat (kent) so'zi ishtirokida paydo bo'lgan geografik nomlar eng qadimiy toponimlar hisoblanadi. Kat termining areali juda keng bo'lib O'rta Osiyoda keng tarqalgan, shuningdek u butun Yevroosiyo materigi bo'ylab tarqalgan. Kat termini shaharlarga nisbatan ham, qishloqlarga nisbatan ham ishlatilgan. Shuningdek, qaysi hududdagi nomlar tarkibida bo'lishidan qat'i nazar, qishloq, qo'rg'on, shahar ma'nosini bildiradi. Kat (kent, kand), pur indikatorlari turli tillardagi so'zlar bo'lsa-da, bir umumiy ma'noni anglatib, oykonimlar hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Басик С.Н. Общая топонимика. Минск, 2006.
2. Begmatov E., Uluqov H. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. – Namangan, 2006.
3. Bobur ensiklopediyasi. – Toshkent: Sharq, 2014.
4. Do'simov Z. Toponimik indikatorlar. // O'zbek tili va adabiyoti, 1972, №5.
5. Hakimov Q. Toponimika. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2016.
6. Жучкевич В.А. Общая топонимика. Минск: Высшая школа, 1968.
7. Кочергина В.А. Санскритско-русский словарь. М: Русский язык, 1987.
8. Кочергина В.А. Учебник санскрита. М.: Филология, 1994.
9. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006.
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002.
11. Xudoyberganov R.Y va boshq. O'zbekiston joy nomlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Donishmandlar ziyosi, 2022.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. www.ziyouz.com kutubxonasi.
13. Do'simov Z. Toponimik indikatorlar. // O'zbek tili va adabiyoti, 1972, №5.

Feruza MAMATOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti xorijiy filologiya fakulteti ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti, Namangan davlat chet tillari instituti mustaqil tadqiqotchisi

INGLIZ VA O'ZBEK LINGVOMADANIYATLARIDA “LABOUR” VA “MEHNAT” ANTROPOFENOMENINING LINGVOKOGNITIV KATEGORIYALASHUVI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek lingvomadaniyatlarida “labour” va “mehnat” antropofenomenlarining kategoriyalanishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda mazkur antropofenomenlar o'ziga xos milliy-madaniy va kognitiv xususiyatlarga ega. Ingliz tilida “labour” ko'proq jismoniy kuch talab qiluvchi mehnatni ifodalasa, o'zbek tilida “mehnat” kategoriyasi maqsadga yo'naltirilgan natijaviy faoliyatni anglatadi. Mazkur xulosalar ilmiy va soha lug'atlari, metaforik iboralar, maqollar hamda ingliz tilida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalari asosida tasdiqlandi. Tadqiqot “labour” va “mehnat” antropofenomenlarining milliy-kognitiv kontekstda o'ziga xosligini ochib beradi.

Kalit so'zlar: “labour” kategoriyasi, “mehnat” kategoriyasi, kategoriyalashuv, milliy-madaniy xususiyatlar, lingvomadaniyat, prototip, psixolingvistik tajriba.

Annotation. This article examines categorization of the anthropophenomena “Labour” in English and “Mehnat” in Uzbek linguocultures. The study reveals that while both languages possess these concepts, they exhibit distinct national-cultural and cognitive characteristics. In English, “labour” predominantly denotes physically intensive work, whereas in Uzbek, “mehnat” refers to purposeful activity aimed at achieving a specific result. These conclusions are supported by analyses of scientific and professional dictionaries, idiomatic expressions, proverbs, metaphors, and survey data collected among English speakers. The research highlights the unique cognitive and cultural dimensions of the “labour” and “mehnat” anthropophenomena within their respective linguistic contexts.

Keywords: category of “labour”, category “mehnat”, categorization, national-cultural features, linguoculture, prototype, psycholinguistic experiment.

Аннотация. В статье рассматривается категоризация антропофеноменов «labour» в английской и «mehnat» в узбекской лингвокультурах. Исследование показывает, что хотя оба языка обладают данными понятиями, они обладают различными национально-культурными и когнитивными характеристиками. В английском языке «labour» преимущественно обозначает физический труд, тогда как в узбекском языке «mehnat» понимается как целенаправленная деятельность, направленная на достижение определённого результата. Выводы подтверждены анализом научных и профессиональных словарей, идиоматических выражений, пословиц, метафор, а также результатами опроса среди англоговорящих. Исследование подчеркивает уникальные когнитивные и культурные аспекты антропофеноменов «labour» и «mehnat» в их соответствующих лингвистических контекстах.

Ключевые слова: категория “labour”, категория “mehnat”, категоризация, национально-культурные особенности, лингвокультура, прототип, психолингвистический эксперимент.

Insoniyat tarixi davomida mehnat nafaqat moddiy boylik yaratish vositasi, balki madaniy, ijtimoiy va ma'naviy hayotning ajralmas qismi sifatida shakllanib kelgan. Har bir jamiyatda mehnatga nisbatan munosabat, unga berilgan ma'no va mazmun shu xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlar hamda dunyoqarashiga chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotimiz uchun ingliz va o'zbek olamining sodda lisoniy manzarasida “labour”, “mehnat” kategoriyalarining lingvokognitiv konseptuallashuvi va kategoriyalashuvining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga e'tibor qaratildi,

o'zbek lingvomadaniyati vakillari bo'lgan respondentlarning ushbu tushunchalarga bergan ta'riflarini tahlil qilindi. So'rovnomaga topshiriqlaridan biriga ko'ra, respondentlardan “labour” (stimul) so'ziga nisbatan hayoliga birinchi 3–5 soniya ichida kelgan birinchi fikrni (u so'z, so'z birikma, yoki jumla ham bo'lishi mumkin) yozish so'ralgan. Bu orqali biz “labour” konseptining assotsiativ maydonini [1: 109] yaratishga erishdik. Quyidagi jadvalda psixologik assotsiativ tajribaning natijalari berilgan:

Jadval 1

“Labour” antropofenomeniga bildirgan munosabatlar [3]

L A B O U R	Work 32%	Hard work/ Heavy work/ hardworking 18%	Effort 9 %	Toil 8 %	Sweat 6%	Childbirth 4%	Wages/ fair wages 4%	Assignment 3%
	Produc- tivity 2%	Physical exertion 2%	Uni-ons 2%	Slavery 2%	Indus- try 2%	Task to be done 2%	The dignity of work 2 %	Contribu- ting for society 2 %
	Total 100%							

Javoblarning eng ko'p – 32 foizini tashkil etgan assotsiatsiya “work”/ “ish” so'zi bo'ldi. Bu asosiy va tayanch tushuncha bo'lib, respondentlar ongida “labour”/“mehnat” kategoriyasining markaziy mental obrazi sifatida namoyon bo'ladi. “Ish” so'zi mehnatning faoliyat sifatidagi eng umumiy, kundalik ma'nosini aks ettiradi, aynan shu assotsiatsiya kategoriyaning prototipini belgilaydi va kognitiv yadro vazifasini bajaradi. Tez-tez takrorlanishi bo'yicha ikkinchi o'rinda (jami 18%) kuch va mehnat og'irligini ifodalovchi assotsiatsiyalar – “hard work,” “heavy work,” “hardworking” turadi. Ushbu javoblar shuni ko'rsatadiki, oddiy so'zlashuvda mehnat shunchaki ish sifatida emas, balki kuchli jismoniy va yoki aqliy zo'riqish bilan bog'liq faoliyat sifatida qabul qilinadi. Keyingi o'rinlarda turgan “effort”/“sa'y-harakat” (9 foiz), “toil”/“mashaqqat” (8 foiz) va “sweat”/“ter to'kish” (6 foiz) ham mehnat qiyofasini og'ir va mashaqqatli jarayon sifatida kuchaytiradi.

Demak, aksariyat respondentlar ongida mehnat, avvalo, jismoniy kuch sarflash va qiyinchiliklarni yengish bilan tavsiflanadigan faol faoliyat bilan bog'liq. Bu shundan dalolat beradiki, “mehnat” tushunchasining asosiy

darajasi aniq, sezilarli xususiyatlar, ya'ni energiya sarfi va mashaqqatli harakat bilan bog'liq.

Kamroq uchraydigan, ammo ahamiyatli assotsiatsiyalar mehnatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlariga taalluqlidir. Shunday qilib, respondentlarning 4 foizi “wages”/“ish haqi” yoki “fair wages”/“adolatli ish haqi” so'zlarini tilga olgan, bu esa mehnatni adolat va sarflangan sa'y-harakatlar uchun mukofot muhim bo'lgan haq to'lanadigan faoliyat sifatida tushunishni anglatadi. “Assignment”/“topshiriq” assotsiatsiyasi (3%) mehnatni bajarilishi kerak bo'lgan vazifa yoki topshiriq sifatida tasavvur qildiradi. Shu bilan birga, “productivity”/“unumdorlik” (2%), “kasaba uyushmalari” (2%), “mehnat qadr-qimmatini” (2%) va “jamiyatga hissa qo'shish” (2%) institutsional, axloqiy va jamoaviy o'lchovlarni o'z ichiga olgan mehnatni ijtimoiy ahamiyatga ega, tartibga solinadigan, ijtimoiy farovonlikka hissa qo'shadigan faoliyat sifatida yanada mavhumroq idrok etishni ko'rsatadi. “Bola tug'ilishi” (4%) assotsiatsiyasi qiziqarli bo'lib, “mehnat” tushunchasining ikkinchi ma'nosi – tug'ilish jarayonini aks ettiradi. Ushbu ko'p ma'nolilik shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi “mehnat” tushunchasi faqat ish sohasi bilan cheklanmaydi, balki

kengroq madaniy va biologik kontekstni qamrab oladi. Bundan tashqari, mehnatni zo'rvonlik va majburlash bilan bog'laydigan tarixiy-madaniy va axloqiy jihatni kiritadigan "qullik" assotsiatsiyasi (2%) ham uchraydi. Bu hamon kategoriyaning ma'nolar tizimiga kiradigan ekspluatatsiyaning tarixiy shakllari haqida chuqur bilim va xotira mavjudligini ko'rsatadi.

Yakuniy tahlil shuni ko'rsatadiki, inglizabonlar olamining sodda manzarasida "mehnat" kategoriyasi murakkab tuzilishga ega. Uning kognitiv yadrosida harakat va og'irlik bilan bog'liq faoliyatning aniq obrazi mujassam. Bu qatlamdan keyin ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarni o'z ichiga olgan kengroq daraja namoyon bo'ladi: mehnat – haq to'lanadigan, tashkil etilgan va ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyat. Nihoyat, periferik – chekkadagi assotsiatsiyalar ushbu tushunchaning madaniy-tarixiy va ko'p ma'noli kontekstini ochib beradi.

Shunday qilib, inglizlarda mehnatni idrok etish ko'p qirrali tushuncha bo'lib, aniq, kundalik tasavvurlarni ko'proq mavhum ijtimoiy, axloqiy va tarixiy ma'nolar bilan birlashtiradi. Bunday tuzilma prototip nazariyasi bo'yicha toifalar modeliga mos keladi, bu markazda eng tipik va ko'p uchraydigan "ish" obrazi joylashgan bo'lib, uning atrofida tushunchani kengaytiradigan va boyitadigan tipik, ammo muhim elementlar joylashgan.

Olingan ma'lumotlar tahlili "labour" tushunchasini Eleonora Roshning prototip nazariyasi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish imkonini beradi. Ushbu nazariyaga ko'ra, toifalar aniq chegaralarga ega bo'lmay, balki gradatsiya tamoyili asosida tashkil topadi, eng xos (prototipik) unsurlardan kamroq xos (periferik) unsurlarga qadar tartiblangan holda joylashadi.

"Labour" kategoriyasining prototipida eng ko'p (32%) javob olgan "work" assotsiatsiyasi hisoblanadi. U mehnatning muntazam faoliyat sifatidagi asosiy tushunchasini aks ettiruvchi universal, neytral va eng ko'p qo'llaniladigan birlikdir. Bu so'z kategoriyaning kognitiv va lingvistik markazini tashkil etadi. Kategoriyaning yadrosini mehnatning mohiyatini kuch-g'ayrat sifatida ochib beruvchi assotsiatsiyalar tashkil qiladi: "Hard work/Heavy work/Hardworking" (18%), "Effort" (9%), "Toil" (8%) va "Sweat" (6%). Bularning barchasi zo'riqish, jismoniy va aqliy yuklama, tananing ishtirokini ko'rsatadi. Bu esa oddiy dunyoqarashda mehnat, avvalo, og'ir, toliqtiruvchi faoliyat sifatida qabul qilinishini anglatadi. Shunday qilib, kategoriyaning kognitiv yadrosida mehnat haqidagi tasavvurlar kuch-g'ayrat, qarshilik va jismoniylik bilan bog'liq charchatuvchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Kategoriyaning periferiyasini mehnatning iqtisodiy, institutsional va qiymat o'lchovlari bilan bog'liq munosabatlar tashkil etadi: "Wages / Fair wages" (4%), "Assignment" (3%), "Productivity," "Task to be done," "Unions," "Dignity of work", "Contributing to society" (barchasi 2% dan). Bu assotsiatsiyalar mehnatni ijtimoiy foydali, haq to'lanadigan, tartibga solinadigan,

institutsional asosga va axloqiy ahamiyatga ega faoliyat sifatida qayd etadi. Demak, periferiya tushunchaning kundalik tajriba doirasidan tashqaridagi mavhumroq va ijtimoiy jihatdan shakllangan jihatlarini aks ettiradi. Kategoriyaning marginal darajasida "Childbirth" (4%) va "Slavery" (2%) assotsiatsiyalari joylashgan. Birinchisi inglizcha "labour" so'zining ko'p ma'noliligini aks ettirib, "tug'ruq" ma'nosini ham anglatadi, ikkinchisi esa majburiy mehnat haqidagi tarixiy-madaniy xotirani ifodalaydi. Bu ma'nolar semantik jihatdan prototipdan uzoq bo'lsa-da, madaniy tajriba darajasida u bilan bog'liq bo'lib, ma'nolarning chuqur qatlamlari jamoa ongida qanday saqlanib qolishini ko'rsatadi.

Demak, "labour" tushunchasining prototipik modelini quyidagicha tuzish mumkin:

Prototip – "work".

Yadro – "hard work", "effort", "toil", "sweat".

Periferiya – "wages / fair wages", "productivity", "unions", "dignity of work", "contributing to society".

Marginal elementlar – "childbirth", "slavery".

Tajriba natijalaridan keyin ta'kidlash mumkinki, ingliz tilida so'zlashuvchi respondentlarning oddiy dunyoqarashida mehnat, birinchi navbatda, jismoniy va ma'naviy jihatdan ko'p kuch talab qiladigan, ma'lum darajada azob-uqubat yoki zo'riqish bilan bog'liq, shu bilan birga, ijtimoiy hissa va adolatli mukofot unsurlarini o'z ichiga olgan jarayon sifatida qabul qilinadi. Assotsiatsiyalarning bunday taqsimlanishi "labour" tushunchasining kundalik faoliyatning asosiy tajribasini ham, ijtimoiy, madaniy va hatto tarixiy-travmatik ma'nolarni ham o'z ichiga olgan ko'p qatlamli tuzilishga ega ekanini ko'rsatadi. Bu esa lingvokognitiv tadqiqotlarda prototipik modelni qo'llashning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Ingliz tilida so'zlashuvchi respondentlarning oddiy dunyoqarashida "labour" kategoriyasining tuzilishi qat'iy iyerarxik va ko'p qatlamli ekanini ta'kidlash mumkin. Asosiy daraja (73%) ish va sa'y-harakatlar sifatida mehnat haqidagi bevosita va prototipik tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Ordinant daraja (17%) mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy va tashkiliy jihatlarini ochib bersa, superordinant daraja (6%) madaniy va tarixiy-biologik ma'nolar orqali tushunchaga chuqurlik baxsh etadi. Bunday iyerarxiya kognitiv tilshunoslikning nazariy qoidalarini aks ettiradi, unga ko'ra kategoriyalar eng tipik ma'nolarni qamrab oluvchi yadro va kamroq uchraydigan, ammo muhim ma'no kengaytmalarini o'z ichiga olgan chekkaga ega prototipik tuzilishga ega. Shunday qilib, ingliz tilida so'zlashuvchilar ongida "labour" kategoriyasining idrok etilishi ijtimoiy-iqtisodiy ma'nolar bilan to'ldirilgan va madaniy-tarixiy tushunish qatlamlari bilan mustahkamlangan jismoniy yoki aqliy zo'riqish g'oyasi ustunlik qiladigan murakkab tasavvurdir.

"Mehnat" konseptining assotsiativ maydonini yaratishga erishdik. Quyidagi jadvalda psixologistik assotsiativ tajribaning natijalari berilgan:

**“Mehnat” soʻziga tezkor munosabat bildirish – hayolga kelgan birinchi fikr aytilishi
(Javob 3 soniya ichida berilishi lozim)**

M E H N A T	Ish/ishlash 10,8 %	Vazifa 10,3%	Tirishqoqlik 10,1 %	Halollik/Halol ishlash 9,1%	Harakat/Harakat qilish 8,2 %
	Yumush 8,1,%	Majburiyat 7,1%	Daromad/ boylik/ haq/pul 6,4%	Maqsadga erishish 5,1%	Mas'uliyat 4,2%
	Qiyinchilik/ mashaqqat 4,1%	Charchoq 3,2%	Natija 2,8%	Oʻz ustida ishlash 2,3 %	Yuzi yorugʻ boʻlish 2,2%
	Sabr 1,9%	Kelajakka intilish 1,4%	Uy yumushlari 1,2 %	Dehqonchilik/ dalada ishlash 1,4%	Umumiy 100%

Respondentlarning “mehnat” soʻziga bergan fikrlariga koʻra, mehnat tushunchasi juda koʻp qirrali va keng qamrovli ekani yaqqol namoyon boʻladi. Respondentlarning 10,8%i ish va ishlash, 10,3%i vazifa, 10,1%i tirishqoqlik, 9,1%i halollik va halol ishlash, 8,2%i harakat va harakat qilish, 8,1% qismi yumush va majburiyat kabi tushunchalarni mehnat bilan bogʻladi. Bu koʻrsatkichlar mehnatni nafaqat vaqt oʻtkazish yoki jismoniy faoliyat, balki maʼlum bir vazifa va burchni halol va tirishqoqlik bilan bajarish jarayoni sifatida tasavvur qilishlarini bildiradi. Shuningdek, 7,1% respondentlar mehnatni daromad, boylik, haq va pul kabi moddiy jihatlari bilan bogʻlagan. Bu esa mehnatning iqtisodiy manfaatlar bilan chambarchas bogʻliqligini koʻrsatadi. Respondentlarning 4,2%i qiyinchilik, mashaqqat, 4,1%i charchoq, 3,2% esa natija kabi tushunchalarni ham mehnat bilan bogʻlagani uning nafaqat samarali, balki sabr va mashaqqat talab qiladigan jarayon ekanini ifodalaydi. Mehnat, shuningdek, shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida ham koʻriladi, bunga 2,3% respondentlar oʻz ustida ishlash, 1,4%i kelajakka intilish kabi fikrlar bilan ishora qilgan. Uy yumushlari (1,2%) va dehqonchilik hamda dalada ishlash kabi anʼanaviy faoliyatlar ham respondentlarning fikrida oʻz oʻrniga ega. Shu tariqa, “mehnat” atamasi respondentlar ongida nafaqat iqtisodiy faoliyat, balki shaxsiy va ijtimoiy qadriyat sifatida chuqur ildiz otganini koʻrsatadi. Bu esa oʻzbek jamiyatida mehnat madaniyati va axloqining rivojlangani, mehnatga masʼuliyat bilan va ijobiy munosabatda boʻlish qadriyatining mavjudligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalarga koʻra “mehnat”dagi lingvokognitiv va lingvoment kategoriyasining prototipik xususiyatlarini koʻrib chiqamiz. Respondentlar bildirgan assotsiatsiyalar orasida eng koʻp uchraganlari – ish, ishlash (10,8%), vazifa (10,3%), tirishqoqlik (10,1%), halollik, halol ishlash (9,1%),

harakat (8,2%) kabi tushunchalardir. Bu natijalar asosida “mehnat” tushunchasining prototipi shakllanadi. Prototip, kognitiv lingvistikada tushunchaning ongdagi eng asosiy, tipik va koʻpchilik tomonidan tan olinadigan namunasi hisoblanadi. “Mehnat” soʻzining prototipik xususiyatlari quyidagicha koʻrinadi:

- jismoniy yoki aqliy faoliyat (ish, harakat); natijadorlikka yoʻnaltirilganlik (maqsadga erishish, daromad); tirishqoqlik va davomiylik (tirishqoqlik, sabr);

- axloqiy mezonlarga asoslanganlik (halollik, halol ishlash); masʼuliyat va majburiyat bilan bogʻliqlik (vazifa, topshiriq, majburiyat).

Kognitiv modelda har qanday tushuncha yadro (markaz) va periferiyadan (chekka qism) tashkil topadi. Yadro prototipik xususiyatlarni mujassam etgan, eng muhim va barqaror elementlardan iborat boʻlsa, periferiya kontekstdan kelib chiqib bogʻlanadigan xususiyatlardir.

Yadro elementlarini quyidagilar tashkil etadi: ish, ishlash; harakat qilish; tirishqoqlik; halollik; vazifa, majburiyat; maqsadga erishish. Albatta, bu tushunchalar “mehnat”ning mazmuniy markazida joylashgan boʻlib, uning mohiyatini ochib beradi.

Periferik elementlar: charchoq; mashaqqat; sabr (mehnatning ogʻir jihatlari); daromad, pul, boylik (natijasi); uy yumushlari, dehqonchilik (konkret namunalari); kelajak, orzu, natija (motivatsion jihatlari). Periferiyada joylashgan tushunchalar koʻproq individual, kontekstual yoki hissiy baholashga asoslangan.

Demak, ingliz va oʻzbek lingvomadaniyatida tahlil qilinayotgan antropofenomen konseptiuallashuv va kategoriyani jarayonlarida oʻziga xos xususiyatlari, oʻxshash va farqli jihatlari bilan yaqqol namoyon boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. 4-е изд., стер. М.: КомКнига, 2007.
2. Стернин И. А. Проблемы анализа структуры значения слова. Воронеж: Изд-во Воронеж. ун-та, 1979.
3. Онлайн-документы для совместной работы. <https://workspace.google.com/products/docs/>.

Bobir MAXAMMADOV,

Andijon davlat chet tillari instituti mustaqil izlanuvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

TURK TILIDAGI MICROSOFT WINDOWS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING SHAKLIY-STRUKTUR TAVSIFI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Windows 11 turkcha foydalanuvchi interfeysida uchraydigan 150 ta yadro terminning shakl va tuzilish (morfoloqik va sintaktik) xususiyatlari tadqiq qilindi. Korpus-lingvistik yondashuv, morfoloqik analizatorlar va ekspert baholash asosida terminlar monomorfem, hosila, qo'shma, frazali, qisqartma, gibril kabi toifalarga tasniflandi; agglutinatitv suffiksatsiya tendensiyalari va inglizcha qarz so'zlarning adaptatsiyasi tahlil qilindi. Olingan natijalar Microsoft Turkish Style Guide me'yorlari bilan solishtirildi va normativ-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Windows lokalizatsiyasi, turk morfoloqiyasi, qo'shma so'z, suffiksatsiya, IT terminologiya, agglutinatsiya.

Annotation. This article investigates the morphological and syntactic properties of 150 core terms found in the Turkish user interface of Windows 11. Using a corpus-linguistic approach, morphological analyzers, and expert evaluation, the terms were classified as monomorphemic, derivative, compound, phrasal, abbreviated, or hybrid; agglutinative suffixation trends and the adaptation of English loanwords were analyzed. The findings were compared with the standards of the Microsoft Turkish Style Guide, and normative-practical recommendations were formulated.

Keywords: Windows localization, Turkish morphology, compound word, suffixation, IT terminology, agglutination.

Аннотация. В данной статье исследованы морфологические и синтаксические особенности 150 базовых терминов, встречающихся в турецком интерфейсе Windows 11. На основе корпусно-лингвистического подхода, морфологических анализаторов и экспертной оценки термины классифицированы как мономорфные, производные, сложные, фразовые, аббревиатурные и гибридные; проанализированы тенденции агглютинативной суффиксации и адаптация английских заимствований. Полученные результаты сопоставлены с нормами Microsoft Turkish Style Guide и сформулированы нормативно-практические рекомендации.

Ключевые слова: локализация Windows, турецкая морфология, сложное слово, суффиксация, IT-терминология, агглютинация.

Dasturiy mahsulotlarni mahalliyashtirishda semantik moslik bilan bir qatorda shakliy aniqlik ham muhim; u interfeys matnining kompaktligi, izchilligi va foydalanuvchi ongida model yaratilishiga ta'sir qiladi. Turk tili agglutinatitvligi sababli Windows terminlari inglizcha ekvivalentlarga nisbatan morfoloqik jihatdan chuqurroq differentsiatsiyaga ega. Mazkur maqola turkcha Windows terminlardagi morfoloqik qurilish, so'z-birikma modellari va qisqartmalarni tizimli tasniflashni hamda ulardan kelib chiqadigan normativ va amaliy muammolarni yoritishni maqsad qiladi.

Microsoft ekotizimida turkcha interfeys uchun normativ tayanch ikkita asosiy hujjatga suyanadi. Birinchisi – Microsoft Terminology Portal, u 100 000 + birlikni qamrab oluvchi real-vaqt termin ma'lumotlar bazasi bo'lib, Windows, Office hamda boshqa mahsulotlar uchun tavsiya etilgan atamalarni XML/CSV ko'rinishida yuklab olish imkonini beradi; portalda termin tarixi, ekvivalentlari va UI-kontekstdagi cheklovlar (matn uzunligi, qisqartma shakllari) ko'rsatiladi. Ikkinchi asosiy hujjat – Turkish Localization Style Guide. Ushbu 50-betli qo'llanmada imlo, sintaksis, bosh harf qoidalari, sanalar va o'lchov birliklarini yozish hamda menyu elementlari uzunligini nazorat qilish me'yorlari batafsil tavsiflangan; ayniqsa, agglutinativ qo'shimchalar sabab interfeys satrlari cho'zilib ketmasligi uchun muqobil qisqartirish strategiyalari taklif etiladi. Mazkur ikkilik – termin tanlashdan tortib, dizayn-limitlarni tekshirishgacha bo'lgan butun LQA jarayonining rasmiy "oltin standarti"dir.

Türk Standartlari Enstitüsünün "Bilişim Terimleri Sözlüğü" (2006) 16 000 atamani ISO/IEC 2382 kodlash

tamoyillari bo'yicha morfoloqik-semantik ko'rsatkichlar bilan tizimlashtirgan bo'lib, Windows lokalizatsiyasida "brend bo'lmagan" IT-leksikani standartlashtirish uchun eng ko'p murojaat qilinadigan manba hisoblanadi [1].

Morfologiya nazariyasiga oid klassik tadqiqotlar – M.Erginning *Türk Dil Bilgisi* (1958; 2019-yilda qayta nashr etilgan) [3: 640], G.Lewisning *Turkish Grammar* (1967/2000) [4: 303] hamda A.Göksel va C.Kerstake muallifligidagi *Turkish: A Comprehensive Grammar* [5: 65] – turk tilidagi so'z tuzilishi, derivatsiya va qo'shma so'z modellariga doir keng qamrovli ta'riflar va diagrammalarni taklif etadi. Ushbu monografiyalar Windows operatsion tizimidagi terminlarni **monomorfem ↔ hosila ↔ qo'shma** kabi qatlamlarga ajratishda nazariy poydevor sifatida xizmat qiladi.

Windows lokalizatsiyasida morfoloqik izchillikni avtomatlashtirish uchun affix-stripping yondashuvini taklif qilgan ilk ishlardan biri – Eryigit & Adali. Ushbu model korpusga leksikonsiz yondashib, qoidalar asosida qo'shimchalarni qatlam-qatlam ajratadi [2]. Keyinchalik Çöltekinning TRmorph tizimi finite-state mexanizmi bilan morfoloqik tahlil va disambiguatsiyani birlashtirib, GNU LGPL litsenziyasi ostida ochiq manba ko'rinishida taqdim etildi; hozirgi kunda termin-lint (CI) skriptlariga integratsiya qilinishi eng oddiy yechimlardan biridir.

"So'nggi yillarda Starlang guruhi GitHub'da e'lon qilgan TurkishMorphologicalAnalysis kutubxonasi tezkorlik ($\approx 10 ⁵$ so'z/soniya) va modullik jihatidan ajralib turadi, til resurslari ro'yxatiga yangilanayotgan leksikonni qo'shish imkonini beradi. Ushbu vositalar Windows .resjson fayllarida yuzaga keluvchi suffiks-variantlik va interfeys

satri uzunligi muammolarini avtomatik aniqlashga yordam beradi” [6].

Korpusni tayyorlash bo'yicha ish oqimi bir nechta ketma-ket bosqichlarni o'z ichiga oldi. Avvalo, Windows 11 (22H2) distributiviga o'rnatilgan turkcha til paketidan *.resjson* va *.mui* formatidagi resurs fayllari PowerShell skripti orqali avtomatik ravishda ajratib olindi. Ushbu fayllar foydalanuvchi interfeysida ko'rinadigan menyu nomlari, tugma sarlavhalari, xatolik xabarlaridan tortib, yordamlargacha bo'lgan matn satrlarini o'z ichiga oladi. Skript natijasida 7134 ta xom satr (string) JSON ko'rinishida markaziy “raw-corpus” katalogiga yig'ildi.

Keyingi bosqichda HTML / XML teglar, formatlovchi belgilar (\n, \t) va Unicode boshqaruv kodlari tozalandi; satrlar UTF-8 kodlashtirishda normal (NFC) shaklga keltirildi. Takroran uchragan satrlar (masalan, mintaqaviy variantlar yoki kontekstga qarab 1-xil bo'lgan iboralar) unikal o'zak matn bo'yicha deduplikatsiya qilindi. Natijada korpus hajmi ≈ 6 450 satrga qisqardi [7].

Toza korpus **Python 3.12** muhitida, **re** va **string** kutubxonalaridan foydalanilgan holda tokenlarga ajratildi. Bu jarayonda katta-kichik harf farqi yo'qotildi, diakritik belgilar saqlab qolindi, lemmatizatsiyaga kirish uchun esa **TRmorph** morfologik analizatori qo'llanildi. Keyinchalik, **collections**. **Counter** yordamida har bir tokenning **absolyut**

chastotasi hisoblab chiqildi. Tokenlar “system stop-words” ro'yxatiga (masalan: *ve, ile, ichin*) hamda grammatik qo'shimchalarsiz holatga asosan tozalandi. Natijada **kamida uch marta** uchragan birliklar yakuniy ro'yxatda saqlab qolindi.

Struktur kodlash: terminlar quyidagi yetti toifaga tasniflandi:

- **M1. Monomorfem:** *Ağ, Disk, Dosya, Ses, Şifre.*
- **M2. Hosila (suffiksli):** *Sürücü, Yükleyici, Güncelleme, Bağlantılık, Parolasız.*
- **M3. Qo'shma (N+N / Adj+N / V+N):** *Görev Yöneticisi, Dosya Gezgini, Görev Çubuğu, Bildirim Alanı, Güç Seçenekleri.*
- **M4. Frazali (prepozitsiyali yoki postpozitsiyali):** *Gizlilik ve Güvenlik, Dosya Geçmişi, Uzak Masaüstü, Ekran Okuyucusu, Açık Uygulamalar.*
- **M5. Abbreviatura / akronim:** *USB, VPN, TPM, RAM, SSD.*
- **M6. Gibrid (turkcha ildiz + inglizcha segment):** *Bulut Depolama, Parmak İzi Sensörü, Tablet Modu, Sistem Backup, Bluetooth Ayarları.*
- **M7. To'g'ridan to'g'ri olingan so'zlar:** *Bluetooth, BitLocker, Hyper-V, OneDrive, Cortana* [8].

Dosya, Ağ, Ses, Disk asosan yadroviy otlar bo'lib, semantik yadrosi aniq va interfeysda yuqori chastotali. Ular minimal uzunlik tufayli menyu sarlavhasida afzal ko'riladi.

4.2 Hosila terminlar (M2)

Derivatsion suffikslar:

Suffiks	Misol	Funksiya	Izoh
-ci / -cı	Sürücü, Yükleyici	Agentlik / vosita	Inglizchadagi <i>-er / -or</i> ga ekvivalent
-lik / -lık	Bağlantılık, Erişilebilirlik	Abstrakt xossa	<i>-ness / -ability</i> ga teng
-me / -ma	Yükseltme, Güncelleme	Nominalizatsiya	Fe'l – ot konversiyasi
-siz / -sız	Parolasız	Inkor (privativ)	<i>-less</i> ga mos [9]

Hosila terminlar odatda kompakt bo'lib, foydalanuvchiga funksional ma'lumot beradi (*Yükleyici = Installer*). **Style Guide** suffikslarning yozilish qoidalarini qat'iy belgilagan. Biroq ayrim build versiyalarida *Korumalı mod ↔ Koruma modu* kabi nomuvofiqliklar kuzatilgan.

Qo'shma birliklar (M3)

Sintaktik andozalar:

- **N + Yöneticisi:** *Görev Yöneticisi, Cihaz Yöneticisi*
- **N + Çubuğu:** *Görev Çubuğu, Konum Çubuğu*
- **Ot + agent suffiksli ot:** *Dosya Gezgini*

Qo'shma terminlar nafaqat interfeysda joy tejalishini ta'minlaydi, balki **semantik iyerarxiyani** ham aks ettiradi. Biroq ingliz tilidan so'zma-so'z kalkalangan teskari tuzilmalar (masalan, *Aygıt Yöneticisi ↔ Cihaz Yöneticisi*) turkcha **N + postpozitsiyali** sintaksisga zid holatlarni yuzaga keltirgan.

Abbreviaturalar va akronimlar (M5)

Misollar: *USB, RAM, VPN, TPM*

Style Guide bu birliklarga **turkcha sharh yoki tarjima** qo'shmaslikni tavsiya qiladi (faylasufona tamoyil: “**internationalism**”). Shunga qaramay, ayrim foydalanuvchi testlarida *USB belleği çıkar* iborasi **yosh foydalanuvchilar** uchun noaniqlikka sabab bo'lgan.

Turkcha Windows terminlarining yarmidan ortig'i **hosila** va **qo'shma** tuzilmalar bo'lib, **suffiksatsiya** va **sintaktik kompozitsiya** interfeys tilini o'zlashtirishda markaziy rol o'ynaydi. Abbreviaturalar keng tarqalgan bo'lsa-da, **foydalanuvchi-yosh guruhlariga ko'ra** tushunarliklik darajasida tafovut mavjud. Gibrid va to'g'ridan-to'g'ri qarz olingan birliklar normativ jihatdan maqbul, ammo **stilistik birxillikni** kamaytiradi. **Style Guide** tarkibiga derivatsion suffikslar va qo'shma so'z modellari bo'yicha qo'shimcha tavsiyalarni kiritish, shuningdek, **NLP-asosli avtomatik QA mexanizmini** ishlab chiqish Windows'ning turkcha lokalizatsiyasidagi shakliy izchillikni sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Microsoft. Turkish Localization Style Guide. <https://download.microsoft.com/.../tur-tur-StyleGuide.pdf> download.microsoft.com.
2. Türk Standartları Enstitüsü. Bilişim Terimleri Sözlüğü. – Ankara: TSE Yayınları, 2006. – 482 b. <https://afyonluoglu.org/.../2006-TSE-Bilişim-Terimleri-Sözlüğü.pdf> afyonluoglu.org.
3. Ergin M. Türk Dil Bilgisi. İstanbul: Boğaziçi Yayınları, 2019. – 400 s.
4. Lewis G.L. Turkish Grammar. – Oxford: Clarendon Press, 2000.
5. Göksel A., Kerslake C. Turkish: A Comprehensive Grammar. – London: Routledge, 2005. – 598 b.
6. Eryiğit G., Adalı E. An affix-stripping morphological analyzer for Turkish // Proc. Iasted Conference on AI & Soft Comp. – 2003. – B. 189–194.
7. Çöltekin Ç. TRmorph: a free finite-state morphological analyzer for Turkish. <https://coltekin.net/cagri/trmorph/coltekin.net>.
8. StarlangSoftware.TurkishMorphologicalAnalysis[GitHubrepo].<https://github.com/StarlangSoftware/TurkishMorphologicalAnalysis>.
9. Akın A., Akın M.D. Zemberek, an open-source NLP framework for Turkic languages. – Ankara, 2007.
10. ISO/TS 11669. Translation projects – General guidance. – Geneva: ISO, 2012.

Anvar BO'RONOV,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

POLOVES-QIPCHOQ TILLARI TAVSIFI

Annotatsiya. Turkiy tillar tasnifida qipchoq tillari muhim o'rin tutadi. Bu tillarning genezisi qipchoq bobo tili bilan bog'liq. Hozirgi kunda qipchoq bobo tili bazasida poloves-qipchoq, volgabo'yi qipchoq, no'g'ay-qipchoq va qirg'iz-qipchoq tillari guruhi shakllangan. Poloves-qipchoq tillari qipchoqlar olamining g'arbiy qismida shakllangan bo'lib, lug'at boyligiga qadimgi yahudiy, oromiy hamda eski onado'li turkchasidan leksemalar ko'p o'zlashgani sabab boshqa qarindosh tillardan keskin farq qiladi.

Kalit so'zlar: poloves-qipchoq tili, qarayim, qirimchaq, qirim-tatar, qorachoy-balqar, qumiq, urum, arman-qipchoq, mamluk qipchoq, komparativistika, sinkertizm.

Annotation. The Kipchak languages occupy an important place in the classification of Turkic languages. The genesis of these languages is associated with the Old Kipchak language. Today, the Kipchak language is a dead language, but on its basis the Polovtsian-Kipchak, Volga-Kipchak, Nogai-Kipchak and Kyrgyz-Kipchak languages were formed. The Polovtsian-Kipchak languages were formed in the western part of the Kipchak world and differ greatly from other languages due to the many borrowed lexemes in the vocabulary from the Hebrew, Aramaic and Old Anatolian languages.

Keywords: Polovtsian-Kipchak languages, Karaite, Kyrymchak, Crimean Tatar, Karachay-Balkar, Kumyk, Urum, Armenian-Kipchak, Mamluk-Kipchak languages, comparative studies, syncretism.

Аннотация. В классификации тюркских языков кыпчакские языки занимают важное место. Их генезис связан с кыпчакским языком. В настоящее время на основе кыпчакского языка сформировалась группа языков: половецко-кыпчакский, приволжско-кыпчакский, ногайско-кыпчакский и кыргызско-кыпчакский. Половецко-кыпчакские языки развивались на западной территории кыпчакского мира и значительно отличаются от других родственных языков за счёт большого количества лексем, заимствованных из древнееврейского, арамейского и староанадолийского тюркского языков.

Ключевые слова: половецко-кыпчакский язык, караимы, крымчаки, крымские татары, карачай-балкары, кумыки, урумы, армяно-кыпчаки, мамлюкские кыпчаки, компаративистика, синкретизм.

Qipchoq tillari Yevrosiyo bo'ylab eng keng tarqalgan til guruhi sanaladi. Buning sababi qipchoq tilining shakllanishi Yevrosiyoning markaziy qismida joylashgan Qipchoq dashtlari, Irtish daryosi vodiylari va Oltoy tog'larida kechgan [1] va bu hududlar til arealining kengayishi uchun qulay bo'lgan.

Abulg'oziy Baxodirxon "Shajarayi tarokima" da yozishicha, qipchoq nomini ilk tilga olgan kishi O'g'uzxon bo'lgan. Fransuz olimi Jan Silven Bayi O'g'uzxon yashagan davrni miloddan avvalgi XXIX asr bilan belgilagan [2]. A.Tenishevning sxematik faraziga ko'ra qipchoq tillarining tarkib topish xronologiyasi qo'yidagicha:

1. Qipchoq bobo tilining ilk shakllanish davri (mil.av. X–II asrlar).

2. O'rta qipchoq tili davri (II–VII asrlar.). Bu davrda turli areallarda o'ziga xos farqlanuvchi xususiyatlar shakllangan.

3. So'nggi qipchoq tili davri (VII–XII asrlar). Bu davrda tilning guruhlariga bo'linish jarayonlari kuchaygan.

Qipchoq tili avval sharqiy, markaziy va g'arbiy guruhlariga bo'lingan. Sharqiy qipchoq tili bazasida VIII–IX

asrlarda qirg'iz-qipchoq tillari shakllangan. G'arbiy qipchoq tillarining bo'linishi XI asrdan boshlangan, XIII–XV asrlarda markaziy va g'arbiy hududda yangi lahjalar shakllangan. XIII asrga kelib qipchoq tili o'lik tilga aylangan [3].

Oltin O'rda tuzilguncha mamlakat aholisining eng katta qismini ko'chmanchilar tashkil etgan, ammo o'troqlashuv kuchaya boshlagan. O'zbekxon davrida islom dini mafkuraga aylangan. Shaharlarda masjid, madrasa, maktab, xonaqo, hujralar, taxyaxonalar, maqbaralar qurilgan [4]. Dinni o'rgatish uchun Buxoro, Urganch, Misr va Rumdan olimlar, so'fiylar kela boshlagan. Shu tariqa qipchoq tiliga arab, fors tillaridan so'zlar o'zlasha boshlagan.

XV asrda Oltin O'rda davlati qulagach, uning o'rnida O'zbek, Qozoq, Qozon, Sibir, No'g'ay va Qirim xonliklari tashkil topgan. O'z navbatida, bu xonliklarning ham o'z madaniyati, tili shakllangan. Qirim xonligida poloves-qipchoq tillari, Qozon va Sibir xonliklarida volgabo'yi-qipchoq tillari, No'g'ay va Qozoq xonliklarida esa no'g'ay-qipchoq tillari shakllangan.

QIPCHOQ TILLARI

Poloves-qipchoq tillari guruhi:

1. Qarayim tili
2. Qirimchaqtili
3. Qirimtatar tili
4. Qorachoy- balqar tili
5. Qumiq tili
6. Urum tili (2ta lahjasi)
7. Arman-qipchoq tili
8. Mamluk qipchoq tili


Volgabo'yi qipchoq tili guruhi:

1. Boshqird tili
2. Tatar tili

No'g'ay-qipchoq tillari guruhi:

1. No'gay tili
2. Qozoq tili
3. Qoraqalpoq tili
4. O'zbek tilining qipchoq lahjasi

Qirg'iz-qipchoq tillari guruhi:



1. Oltoy tili
2. Qirg'iz tili

Poloves-qipchoq tillari – g'arbiy, volgabo'yi va no'g'ay-qipchoq tillari – markaziy, qirg'iz-qipchoq tillari – sharqiy qipchoq tillari deb atala boshlagan. Ular orasida faqat oltoy va qirg'iz tillarini o'z ichiga olgan qirg'iz-qipchoq guruhi Oltoy-Olatov hududlarida shakllangan [5].

Hozirgi kunda qarayim, qirimchaq, qirim-tatar, qorachoy-balqar, qumiq, urum (2 ta lahjasi) tillari hamda arman-qipchoq va mamluk-qipchoq o'lik tillari poloves-qipchoq tillari guruhi tarkibiga kiradi.

Poloves-qipchoq tillarini tilshunoslari *g'arbiy qipchoq tillari* [6], *o'g'uz-qipchoq tillari* [7], *quman-qipchoq tillari* [8], *kavkaz-qipchoq tillari* kabi turli nomlar bilan atashgan. Eng so'ngi tadqiqotlarda "poloves-qipchoq tillari guruhi" atamasi qo'llanilmoqda. Rossiya Federesiyasi, jumladan, Kavkaz va Qirim ilmiy doiralarida "Половецко-кипчакская языковая группа", Qozog'istonda "Poloves-qipchoq tilder toby", Turkiyada "Polovtscha-Kipçak dil grubu", ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda "Polovtsian-Kipchak language group" nomlari qo'llanilmoqda. Chunki *g'arbiy qipchoq tillari* va *kavkaz qipchoq tillari* nomlari geografik omillarga ko'ra qo'llanilgan bo'lib, bunda biz tadqiq qilayotgan tillar to'liq qamrab olinmaydi. *O'g'uz-qipchoq tillari guruhi* nomi berilishi esa ushbu guruhdagi *arman-qipchoq tillari*, *mamluk qipchoq tillari* kabi o'lik tillar hamda *qarayim*, *qirimchaq*, *qirimtatar*, *qumiq*, *urum (2 ta lahjasiga)* o'zlashgan o'g'uzcha elementlarga e'tibor qaratilgan bo'lib, *qorachoy*, *balqar*, tillarida bunday elementlar juda kam. *Quman-qipchoq tillari guruhi* deb nomlanishi tarixiy faktor, ya'ni qumanlar tarixi va manbalari [9], xususan, "Kodeks kumanikus" bilan bog'liq bo'lib, bunda kelib chiqishiga ko'ra turkiylarga mansub bo'lmagan, ammo tili shu guruhga kiradigan urumlar hisobga olinmagan. *Poloves-qipchoq tillari guruhi* nomi esa yangi davr ilmiy tamoyillariga mos keladi va tilning leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra barcha poloves-qipchoq tillarini qamrab oladi.

Poloves-qipchoq tilining shakllanishida qadimgi yahudiy, oromiy, arab, mo'g'il ham esik onado'li tilining ta'siri katta bo'lgan. Qadimgi yahudiy tili qarayim va qirimchaq tillariga ko'proq; qirim-tatar, qumiq, balqar, qorachay tillariga kamroq o'zlashgan. Qarayim tilida arabcha o'zlashmalar kam, ammo qirimchaq tilida juda ko'p. Hatto yahudiy bo'lishiga qaramay, yaratuvchi ma'nosida ko'proq "Alloh" leksemasini qo'llashadi.

Poloves-qipchoq tillariga o'zga tillardan so'zlarning o'zlashishi asosan "So'ngi qipchoq tili davri"dagi murakkab tarixiy jarayonlar bilan bog'liq. VII–X asrlarda Kavkaz, Volgabo'yi, Qirim va Sharqiy Yevropada Xazar xoqonligi yuzaga kelgan [10]. Xoqonlikning dastlabki davrida xazarlar o'g'ur (bulg'or) tiliga yaqin xazar tilida so'zlashishgan [11], ammo qipchoq tilining ta'sir katta bo'lgan. Ma'lumki, Xazar xoqonligi G'arbiy turk xoqonligining tanazulidan keyin shakllangan bo'lib, 632-yilda mustaqil bo'ladi va Samandar shahrini poytaxtga aylantiradi [12]. Xoqonlikning dastlabki davrida tangrichilik dini ustuvor bo'lgan [13]. Vizantiya yaqin bo'lgani uchun nasroniylik birinchi bo'lib bu hududlarga kirib kelgan [14]. VII–VIII asrlarda Xazar xoqonligi arablar bilan kurash olib boradi [15]. Deyarli bir asr davom etgan urushlardan so'ng 737-yilda xalifa Marvon ibn Muhammad 150 mingta qo'shin bilan Samandar shahrini qo'lga kiritadi [16]. Xazar xoqonlari islomni qabul qilishga rozi bo'ladi [17]. Bu davrda ummaviylarning saltanati tanazzulga yuz tutadi va xalifalik abbosiylar ko'lga o'tadi. Vaziyatdan foydalangan xazarlar esa yana o'z davlatini tiklashadi [18].

VIII asrda Kavkazda arablardan qochib kelgan yahudiy jamolari anchagina ko'payadi va ularning jamoatchilikka ta'siri ortib boradi [19]. 740-yilda Xazarlar sultoni Bulanxon islomdan voz kechib, yahudiylik dinini qabul qiladi. Shundan keyin uning o'g'li Obadiya yahudiylikni davlat dini deb e'lon qiladi [20]. Natijada qipchoq tiliga gebraizmlar,

ya'ni qadimgi yahudiycha so'zlar yana o'zlasha boshlaydi. XIII asrga kelib butun G'arbiy Qipchoq yerlari Oltin O'rda tarkibiga kiradi. Qirim ulusi, balqarlar yashaydigan Julat Oltin O'rdaning yirik markaziy shahriga aylanadi.

G'arbiy qipchoq tillariga o'g'uz tilining ta'siri XI asrdan boshlangan. XI asrdan saljuqiylar, XIII asrdan Usmonlilar davlati Kavkazga o'z ta'siri o'tkaza boshlagan. XIII–XV asrlarda Misrda hukmronlikka kelgan Mamluklar sultonligida amaldorlar asosan Oltin O'rda beklari, harbiylar va savdogarlar esa qipchoqlar bo'lgani sababli qipchoq tili koynega aylanadi.

Arman qipchoq tili hozirgi Armanistonning Shiroq viloyati, Arich qishlog'i hududlarida, Dashti-qipchoqdan ko'chib kelgan qipchoqlar ta'sirida shakllangan. Qipchoqlar bu yerga Gurjiston hukmdori Dovud IV ning taklifi bilan ularni saljuq turklaridan qo'riqlash uchun olib kelingan. Qipchoqlar shu yerda nasroniylikni qabul qilib, arman yozuviga o'tishgan. Yana boshqa bir ma'lumotga ko'ra, XI asrda armanlarning bir qismi saljuqiylardan qochib Qirimga ko'chib keladi va bu yerda ularning ilk koloniyalari paydo bo'la boshlaydi [21]. Armanlar bu yerga kelgach qipchoq tilini o'zlashtirishadi va shu tariqa, arman-qipchoq tili shakllanadi. Ularning o'zlari bu tilni *хырпчак тили* (*хурпчак тили*, *хипчак тили*) deb atashgan.

Hozirga kunda poloves-qipchoq tillari leksikasi qo'yidagi qatlamlardan tarkib topgan:

1. Turkiy qatlam:
a) qipchoq; b) o'g'uz.
2. Gebraizmlar.
3. Arab-fors tillaridan o'zlashgan so'zlar.
4. Mo'g'ul tilidan o'zlashgan so'zlar.
5. Slavyan tillaridan o'zlashgan so'zlar.

Poloves-qipchoq tillarining asosiy xususiyatlaridan biri – qipchoq va o'g'uz elementlarini parallel qo'llashda ko'zga tashlanishida: *dag'/tau, sag'/sau, yer'/jer, al/qo'l, ev'/uy, bin/ming.kopek/it*.

Gebraizmlar qarayim va qirimchaq tillarida ko'proq, boshqa tillarda kamroq uchraydi. Arab-fors tilidan o'zlashgan so'zlar asosan diniy, ilmiy, adabiy va marosimiy so'zlardan iborat. XVI asrdan boshlab Qirim va Kavkazda tasavvuf adabiyoti rivojlanadi va poloves-qipchoq tillariga qisman chig'atoycha leksemalar ham o'zlashadi.

Mo'g'ul tilidan esa etnonimlar, harbiy va maishiy so'zlar o'zlashgan. Ular orasida *ulus, orda, nayman, o'tarch, yasaul, qaraul, bikaul, dubulg'a, darug'a, nauker, egch* kabi so'zlar bor. Ammo ularning ko'pchiligi oltoy plastidagi so'zlar bo'lishi mumkin. Qipchoq lahjasi va mongolizmlar ko'proq qishloq aholisi, yarim o'troq va ko'chmanchilarning shevalarida saqlanib qolgan. Qirim-tatar tilining cho'l shevasi, qorachoy-balqar va qumiqlik tillarida mongolizmlar ko'proq uchraydi. X.I.Suyunchev qorachoy-balqar va mo'g'ul tilida parallel qo'llaniladigan 800 ga yaqin so'zni aniqlagan [22].

Til	So'zlar							
Qorachoy-balqar	<i>ayran</i>	<i>apsin</i>	<i>baur</i>	<i>badja</i>	<i>bayram</i>	<i>balta</i>	<i>kyok</i>	<i>qatyn</i>
Mo'g'ul	<i>ayrag</i>	<i>avsan</i>	<i>boor</i>	<i>baza</i>	<i>bayar</i>	<i>balt</i>	<i>xyox</i>	<i>xatan</i>

XVIII asrda Qirim va Shimoliy Kavkaz Rossiya tarkibiga kiringach, poloves-qipchoq tillariga slavyan tillaridan, xususan, ukrain va rus tillaridan so'zlar o'zlasha boshlaydi. Bu davr poloves-qipchoq tillarining so'ngi shakllanish davri bo'lib, XX asrda qarayim, qirimchaq, qirim-tatar, qumiqlik, qorachoy-balqar tillari to'liq shakllanadi. XX asrning 20-yillarida adabiy til shakllantiriladi. Shu davrgacha qorachoy va balqar tillari alohida til sifati qayd etilgan. 1924-yilda ikki til uchun yagona adabiy til yaratilgan. Sovet davrida Qirim, Qabardin-Balqar, Qorachoy-Cherkas, Dog'iston Respublikalarida rus tili davlat tiliga aylanadi. Natijada lug'at boyligining katta qismini ruscha so'zlar egallay boshlaydi. Qorachoy-balqar tiliga rus tilidan 8000 so'zning o'zlashishi bunga misol bo'la oladi [23].

Ma'lumki, 1945-yilda 200000 ga yaqin qirim-tatarlari O'zbekistonga surgun qilingan va 90-yillarga qadar ular shu yerda yashaganlar. Ziyolilari O'zbekiston madaniy muhitida faol ishtirok etgan. O'sha davrda qirim-tatar tiliga o'zbek tili elementlari ham o'zlashgan.

Poloves-qipchoq tillaridagi o'z qatlam so'zlar folklorida va "j"lovchi shevalarda yaxshi saqlanib qolgan. Masalan, qrim-tatar adabiy tili o'g'uzcha unsurlarni ko'plab qamrab olgan o'rta yo'lak shevasi asosida shakllangan bo'lib, bu

holat uni Anadolu turkchasiga yaqinlashtiradi. Biroq cho'l no'g'aylari hozirgi kungacha "j"lovchi shevada so'zlashishda davom etmoqdalar.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, poloves-qipchoq tillari turkiylar tarixidagi eng murakkab davrda shakllangan til guruhidir. Hozirgi davrda bironta til guruhida ushbu guruhdagi kabi gebraizmlar yoki oromiy leksika saqlangan emas. Hech bir guruhda bu tillardagi kabi bulg'or, qipchoq, o'g'uz va qarluqlik lahjalarining murakkab qorishig'idagi lingvistik sinkretizm kuzatilmaydi. Shunday bo'lsa-da, qipchoq tili saqlanib qolgan.

Poloves-qipchoq tillari tarixidan ulkan yozma meros qolgan. Ular orasida "Kodeks kumanikus", mamluklar davriga tegishli "Kitab al-idrak", "At-tuhfat uz-zakiya", "Al-Qavanin al-kulliya", "Ad-Durra al-Mudiya", "Ash-Shuzur az-Zahabiya", "Kitab majmua tardjuman turkiy va ajamiy va mug'aliy (va farsiy)", shuningdek, XVI–XVII asrlarda arman-qipchoq tilida yozilgan 112 ta yozma manbalar bor.

1930-yillarga qadar Shimoliy va Sharqiy Qoradengiz bo'yida qirim-tatar, Kavkaz hududlarida qumiqlik tili koynega vazifasini o'tagan. Boshqa xalqlar ham o'zaro muloqotda ushbu tillardan foydalanishgan. 1930-yillarning

oxiriga kelib bu vazifani rus tili bajara boshlagan. Sovet davrida rus tilining ta'sirida milliy tillar unutila boshlagan. 1990-yillardagi milliy tiklanish davrida Qirim Respublikasida qirim-tatar tiliga, Qabardin-Balqar va

Qorachoy-Cherkas Respublikalarida qorachoy-balqar tiliga, Dog'iston Respublikasida qumiq tiliga davlat tili maqomi berilgan. Ammo hamon rus tilidan keyingi ikkinchi til darajasida qolib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кляшторный С.Г., Савинов Д.Г. Степные империи древней Евразии. СПб.: Филологический факультет СПбГУ, 2005/.
2. Bailly J.S. Histoire De L'Astronomie Ancienne, Depuis Son Origine Jusqu'À L'Établissement De L'École D'Alexandrie. – Debure (Paris), 1775.
3. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Региональные реконструкции / Отв. ред. Э.П. Тенишев. М.: Наука, 2002. – С. 216–217.
4. Сайфетдинова Э. Исламская культура Золотой Орды. Казань: АН РТ, ИИ им.Марджани, 2016. – С. 457–463. – 968 с.
5. Thomsen K Die kasantatrishe und die westsibirischen Dialekte. // Philologiae Turcicae Fundamenta, 1959. T.1. S.409.
6. Мусаев К.М. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении: (западнокыпчакская группа); АН СССР, Институт языкознания. Москва: Наука, 1975. – 356 с.
7. Баскаков Н.А. К вопросу о классификации тюркских языков. Изв.АН СССР. Отд. литературы и языка. – Т. XI. Вып. 2. – М., 1952. – С. 121–134.
8. Гаркавец А.Н. Кыпчакские языки: куманский и армяно-кыпчакский. – Алма-Ата: Наука, 1987. – 226 с.
9. Баскаков Н. А. Историко-типологическая фонология тюркских языков. М.: Наука, 1988. – С. 111, 126.
10. Erdal M. The Khazar Language. // The World of the Khazars, 2007. – P. 75–107.
11. Golden P.B. An Introduction to the History of the Turkic Peoples. – Wisbaden, 1992. – P. 92; Гаджиева Н.З. Хазарский язык // Языки мира. Тюркские языки. М., 1995. – С.138–139.
12. Артамонов М. И. История хазар. СПб., 2001. – С. 240–244.
13. Голден П. Б. Государство и государственность у хазар. Власть хазарских каганов // Феномен восточного деспотизма. Структура управления и власти. М.: Наука, 1993. – С. 227.
14. Магомедов М. Г. Образование Хазарского каганата: По материалам археологических исследований и письменным данным. – М., 1983. – С. 158.
15. Новосельцев А. П. Хазарское государство и его роль в истории Восточной Европы и Кавказа. М., 1990. – С. 102.
16. Артамонов М. И. История хазар. – СПб., 2001. – С. 304.
17. Гараева Н. Г. О дате принятия ислама хазарами // Языки, духовная культура и история тюрков: традиции и современность. Труды международной конференции. – Т. 3. – М., 1997.
18. Dunlop D.M. The History of the Jewish Khazars. – New Jersey, 1954. – P. 87.
19. Артамонов М. И. История хазар. – СПб., 2001. – С. 364.
20. Цукерман К. Про дату навернення хозар до іудаїзму й хронологію князювання Олега та Ігоря. – Т. II. – К., 2003. – №2.
21. Дашкевич Я.Р. Армяно-кыпчакский язык: Этапы истории // Вопросы языкознания – 1983, №1. – С. 91–107.
22. Суюнчев Х.И. Карачаево-балкарские и монгольские лексические параллели. – Черкесск: Карач. Черк. отд. Ставр. книж. изд, 1977. – С 35.
23. Мисирова Л.Х. Заимствования в карачаево-балкарском языке. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. Нальчик, 2008.

Dilchehra TOSHPOLATOVA,
mustaqil tadqiqotchi

“MUAMMO” HIKOYASIDA INSON VA JAMIYAT MUNOSABATI TASVIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson va jamiyat munosabatining badiiy adabiyotdagi talqini Abduqayum Yo'ldoshevning “Muammo” hikoyasi misolida o'rganilgan. Ijtimoiy borliq – jamiyatning moddiy hayoti, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish hamda shu jarayonda vujudga keladigan munosabatlar. Ijtimoiy ong esa qarashlar, tasavvurlar, g'oyalar, siyosiy, estetik va huquqiy nazariyalar, shuningdek, falsafa, din, axloq kabi tushunchalarni mujassamlashtiradi. Jamiyat hayotining moddiy tomonlari ijtimoiy borliq, ma'naviy tomonlari esa ijtimoiy ong mahsuli sifatida shakllanadi va har ikki qatlam jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Taniqli adib Abduqayum Yo'ldoshev qalamiga mansub “Muammo” hikoyasida esa o'zbek jamiyati bilan chet eldagi kishilar muomala madaniyati bir-biriga qarama-qarshi holda yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy erkinlik, yozuvchi tasavvuri, ijtimoiy ong, “halol sehr”, xalq ruhiyati, ichki kechinmalar, muhtabid tuzum, muomala madaniyati, badiiy g'oya, islomiy bilim.

Annotation. This article studies the artistic interpretation of the relationship between the individual and society in literature through the example of Abduqayum Yo'ldoshev's story “Muammo” (Problem) social existence refers to the material life of society, the production of material goods, and the relationships that arise during this production process. Social consciousness encompasses

views, perceptions, ideas; political, aesthetic, and legal theories; philosophy, religion, ethics, and others. The material aspects of social life are products of social existence, while the spiritual aspects of society's life are products of social consciousness. In the well-known story "Problem" by Abduqayum Yo'ldoshev, the culture of communication in Uzbek society is contrasted with that of people living abroad.

Keywords: creative freedom, writer's perception, social consciousness, "honest magic", the spirit of the people, inner experiences, despotic regime, culture of communication, artistic idea, Islamic knowledge.

Аннотация. В данной статье на примере рассказа Абдукалима Юлдошева «Муаммо» (Проблема) рассматривается художественное осмысление отношений человека и общества в литературе. Социальное бытие – это материальная жизнь общества, производство материальных благ и отношения, возникающие в процессе этого производства. Социальное сознание – это взгляды, представления, идеи; политические, эстетические, правовые теории; философия, религия, этика и др. Материальные стороны общественной жизни являются продуктом социального бытия, а духовные стороны жизни общества – продуктом социального сознания. В известном произведении Абдукалима Юлдошева «Проблема» противопоставляются культура общения узбекского общества и людей за рубежом.

Ключевые слова: творческая свобода, авторское восприятие, социальное сознание, «честное волшебство», дух народа, внутренние переживания, деспотичный режим, культура общения, художественная идея, исламские знания.

Mustaqillik davri adabiyotida inson omiliga e'tibor boshqa davrlarga nisbatan kuchaydi. Insonning orzu-umidlari, intilishlari, armon va iztiroblari, umuman aytganda, ichki dunyosini tasvirlashga intilish ortdi. Ijodiy erkinlik esa mavjud muammolarni bor bo'y-basti bilan ko'rsatishga turtki berdi. O'zbekiston davlati istiqloлга tinch yo'l bilan erishgan bo'lsa-da, dastlabki yillarda o'tish davri qiyinchiliklari, qolaversa, uzoq davom etgan mustabid tuzum asoratlari jamiyat taraqqiyotiga, xalqning ruhiyatiga ta'sir ko'rsatdi. Bu masalalar davr adabiyotida Sham o'z aksini topdi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev bu davr adabiyoti haqida quyidagi qarashlarni bayon etadi: "Istiqloл davri adabiyoti insonni jo'nlikdan, to'porilikdan, anchayinlikdan qutqardi. Uni murakkablashtirdi, noziklashtirdi, bir xil qarashlar tizimi bilan tushunib ham, tushuntirib ham bo'lmaydigan injiqroq ekanligini ro'y-rost aks ettira boshladi" [1: 17].

Yozuvchi tasavvuri muayyan g'oyaga asoslanib, hayotdagi alohida narsalarni buzadi, saralaydi, to'qiydi hamda yangidan ta'sirli va jonli, tabiiy va go'zal, tipik va yaxlit narsa yaratadi. Bu jarayon xarakter va epizodlarni yaratishda ham, qahramon va voqelikning ayrim xususiyatlarini ko'rsatishda ham, yaxlit sujetni yuzaga keltirishda ham kuzatiladi. Abduqayum Yo'ldoshev ijodida ham bu jarayon o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

Badiiy adabiyotning bosh xususiyati – uning ijtimoiy ong shakllaridan biri ekanligidir. Ijtimoiy borliq jamiyatining moddiy hayoti, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish hamda shu jarayonda vujudga keladigan munosabatlar ijtimoiy ongni shakllantiradi. Ijtimoiy ong esa qarashlar, tasavvurlar, g'oyalar; siyosiy, estetik, huquqiy nazariyalar, falsafa, din, axloq va boshqa turli xil tizimlardan iborat bo'lib, jamiyat hayotining moddiy tomonlari ijtimoiy borliqning, jamiyat hayotining ma'naviy tomonlari esa ijtimoiy ongning mahsuli hisoblanadi.

Taniqli adib Abduqayum Yo'ldoshevning "Muammo" hikoyasida o'zbek jamiyati bilan chet eldagi kishilar muomala madaniyati bir-biriga qarama-qarshi holda tasvirlanadi. Hikoyani qisqacha bayon qiladigan bo'lsak, qahramon Ikrom kompyuter dasturchilari o'rtasidagi tanlovda 1-o'rinni egallab, yetti hafta davomida Yevropa davlatlaridan birida sayohat qilish huquqini qo'lga kiritadi.

U yerda olingan taassurotlar bilan yurtidagi holatni o'zaro tahlil qiladi. Chet elni tasvirlashda, u yerning orasta, musaffo ekanligi, odamlar bir-biriga nisbatan ochiqko'ngillik bilan munosabatda bo'lishi, har doim tabassum bilan yurishlari ta'kidlanadi. Safardan qaytgach, Ikrom o'zi ham atrofidagi odamlarga nisbatan samimiy tabassum bilan qarab, beg'araz yordam berishga intiladi. Ammo hech kim uning bu yaxshiligini to'g'ri baholamaydi. Garchi hikoyada bir inson hayotining ma'lum bir kundalik qismi tasvirlangan bo'lsa ham, unda insoniyat orasidagi muomala madaniyatining yemirilishi, inqiroziga alohida urg'u beriladi. Unda insonlarning bir-biriga ishonmasligi, kundalik yumushlarga shu darajada sho'ng'iganidan, doim turmush tashvishlari dardida yurganidan hatto xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishni ham unutib qo'ygani, tabassum ortida riyo, ta'magirlik yashirin ekani allaqachon kishilar ongiga singib ketgani achchiq kinoya bilan tasvirlanadi. Muallif quyidagi tasvirlar orqali odamlar ruhiyatini ochib berayotgandek go'yo: "Bir-birlariga mutlaqo begona odamlarning ko'cha-ko'yda, do'konda, istirohat bog'larida, ish joylarida, qo'yingki, hamma-hamma joyda bir-birlariga tabassum bilan qarashlari, bir-birlariga mehribonlik bilan muomala qilishlari..." [2: 138].

Islom dinida Qur'oni Karimdan keyingi muqaddas manba hisoblangan Hadisi sharifda Abu Zar roziyollohu anhudan rivoyat qilinishicha, Rasulloh sollallohu alayhi vassallam dedilar: "Birodarlaring yuziga tabassum bilan boqishing ham sadaqadir" [3: 17]. Ko'rinib turibdiki, tabbasum payg'ambarimizning sunnati hisoblanadi va unga hattoki "halol sehr" degan ta'riflar ham berib o'tiladi. Islomiy bilimlardan holi bo'lgan yevropaliklarning muomala madaniyati ham tabassum, ham xushxulqlik bilan ziynatlangani hikoyada isbotlanadi. Biroq yuqoridagi tasvir bilan quyidagi tasvirda osmon bilan yercha farqni ko'rishimiz mumkin: "Yo'lovchilar asabiy tarzda yo'lga qarab-qarab qo'yardilar. Eng oldinda turib olgan, katak ko'yilgiga yarashmagan tarzda bo'yinbog' taqib olgan qirq besh yoshlardagi jikkakina, sochini tepasi to'kila boshlagan yo'lovchi og'ir uf tortdi va "Yo'l-po'lda o'lib qolganmi bular!" deya g'uldirab qo'ydi. Ikrom seskanib ketib yon-veriga qaradi, ammo bu haqoratning yo'lovchilarga ta'sir qilmaganini ko'rgach, sal yengil nafas oldi" [2: 139].

Aslini olib qaraganda, gap odamlarning tabassumi yoki shirinso'zligida emas, muammo bunday munosabatni keltirib chiqarayotgan sabablarda. Hech qanday qiyinchiliklarsiz, farovon yashayotgan jamiyat fuqarolari bilan bekatlab soatlab avtobus kutadigan va kutib-kutib odam ko'pligi sabab sig'masdan qolib ketadigan, ayol boshi bilan og'ir ro'zg'or sumkasini ko'tarib yuradigan fuqarolarni bir-biriga qiyoslaganda olam-olam tafovutni ko'ramiz. Yozuvchining ham asosiy maqsadi shunday nozik nuqtalarni ochib berishga qaratilgan, nazarimizda. Ro'zg'or atalmish g'or butun og'irliklari bilan qaddini bukib qo'yg'an inson uchun bironing beminatli tabassumi ham ortiqcha, ishga kech qolib boshliqdan dakki eshitishdan ko'ra, qo'pollik bilan bo'lsa ham bir amallab salonga chiqib olish afzal. Moddiyatdagi kamchilik ma'naviyatdagi yemirilishga asosiy omil bo'lgan.

Hikoyaning bir o'rnida qahramon internet sayti orqali chet el parlamenti "Itlarni ko'chada qanday qilib olib yurish" haqidagi qonun ustida ishlayotganiga ko'zi tushib qoladi va ajablanadi. Tarjimon orqali aniqlashtirib, haqiqatdan, shunday qonun ustida ish olib borilayotganini biladi. Chunki mamlakatda qolgan barcha kerakli qonunlar allaqachon ishlab chiqilgan. Mana asl muammo qayerda? Hali jamoat transporti bilan to'liq ta'minlanmagan, muammolarga boy jamiyat uchun samimiylikning, muolala madaniyatining qadri qancha bo'lish mumkin? Garchi ba'zi o'rinlarda

mubolag'aga o'xshab ketgan bo'lsa ham, muallif asar orqali ham moddiyatdagi, ham ma'naviy dunyodagi kamchiliklarni yetarlicha ochib bergan. Ammo hikoya so'ngida u kutgan inson – tabassumga tabassum bilan javob qaytaradigan "madaniyatli" qiz hikoya qahramonining sumkasini o'g'irlab ketadi. Mana ishonch, mana madaniyat. Odamlarning bir-biriga ishonchsizligi zamiri nimada bor? Ularning ishonchi allaqachon va hecham oqlanmagan.

Ijodkor o'z asarini jamiyatda mavjud, ma'lum bir bo'g'inda o'z vazifasini bajarayotgan inson deb atalmish ongli mavjudotni tasvirlashni bosh maqsad qilib, uning ichki kechinmalari, ruhiyatidagi o'zgarishlar, ma'naviyatdagi yemirilishlarni qalamga oladi. Bu bilan jamiyatdagi muammolarni o'rganib, u haqda tegishli xulosa chiqarishga, o'quvchi ongining qaysidir ma'noda o'sishiga, anglay olish qobiliyatining rivojlanishiga turtki bo'ladi. Ayni shu jihati bilan adabiyotning ezgulikka xizmat qilish vazifasini ortig'i bilan bajara oladi. Zero badiiy asar mutolaasi bir tomondan asar qahramonlari yo'l qo'yg'an xatolardan o'quvchilarni qochishga, tegishli xulosa chiqarishga undasa, boshqa tomondan uning ma'naviy dunyosining boyishiga hissa qo'shadi. Tom ma'noda badiiy so'z san'ati qudratini ko'rsata biladi. Asar orqali shuni anglashimiz mumkinki, agar sen o'z garmochi bo'lsang-u, yashayotgan muhit unga loyiq bo'lmasa, harakatlar besamar ketishi mumkin!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
2. Yo'ldoshev A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
3. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
4. Imom Buxoriy Al adab al muftrat. <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/107-hadisi-sharif>.
5. Qo'shjonov M. Mohiyat va badiyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1977.
6. Nazarov B. Bu sehrli dunyo. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
7. Yo'ldoshev A. Alvido go'zallik. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
8. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
9. Karimov H. Istiqolol davri adabiyoti. – Toshkent: Yangi nashr, 2010.

Gavhar MUFTULLOYEVA,

Navoiy davlat universiteti doktoranti

XOJA MUHAMMAD PORSONING ILMIY MEROSI

Annotatsiya. Maqolada Xoja Muhammad Porsoning nazariyotchi mutasavvuf alloma sifatidagi faoliyati va ilmiy merosi tadqiq etilgan bo'lib, tahlil davomida uning nashr etilgan va etilmagan asarlari alohida yoritiladi, tasavvufiy asarlari mavzu ko'lami nuqtayi nazaridan tasnif etiladi.

Kalit so'zlar: "Fasl ul-xitob", "Risolayi qudsiya", "Sharhi Fusus ul-hikam", "Tahqiqot", "Al-Fusuli sitta", "Maqomoti Xoja Aluodiddin Attor", valoyat, maqomot, futuvvat, huzur, sahv, shukur, mahv, farq, tamkin va talvin, tavajjuh, zikr.

Annotation. The article explores the scholarly activities and intellectual legacy of Khoja Muhammad Porso as a theoretical Sufi scholar. During the analysis, both his published and unpublished works are specifically examined, and his Sufi writings are classified based on the thematic scope.

Keywords: "Fasl al-Khitab", "Risala-yi Qudsiyya", "Sharh Fusus al-Hikam", "Tahqiqot", "Al-Fusul al-Sitta" "Maqamat of Khoja Alaudin Attar", wilayah, maqamat, futuwva, huzur, sahw, shukr, mahw, farq, tamkin and talwin, tawajjuh, dhikr.

Аннотация. В статье исследуется деятельность Ходжи Мухаммада Порсо как теоретика и ученого-суфия, а также его научное наследие. В ходе анализа подробно рассматриваются как опубликованные, так и неопубликованные труды Ходжи Порсо, а его суфийские произведения классифицируются с точки зрения тематического охвата.

Ключевые слова. «Фасл уль-хитоб», «Рисаля-йи кудсия», «Шарх Фусус уль-хикам», «Тажқиқот», «Аль-Фусуль ситта, Макамат Ходжи Алауддина Аттара», вилаят, макамот, футувват, хузур, сахв, шукр, махв, фарқ, тамкин и талвин, таваджжух, зикр.

Xoja Muhammad Porsoning ilmiy va adabiy merosi dunyoning turli joylarida saqlanishi hamda nusxalarining ko'pligi sababli bugungi kunga qadar ularning aniq sonini aytish qiyin. Ammo tadqiqotlarda o'ttizdan ortiq asari mavjudligi qayd etilgan [1: 201]. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida uning "Risolayi qudsiya" (Xoja Bahouddinning qudsiy kalimalari haqida risola), "Az anfozi qudsiyai mashoyihi tariqat" ("Tariqat mashoyixlarining qudsiy kalimalaridan"), "E'tiqodot" ("E'tiqod haqida risola"), "Tahqiqot" ("Tasavvuf istilohlari haqida risola"), "Tafsiri Qur'on" ("Qur'on tafsiri"), "Al-hadis ul-arba'una" ("Qirq hadis"), "Risola dar odobi murid" ("Murid odoblari haqida risola"), "Risolai kashfiya" ("Karomatlar haqida risola"), "Risolai mahbubiy" ("Do'stlik haqida risola"), "Sharhi Fiqhi Kaydoniy" ("Fiqhi Kaydoniy" asarining sharhi), "Fasl ul-xitob bi-vusuli-ahbob" ("Do'stlar visoliga yetishishda oq ila qorani ajratuvchi kitob"), "Muxtasari ta'rixi Makka" ("Makka shahrining qisqacha tarixi"), "Fusuli sitta" ("Olti fasl"), "Maktubi Xoja Muhammad Porso va Mavlono Zaynuddin" ("Xoja Muhammad Porsoning Mavlono Zaynuddinga maktubi"), "Maqomoti Xoja Alouddin Attor" ("Alouddin Attor maqomoti"), "Maqomati Xoja Bahouddin Naqshband" ("Xoja Bahouddin Naqshband maqomoti"), "Muqaddima li-jomi' ul-kalim" ("Jomi' ul-kalim" kitobiga muqaddima), "Haftodu du firqa" ("Yetmish ikki firqa") asarlari saqlanmoqda [7: 2]. Ja'far Xolmo'minov Xoja Muhammad Porsoning ilmiy me'rosi haqida so'z yuritar ekan, ikki asariga alohida to'xtaladi: "Ayniqsa, uning "Fasl ul-xitob" va "Sharhi Fusus ul-hikam" nomli asarlarini tahlil va tadqiq etish orqali tasavvuf ta'limotining faqatgina aniq belgilangan rasm-rusumlar, urf-odatlar va muayyan axloq-odob qoidalaridan iborat bo'lmaganligi, aksincha, bu ta'limot inson, hayot, jamiyat, dunyo, oxirat, borliq... kabi ming yillardan buyon insoniyat diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etib kelayotgan bir qator muhim masalalar xususida ko'plab qiziqarli va ibratli fikrlarni taqdim etganiga yana bir karra amin bo'lamiz" [4: 2]. Aksariyat manbalarda allomaning "Fasl ul-xitob", "Risolayi qudsiya" asarlariga alohida to'xtalib o'tiladi. Rus olimi Y.Paul uni tasavvufni qabul qilgan buxorolik huquqshunos sifatida ta'kidlab, "Fasl ul-xitob" asari orqali so'fiy shayxlar va ularning g'oyalarini shariat nuqta'yi nazaridan asoslab berganini yozadi [5: 2]. BuxDU dotsenti A.A.Boltayev ishlarida ham Xoja Muhammad Porsoning ilmiy me'rosi borasidagi tahlillarni uchratamiz. 458 (ba'zi manbalarda 494) ta muammoli diniy masalalar yoritilgan, yechimlari ahli sunna va jamoa mazhabi aqidaviy talablaridan kelib chiqqan holda ochib berilgan ushbu asarning o'ziga xos murakkabligi haqida tadqiqotchisi shunday deydi: "Mazkur asar arab va fors tillaridan bir xil foydalanilgan holda yozilgani uchun ayrim sharqshunoslar uchun biroz murakkab asarlar sirasiga kiradi. Til to'siqlaridan tashqari unda murakkab diniy-tasavvufiy muammolar, turli fiqhiy yoki tasavvufiy maktablar qarashlarining yoki turli bid'at va xurofotlarning o'zagi Qur'on, Hadis, Qiyos yoki Ijmo'ga mos yoki mos emasligi tadqiq qilingani bilan

ham o'ziga xos qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi" [6: 2]. A.A.Boltayev "Fasl ul-xitob" asarini Toshkentda Gulom Hasan Orifjonov litografiyasida xattot tomonidan milodiy 1913-yilda qayd etilgan nusxasi asosida o'rganish asosida, asarda tasavvufiy masalalar bilan bir qatorda vatandosh allomalarimizdan ayrimlarining tasavvufga doir fikrlari ilova qilib ketilganligini ta'kidlaydi. Jumladan, Hakim Termiziyning "Xatm ul-avliyo", Mustamliyning tasavvufga doir fikrlariga to'xtaladi.

Xoja Muhammad Porso ilmiy me'rosi borasida J.Xolmo'minovning ham qarashlari ahamiyatlidir. Olim allomaning asarlari orasida "Fasl ul-xitob"ga alohida to'xtalib, mazmun-mundariyasi hamda unda keltirilgan tasavvufga oid manbalar haqida batafsil ma'lumot beradi. Asar muqaddima va xotimadan tashqari, 8 ta fasldan iborat. J.Xolmo'minov maqolada "Fasl ul-xitob"da Xoja Porsoning qaysi asarlardan iqtiboslar keltirganiga ham alohida to'xtalib o'tadi va 32 ta tasavvufga oid qimmatli manbalarni sanab o'tadi. Bular orasida Yusuf Hamadoniy, G'azzoliy, Alouddavla Sumnaniy, Abdurahmon Sullamiy, Hujviriyy, Kalobodiyyning asarlari alohida o'rin egallagan [4: 2]. Bundan ma'lum bo'ladiki, Xoja Muhammad Porso tasavvuf ilmining yetuk bilimdoni, nazariyotchi olim bo'lgan va bu uning asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Turk olimi Abdulmalik Ibrohimo'g'li Xoja Muhammad Porso haqidagi tadqiqotida uning asarlarini "nashr etilgan" va "nashr etilmagan, qo'lyozma" asarlarga tasniflaydi. Nashr etilgan asarlari qatorida "Fasl ul-xitob", Fusus al-hikam", "Risolayi Qudsiya", "Tahqiqot" kabilar keltiriladi. Tadqiqotchisi "Tahqiqot" asari bilan bir qatorda, undan ajralib chiqqan, ya'ni shu asar asos vazifasini o'tagan bir necha asarlar nomini ham keltirib o'tadi. "Tahqiqot" Muhammad Porsoning tasavvufga oid eng katta hajmli kitoblaridan biri bo'lib, Allohning ismlari, Muhammadning haqiqati, tavhid va uning darajalari, zikrning shakllari, latofat va kasofat, mo'jiza, mushohada, tajalli, kashf, zohidlik va taqvo, tavba va toat, sabr va shukur, ishonch va rozilik, qo'rquv va tavba, shon-shuhrat, hayrat va maxfiylik, fano va baqo kabi tasavvuf, suluk, odob-axloq qoidalariga oid ko'plab mavzularni qamrab oladi [1: 208].

Hali hech qayerda nashr etilmagan, kutubxonalarda qo'lyozma sifatida saqlanib kelayotgan "Tafsiri Xoja Porso", "Al-Fusuli sitta", "Sharhi Haq ul-yaqin", "Risolayi kashfiya", "Risolayi silsilatu mashoyixi muhaddisiy", "Risolayi fi bayoni saloti janoza", "Intihabat as-sevadul a'zam", "Maqomoti Xoja Aluoddin Attor", "Muqaddimai Jam'i ul-kaliym", "Ahdnoma" asarlari "Qo'lyozma asarlar" sarlavhasi ostida keltirilgan [1: 263].

Yuqorida sanab o'tilgan tasavvufga oid ushbu asarlarni janr xususiyatlari jihatdan Kurs Usmon Turarning tasavvuf tarixiga oid manbalar tasnifiga [2: 12–15] ko'ra quyidagicha guruhlashni lozim topdik:

1. Tasavvufiy-falsafiy asarlar. Bunday asarlarning bir qismi Alloh Taoloning zoti va sifatleri, maxluqotining yaratilish va mohiyati, Alloh – inson munosabati, bilim masalasi kabi sohalar falsafa hamda kalom ilmlari

shug'ullanadigan mavzulardan iborat [2: 12]. Shu jihatdan Xoja Porsoning "Tahqiqot" asarini ushbu guruhga kiritish mumkin.

2. Tasavvuf ilmini izohlagan asarlar. Tasavvuf ilmining asosiy mavzularini izohlash, bu mavzularning sha'riy asoslarini ko'rsatish va tushuntirish maqsad qilingan ushbu guruhdagi kitoblari sirasiga Xoja Porsoning "Fasl ul-xitob" asarini kiritish mumkin. Biz yuqorida keltirgan 8 fasldan iborat ushbu asarning birinchi fasli bevosita tasavvufiy ilmlar va istilohlar sharhiga, ushbu fasl esa tasavvufiy ilmlar haqida va so'fiylar qo'llagan istilohlar sharhiga bag'ishlangan.

3. Tabaqoti sufiya kitoblari. K.U.Turar tasnifiga ko'ra bunday asarlar mashhur mutasavvufning hayoti haqidagi hikoyatlardan, turli fikr-qarashlardan, irshod tarzlaridan, qimmatli so'zlaridan, tasavvufiy martabalaridan, karomatlaridan va hokazolardan so'z yuritadi [2: 13]. Ushbu xususiyatlarni esa biz Xoja Porsoning "Risolayi Qudsiya", "Fasl ul-xitob", "Al-Fusuli Sitta", "Maqomoti Xoja Alouddin Attor" asarlarida uchramiz va bu to'rt asarni shu guruhga mansub deyish mumkin.

4. Odob-arkon kitoblari. "Risolayi kashfiya", "Risolayi fi bayoni saloti janoza", "Ahdnoma" kabi asarlarda tariqat ahlining ta'lim-tarbiyasini yoritish maqsad qilib olingan

bo'lib, "...tariqatning tashqi tamoyillaridan, sayr-u suluk xususiyatlaridan, muridning va shayxning vazifalaridan, zikr paytida o'qiladigan duolardan va hokazolardan so'z yuritadi" [2: 14].

5. Tasavvufiy tafsirlar. K.U.Turar fikricha, tasavvuf ilmi manbalarining katta qismini tasavvufiy tafsirlar tashkil etadi. Ilk davrlardan to hozirgacha mutasavvufilar Qur'oni Karimni o'z dunyoqarashlari yo'nalishida tafsir qilishgan [2: 15]. Xoja Muhammad Porsoning "Tafsiri Xoja Porso" nomli asarini ayni shu guruhga kiritish mumkin. Shuningdek, shayx Sa'diddin Abdulkarim Shabustariyning "Haq ul-yaqin fi ma'rifati Rabbi ul-a'lamiyn" nasriy asarining forscha sharhi sifatida yozilgan "Sharhi Haq ul-yaqin" asarini ham aynan Qur'oni Karim tafsiri bo'lmasa-da, shartli ravishda ushbu guruhga mansub deb atash mumkin.

Xulosa shuki, Xoja Muhammad Porso chinakam nazariyotchi va mutasavvuf sifatida faoliyat yuritgan. Uning ilmiy va adabiy merosi juda salmoqli bo'lib, hali o'rganilmagan, qo'lyozma holda muzeylarda saqlanayotgan asarlari ham mavjud. Ushbu asarlar bizga ma'lum bo'lgan va tahlil qilingan asarlardan ko'pdir. Shu bois, bu asarlarning mohiyatini o'rganish hamda ularni qayta nashr etish kelgusida bajarilishi zarur bo'lgan muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrahimoğlu Abdumelik. Muhammed Pârsâ'nin hayati, eserleri ve tasavvufî görüşleri. Doktora Tezi. – Diyarbakır, 2022.
2. Turar K.U. Tasavvuf tarixi. – Toshkent: Istiqlol, 1999.
3. Xoja Muhammad Porso. Risolayi Qudsiya. – Toshkent: Movarounnahr, 2020.
4. Muhammad J. Xoja Muhammad Porso va uning "Fasl ul-xitob" asari. <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/xoja-muhammad-porso-va-uning-fasl-ul-xitob-asari.html>.
5. Пауль Ю. Мухаммед Парса. Нақшбандия. Большая российская энциклопедия. https://old.bigenc.ru/religious_studies/text/2240215.
6. Boltayev A.A. Xoja Muhammad Porsoning "Fasl ul-xitob" asarida vatandosh allomalarimiz to'g'risida, 2022. <https://buxdu.uz/ja/yangiliklar/854>.
7. Qodirov B. Xoja Muhammad Porso. <https://oyina.uz/uz/generation/171?ysclid=mf11zcwds227846074>.

Barchinoy MUSURMONOVA,

Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Koson 1-sonli politexnikumining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

IGNATIY YULIANOVICH KRACHKOVSKIYNING MATNSHUNOSLIK SOHASIDAGI XIZMATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mashhur rus sharqshunosi, arabshunos, filolog olim I.Y.Krachkovskiyning hayoti va ilmiy merosi yoritilgan, uning arab adabiyoti, paleografiya, tilshunoslik, xristian-musulmon aloqalari, qo'lyozmalarni o'rganish va tarjima qilish sohasidagi hissasi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, ilmiy faoliyati davomida yozgan muhim maqolalari, tarjimalari va matnshunoslik sohasiga qo'shgan hissasi alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Ignatiy Yulianovich Krachkovskiy, matnshunoslik, paleografiya, arab adabiyoti, filologiya, tarjima, xristian-arab adabiyoti, qo'lyozma, sharqshunoslik, akademik meros.

Annotation. This article highlights the life and scientific legacy of the renowned Russian orientalist, Arabist, and philologist I.Yu.Krachkovsky, providing detailed information on his contributions to Arabic literature, paleography, linguistics, Christian-Muslim relations, manuscript study, and translation. Also, important articles written during his scientific activities, translations, and contributions to the field of textology were specifically noted.

Keywords: Ignatiy Yulianovich Krachkovsky, textual studies, paleography, Arabic literature, philology, translation, Christian-Arabic literature, manuscript, oriental studies, academic heritage.

Аннотация. В данной статье освещается жизнь и научное наследие известного русского востоковеда, арабиста, филолога И.Ю.Крачковского, приводится подробная информация о его вкладе в области арабской литературы, палеографии, языкознания, христианско-мусульманских связей, изучения и перевода рукописей. Также особо отмечены важные статьи, написанные в ходе его научной деятельности, переводы и вклад в область текстологии.

Ключевые слова: Игнатий Юлианович Крачковский, текстология, палеография, арабская литература, филология, перевод, христианско-арабская литература, рукопись, востоковедение, научное наследие.

Paleografiya – yozma ijodiyotning eng asosiy turi. Paleografiyaning asosiy vazifasi yozma asarlarni tarixiy manba sifatida o'rganishdir. U matnning qanday qog'ozga qanday siyoh bilan yozilganini, kim yozganini o'rganadi. Paleografiya matnshunoslik va tekstologiya bilan birgalikda tarixiy fan sifatida filologiyaning asosiy fanlaridan hisoblanadi. Umuman olganda, filologiya uchta katta fanni o'z ichiga oladi. Shulardan biri hisoblangan manbashunoslik bilan matnshunoslik fani shug'ullanadi. ilmiy yoki adabiy asarlarning tarixini qayta tiklash, shakldan xoli holda asl matni aniqlashga qaratilgan usullar majmuasidir [1: 10]. Ushbu sohada ko'plab olimlar, professorlar ish olib borgan. Shulardan biri nasroniy-arab yozuvi va arablarning zamonaviy adabiyoti bo'yicha privatdozent (universitetda **mustaqil ravishda dars o'tish huquqiga ega bo'lgan olim**), 1918-yildan boshlab esa professor sifatida faoliyat yuritgan I.Y.Krachkovskiy alohida e'tiborga loyiqdir.

Sharqshunos-filolog Ignatiy Yulianovich mahalliy arabshunoslik maktabining asoschilaridan biri. Katta va mavzusi rang-barang ilmiy merosining asosiy qismi arab adabiyoti, badiiy va ilmiy adabiyot tarixiga bag'ishlangan. Arab tilshunosligi, efiopistika, islomshunoslik, tarixshunoslik, paleografiya, sharqshunoslik tarixi, rus-arab madaniy aloqalariga oid asarlar ham yozgan. Ko'plab tarixiy va adabiy yodgorliklarning nashrlari va tarjimalarini, Qur'onning akademik tarjimasini, X.K.Baranovning arabcharuscha akademik lug'atini tahrirlashda katta hissa qo'shgan.

Krachkovskiy 1901-yili 1-Vilena gimnaziyasini a'lo baholar bilan tugatib, Sankt-Peterburg universitetining arab, fors, turk va tatar tillarini o'rganish uchun Sharq tillari fakultetiga o'qishga kirdi. Maskanda unga A.E.Shmidt, N.A.Mednikov, akademiklar R.Rozen va V.V.Bartold, professorlar V.A.Jukovskiy va P.M.Melioranskiylar ustozlik qilishdi. 1906-yilda universitetni arabshunos sifatida tamomlab, professorlik faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish uchun universitetda qoldi va 2 yil davomida akademik Rozen qo'lida arab tili bilan shug'ullandi. 1910-yilda Sankt-Peterburgga qaytib, o'qituvchilikni, ayni vaqtda, ilmiy faoliyatini boshladi (Sankt-Peterburg universitetining privat-dotsenti etib tayinlandi). O'z ilmiy faoliyatini **arab-xristian va efiop adabiyoti** mavzularida olib boradi. U **Osiyo muzeyida** magistrlik dissertatsiyasi ustida ishlash bilan birga, o'rta asr arab she'riyati, qo'lyozmalarni tadqiq etish, o'qitish va ilmiy izlanishlarni uyg'unlashtirib boradi. Arab tilining boshlang'ich kursi, arab geografik adabiyoti sharhi, arab she'riyati va arab dialektologiyasi bo'yicha bir qator kurslardan tashqari, universitetda "Xristian-arab adabiyotini o'rganishga kirish" (1912–1914) va "Xristian-arab adabiyoti sharhi va IX–X asrlarning eng qadimgi yodgorliklarini dialektologik sharhlash bilan tahlil

qilish" (1914–1919) kurslarida ham o'qidi. Krachkovskiy Iso Masihga bag'ishlangan asarlar, ko'pincha Sharqda mashhur bo'lgan mualliflar, adabiy yodgorliklar va sujetlar o'rtasidagi aloqalarni ochib beruvchi keng tarixiy-adabiy kontekstda arab yoki efiopiyaga oid matnlarning chuqur tahliliga asoslangan monografik maqolalar yozgan [2: 246–275]. U xristian-musulmon aloqalari tadqiqini "Федор Абу Курра у мусульманских писателей IX–X вв" maqolasida davom ettiradi [3: 301–309]. Ushbu maqolada Krachkovskiy o'rta asr arab adabiy manbalarida xristian faylasufi Feodor Abu-Kurraga oid qaydlar orqali diniy-madaniy munosabatlarni tahlil qiladi. O'rta asr arab she'riyatini o'rganish xristian-musulmon aloqalarini yoritishda muhim ilmiy natijalar berishi mumkinligini ta'kidlab, bu fikrini XII asrda yashagan, unchalik mashhur bo'lmagan, biroq she'rlarida xristian atamalariga tez-tez murojaat qilgan shoir – Ibn at-Taaviziyning devoni bilan asoslaydi. "Xalifa alMa'mun davrida Injilni arab tiliga tarjima qilish to'g'risida" nomli maqolasida [4: 189–196] Krachkovskiy Bibliyaning arab tiliga alFihristda zikr etilgan birinchi to'liq tarjimasini haqidagi ma'lumotga tayangan. Ushbu tarjima IX asrga tegishlilik va tarjimon Ahmad ibn Abdulloh ekanini aniqlaydi.

Olimning ilmiy merosida arab adabiyoti, jumladan, xristian adabiyotidan qilingan tarjimalar muhim o'rin tutadi. Ularning sirasiga hayotligida nashr etilmagan apokrifik asarlari – "Bolalik Injillari" va "Yusuf duradgorning hikoyasi" [5: 138–175] kabi tarjimalari ham kiradi. Barcha tarjimalar qat'iy akademik uslubda va asl matnga maksimal darajada yaqinlashtirilgan. Krachkovskiy marhum ustozlari, ayniqsa Rozenning tarjimalarini nashrga tayyorlashda ham shu sinchkov-filologik yondoshuvga amal qilgan. Uning xristian Sharqiga bag'ishlangan ilmiy asarlarining aksariyati ilmiy faoliyatining dastlabki 20 yiliga (1907–1927) to'g'ri keladi. Bu sohada tanazzul Birinchi jahon urushi davrida, xalqaro ilmiy aloqalar uzilib qolgan paytda boshlangan. 1917-yil Oktyabr inqilobi va keyin mamlakatda dinga nisbatan keskin salbiy siyosat kuchayishi bilan bunday tadqiqotlarni nashr etish imkoni faqat taqiriz, nekrolog, qo'lyozma tavsiflari va sayohat materiallari shaklida cheklangan edi...

Olim 1951-yili yurak falajidan vafot etdi. U Sankt-Peterburgdagi Volkov qabristonining "Adabiy ko'priki" deb ataluvchi mashhur qismiga dafn etildi. I.Y.Krachkovskiy xotirasini abadiylashtirish maqsadida uning nomi bilan **Krachkovskiy medali** ta'sis etilgan. Ushbu mukofot har yili sharqshunoslik sohasidagi yuksak ilmiy yutuqlari, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi bilan Sharq mamlakatlari o'rtasidagi madaniy va ilmiy aloqalarni rivojlantirishdagi xizmatlari uchun mahalliy va xorijiy olimlar hamda jamoat

arboblariga topshiriladi. I.Y.Krachkovskiy vafotidan so'ng V.B.Lutskiy "I.Y.Krachkovskiy tobuti ustidagi nutq" asarida buyuk olimning ilm-fanda bosib o'tgan yo'liga chuqur va asosli baho beradi. Bu nutq nafaqat Krachkovskiyning ko'p qirrali iste'dodini e'tirof etish, balki Lutskiyning o'zi uchun qadrdon bo'lgan fan sohasi – Arab Sharqi mamlakatlarning yangi va eng yangi tarixiga oid masalalarni yoritishga ham undaydi. V.B.Lutskiy olimning shaxsiyati va ilmiy yutuqlari haqida bir necha bor yozgan. "Tanlangan asarlar" to'plamining birinchi jildiga yozgan taqrizida ham olim faoliyatini yuksak baholaydi [6: 141–

143]. Ayniqsa, Krachkovskiyning arab xalqlarining milliy-ozodlik harakati va madaniy tiklanishiga bo'lgan samimiy xayrixohligi V.B.Lutskiyning alohida e'tiborini tortgan. U olimning 75 yillik yubileyi munosabati bilan aynan shu mavzuda maqola e'lon qilgan [7: 46–49].

I.Y.Krachkovskiy vafotidan so'ng o'tgan ko'p o'n yilliklar V.B.Lutskiyning o'z ustoz va hamkasbi haqida aytgan samimiy va ilhombaxsh so'zlarining haqqoniyligini tasdiqladi. V.B.Lutskiyning olim haqidagi maqolasi va nutqi (matni) Rossiya Fanlar akademiyasi arxivida (ARAN) va V.B.Lutskiyning shaxsiy fondida (F.1574) saqlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mamatxunova D., Mirziyotov Sh. Arab filologiyasiga kirish. – Toshkent: 2010.
2. Новозаветный апокриф в арабской рукописи 885–886 года по Р. Хр. // Востокведение, 1908. – Вып. 2/3 (за 1907). – С. 246–275.
3. Федор Абу Курра у мусульманских писателей IX–X вв. // Христианский Восток. – 1916. – Т. 4. – Вып. 3. – С. 301–309.
4. Крачковский И.Ю. О переводе Библии на арабский язык при халифе ал-Мамун // Христианский Восток, 1918, №6. – С. 189–196.
5. «Евангелия детства» и «Истории Иосифа плотника» (1919; Архив РАН (СПб). Ф. 1026. Оп. 1. Ед. хр. 146; изд.: Труды по истории и филологии, 2015. С. 138–175).
6. Луцкий В.Б. Издание трудов И.Ю.Крачковского // Вестник АН СССР, 1956, №6. – С. 141–143.
7. Луцкий В.Б. И.Ю.Крачковский и пробуждение арабских народов // Сборник арабского возрождения (к 75-летию со дня рождения выдающегося арабиста академика И. Ю.Крачковского) // Современный Восток, 1958, №3. – С. 46–49.

Nasiba MAMATKULOVA,

Guliston davlat universiteti tadqiqotchisi

MORFONOLOGIYANING FONETIKA, MORFEMIKA VA MORFOLOGIYA BILAN O'ZARO MUNOSABATI: NAZARIY YONDASHUV

Annotatsiya. Ushbu maqolada morfonologiyaning fonetika, morfemika va morfologiya fanlari bilan o'zaro bog'liqligi o'rganiladi. So'z tarkibida yuzaga keladigan fonologik o'zgarishlar, allomorfik shakllar va morfonologik alternatsiyalar tafsilotlari bilan tahlil qilinadi, morfonologiyaning til ichidagi fonetik va morfologik tizimlarni uyg'unlashtiruvchi vosita sifatidagi ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: morfema, morfonologiya, fonetik o'zgarish, allomorf, alternatsiya, affiks, o'zak morfema, fonologik moslashuv.

Annotation. This article examines the relationship between morphophonology and the fields of phonetics, morphemics, and morphology. It provides a detailed analysis of phonological changes within word structures, allomorphic variants, and morphophonological alternations.

Keywords: morpheme, morphophonology, phonetic change, allomorph, alternation, affix, root morpheme, phonological adaptation.

Аннотация. В статье исследуется взаимосвязь морфонологии с фонетикой, морфемикой и морфологией. Подробно анализируются фонологические изменения в составе слова, алломорфные варианты и морфонологические альтернативы.

Ключевые слова: морфема, морфонология, фонетические изменения, алломорф, альтернатива, аффикс, корневая морфема, фонологическая адаптация.

Barcha turkiy tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham o'zak va affixal morfemalarning fonologik strukturasi mavjud. Ma'lumki, dunyoda o'zgarimas holatda qoladigan hodisalar mavjud emas, barcha narsa vaqt o'tishi bilan muayyan darajada o'zgarishga uchraydi. Bu holat tilga ham tegishlidir. Til – doimiy harakatda, taraqqiyotda va evolutsiyada bo'lgan ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy jarayonlarning barcha qatlamlarida, jumladan, fonetik, leksik, grammatik va morfemik tizimlarida turli darajadagi o'zgarishlarga duch keladi. Bu o'zgarishlar so'zning ichki

tuzilmasiga, ya'ni morfemik tarkibiga bevosita ta'sir qiladi. Natijada so'zlarning tuzilishi, tarkibiy birliklar o'rtasidagi shakl unsurlari asta-sekinlik bilan o'zgarib boradi. So'z tarkibining o'zgarishi turli tillarda turlicha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Tilshunoslik fanining rivojlanish tarixida bu jarayon uch asosiy yo'nalish orqali amalga oshishi kuzatilgan: **soddalashuv**, **qayta tuzilish** va **murakkablashuv** ("soddalashuv, qayta bo'linish, murakkablashuv" [1: 129]).

Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, so'z tarkibida yuz beradigan o'zgarishlar muayyan yo'nalishlar asosida

kechadi. **Soddalashuv** hodisasi morfemalarning fonetik jihatdan qisqarishi, ba'zi tovushlarning tushib qolishi yoki fonologik jihatdan yengillashtirilishi natijasida yuzaga kelib, bu jarayon morfologik strukturalarning ixchamlashuvi va nutq tezligi bilan bog'liq bo'ldi va morfemalarning fonetik shakllariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. **Qayta tuzilish** (yoki qayta bo'linish) hodisasi esa morfemalarning ichki strukturasi va chegaralari qaytadan talqin qilinishi, ayrim morfemalarning yangicha morfologik birlik sifatida ajralib chiqishi bilan tavsiflanadi. Bu holatda morfemaning avvalgi shakli semantik yoki strukturaviy jihatdan o'zgaradi, natijada yangi morfologik birliklar yuzaga keladi. Murakkablashuv esa aksincha, morfemik tizimning murakkablashuvi, yangi affiksial birliklarning shakllanishi yoki mavjud birliklarga yana boshqa morfemalarning qo'shilishi orqali sodir etiladi va tilning grammatik vositalarini boyitish, ifoda aniqligini oshirish ehtiyoji bilan bog'liq bo'ladi. Ushbu uch yo'l orqali so'z tarkibining o'zgarishi nafaqat morfonologik tizimga, balki umumiy morfologik rivojlanishga ham xizmat qiladi. Shu bois bu mezonlar tilning ichki dinamikasini tahlil qilishda muhim metodologik asos.

O'zbek tilida morfemalar so'zning eng kichik ma'noli qismlari sifatida fonologik jihatdan turlicha xususiyatlarga ega bo'lib, o'zak va affiksial morfemalarga ajratiladi. O'zak morfemalar mustaqil leksik ma'no yuklovchi birliklar bo'lib, fonologik tarkibi jihatdan barqarorlikka ega. Ularning tovush tarkibi odatda fonetik muhitga ko'ra o'zgarishga uchramaydi. Masalan, *kitob*, *yurak*, *qiz*, *maktab* kabi o'zaklar tarkibidagi unli va undosh tovushlar mustahkam saqlanadi. Ba'zi hollarda esa morfonologik jarayonlar natijasida o'zakdagi tovushlarning cheklangan darajada o'zgarishi kuzatiladi. Bunga misol sifatida *bilak* – *bilagi*, *tilak* – *tilagi* kabi shakllar keltiriladi, bu yerda unli affikslar ta'sirida o'zak tarkibida fonologik moslashuv yuzaga keladi va morfonologiyaning obyekti sifatida qayd etiladi.

“Morf va morfema hamma vaqt ham bir-biriga teng kelavermaydi. Til birligi bo'lmish morfema nutqda bitta morf orqali va ba'zi hollarda bir necha morf orqali ifodalanishi mumkim. ... jo'nalish ma'nosi o'zbek tilida turli qo'shimchalar bilan amalga oshiriladi: (-ga, -ka, -qa). Bunday hollarda bir morfema uchta morf orqali namoyon bo'ladi” [2: 132] va ayni bir morfemaning allomorflari sifatida qayd etilayotgan uch shaklni ajratib turuvchi -g-, -k-, -q- morfonologik birliklar hisoblanadi. Affiksial morfemalar morfologik qo'shilish jarayonida fonetik muhitga moslashib, shakliy o'zgarishlarga uchrashi bilan ajralib turadi. Qo'shimchalar ko'pincha tovush almashinuvi, qo'shimcha tovush qo'shilishi yoki tushib qolishi kabi hodisalarga uchraydi. Bu holatda qo'shimchani boshlang'ich undoshi o'zakka moslashib o'zgaradi. Bir morfemaning turli fonemik variantlarda namoyon bo'lishi morfemika doirasida allomorfiya sifatida talqin qilinsada, bu o'zgarishlarni yuzaga keltirayotgan qonuniyatlar morfonologikdir. Shunday ekan, allomorf faqat fonetik ko'rinish emas, balki morfonologik tizim mahsulidir.

O'zbek tilidagi morfema chegarasida yuz beradigan bunday fonologik o'zgarishlar **morfonologik alternatsiya** deb ataladi. Ular tilning fonetik tizimi va morfologik tizimi o'rtasidagi muvofiqlashtiruvchi (mutanosiblashuvchi) vosita sifatida namoyon bo'ladi. Alternatsiya hodisalari fonetik qulaylik, talaffuz soddaligi va morfemalararo muvozanatni ta'minlaydi. Natijada til soddaligi, ichki uyg'unligi va talaffuz qulayligini saqlab qoladi. Umuman olganda, o'zak morfemalar fonologik jihatdan nisbatan barqaror bo'lsa, affiksial morfemalar o'zakdagi fonetik muhitga moslashib, turli fonologik o'zgarishlarga uchraydi. Ushbu o'zgarishlar til tizimining tabiiy qonuniyatlari asosida yuzaga keladi va morfologik qurilmalarning fonetik soddalashuvini ta'minlaydi.

Bitik so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida kam iste'moldagi so'z hisoblanadi. Bu so'z tarkibi fe'l+ot ko'rinishidadir. I.Yo'ldoshev va O'.Sharipovalar: “Tilshunoslikda yangi so'zning kelib chiqish tarixini o'rganish, aniqlash nisbatan oson, lekin eski so'zlarning etimologiyasini, ya'ni qachon paydo bo'lgani va qaysi tildan olinganini, uning dastlabki ma'no anglatish xususiyatlarini tahlil qilish ancha murakkab” [3: 117] deydi. Ular “Tilshunoslik asoslari” kitobida *bitik* so'zini E.Sevortyan, G.Dyorfer, G.Ramstedt, A. fon Gaben kabi olimlar fikriga tayanib tahlil etar ekan, kelib chiqishi, rivojlanishi, qaysi tillarga aloqador ekani, so'zning tarkibiy tuzilishini aqlashtirib beradi. Olimlarning fikriga ko'ra, *bitik*ning asli o'zagi bo'lmish *bi* so'zi xitoy tilidan olingan, keyinchalik -t affiksining qo'shilishi orqali turkiy tillarga o'tgan (*bi* so'zi *kitob*, *hujjat* tipidagi ot so'z turkumi bo'lgan va leyinchalik -t morfemasining qo'shilishi natijasida *bit* fe'li hosil bo'lib, “yozuv”, “yozmoq” kabi ma'nolarda ishlatilgan). Keyinchalik hosil bo'lgan *bitmoq* so'zi yana qaytadan ot hosil qilish uchun -k yasovchi shaklini olgan, bu jarayonda -i orttirilib, asos va qo'shimchani tutashtiruvchi birlik sifatida o'rinishadi. Ayni shu o'rinda qayd etish lozimki, *bitmoq* so'ziga *ho'plam*, *to'plam* so'zlari tarkibidagi -m yasovchisini qo'shganimizda hosil bo'lgan *bitim* shaklida tarkiban *bit+i+m* shakli hosil bo'lmaydi, chunki bu o'rinda u tutashtiruvchi emas, moslashtiruvchi birlik sifatida namoyon bo'ladi. Bunda *bit* asos, -im esa affiks hisoblanadi. Umuman olganda, tutashtiruvchi birlik affiksning foydasiga og'adi va affiksning tarkibiy qismi bo'lib qoladi. *Bichim* so'zida ham xuddi shu holat tarixiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelganini kuzatish mumkin. Demak *bitik* so'zi *bi+t+(i)+k* holatida shakllangan va bu jarayonda fonetik hodisalarni ham kuzatish mumkinligini hisobga olib, so'z taraqqiyotida ishtirok etayotgan morfonologik birliklarga guvoh bo'lamiz.

Bu tipdagi yasalmalar (-k fe'ldan ot yasaydi:) *ela+k* (elak), *tila+k* (tilak), *beza+k* (bezak)” [4: 108], *o'ksi+k* (o'ksik) kabi so'zlardagi -k morfonemasi bilan yasalgan otlarda kuzatilmaydi. “So'z ma'nosining rivojlanishi sifat va miqdor o'zgarishiga, ma'noning kengayishi va torayishiga, hatto tildan umuman tushib qolishiga olib keladi” [5: 90]. *Yurak* so'zi ham ayni shu fikrni isbotlaydi va tarkibi (asli *yur+ak* qismlaridan tashkil topgan, hozirda *yurakning yurmoq*

fe'lidan aloqasi uzilib ketgan) ham bugungi kunda qismlarga ajratilib tahlil qilinmaydi. Endi biz bugungi kunda *yurak* so'zini yasama so'z deb baholashimiz to'g'ri bo'lmaydi. Chunki bu yasaliş taraqquyot natijasida sodir bo'lgan bo'lib, allaqachon ongda yaxlit tushuncha sifatida gavalanib qolgan. Shuningdek, *birik(moq)*, *ichak*, *qishloq*, *ninachi*, *naycha* (organ ma'nosida), *qizilcha* (yara, toshma; lavlagining turi; quvunning turi), *qo'shimcha* (tilshunoslik termini), *boshhoq* (arpa va bug'doyning donlar yig'imi), *yara* (jarohat) singari yasalmalar ham tadqiqotlar natijasida qismlarga bo'linadi.

Til tizimi o'z mohiyatiga ko'ra murakkab, ko'p qatlamli va dinamik sistemadir. Har bir lingvistik birlik, xususan, fonemalar va morfemalar darajasida kuzatiladigan o'zgarishlar ham diaxroniya, ham sinxroniya jihatidan izchil tahlilni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki,

“hozirgi davrda belgiga kognitiv, kommunikativ-funksional hamda germeneytik yondashuvlarni uzviy birlashtirgan holda tadqiqot olib borish talab etiladi” [6: 18–19]. Tilda yuz berayotgan bu o'zgarishlar, bir tomondan, belgining o'z-o'ziga nisbatan mosligini saqlagan holda, ikkinchi tomondan, vazifaviy yangilanish va paradigmatic moslashuvni ta'minlaydi. Aks holda, tilning asosiy vazifalari – axborot yetkazish, tushunish, ijtimoiy muloqotni tartibga solish kabi jihatlarni izidan chiqarib, boshboshdoqlik (anarxiya) holatiga olib kelgan bo'lardi. Aslida, til sathlari – fonetik, morfemik, morfologik va sintaktik strukturalar o'zaro bog'liq, lekin har biri o'ziga xos rivojlanish mexanizmiga ega bo'lgan tizimlardir. Ular o'z ichki qonuniyatlari asosida turli bosqichlarda shakllanadi, o'zgaradi, lekin bu jarayonlar ko'pincha til egalari sezilmaydigan darajada tabiiy kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sodiqov A., Abdulazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 1981. – B. 129.
2. Yo'ldoshev I., Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. – B. 132.
3. Yo'ldoshev I., Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. – B. 117.
4. Uralov A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021. – B. 108.
5. Yo'ldoshev I., Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007. – B. 90.
6. Кубрякова Е.С. Возвращаясь к определению знака (памяти Р.Якобсона) // Вопросы языкознания, 1993, №4 – С 18–19.

Ixtiyor BAZAROV,

*O'zbekistan davlat jahon tillari universiteti ingliz tili III fakulteti dekani v.b.,
filologiya fanlari boyicha falsafa doktori*

KOGNITIV LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA MADANIY LUG'AT YARATISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada madaniy lug'at yaratish jarayonida kognitiv lingvokulturologik yondashuvning nazariy asoslari va amaliy usullari tahlil qilinadi. Milliy madaniyat, til va tafakkur uchligi doirasida konseptlarning aks etish shakllari, til birliklarida madaniy ko'rsatkichlarning ifodalanishi, “konseptosfera” va “lingvokulturama” kabi tushunchalarning lug'at tuzishdagi o'rnini yoritiladi. Tadqiqotdan asosiy maqsad – xalqning madaniy tafakkuri, tarixiy-estetik qarashlari va ijtimoiy tajribasini aks ettiruvchi lug'aviy birliklarni tanlab, ularni konseptual asosda tasniflash va kognitiv asoslangan madaniy lug'at yaratish usuliyatini ishlab chiqish. Maqolada rus, ingliz va o'zbek tillaridagi madaniy birliklar solishtirilib, universal va milliy xususiyatlar aniqlanadi.

Kalit so'zlar: kognitiv lingvistik, lingvokulturologiya, madaniy lug'at, konsept, konseptosfera, til va tafakkur, madaniy semema, til modeli, lingvokulturama.

Annotation. This article examines the theoretical foundations and practical methods of creating a cultural dictionary based on a cognitive linguoculturological approach. It explores how cultural concepts are reflected within the triad of national culture, language, and cognition, and how cultural markers are encoded in linguistic units. The roles of such notions as “conceptosphere” and “linguoculturama” in dictionary compilation are analyzed. The main aim of the study is to select lexical units that reflect the people's cultural mindset, historical-aesthetic views, and social experience, and to classify them conceptually in order to develop a methodologically sound cultural dictionary grounded in cognitive linguistics. The article compares cultural units in Russian, English, and Uzbek, identifying both universal and nationally specific features.

Keywords: cognitive linguistics, linguoculturology, cultural dictionary, concept, conceptosphere, language and cognition, cultural sememe, linguistic model, linguoculturama.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы и практические методы создания культурного словаря с опорой на когнитивно-лингвокультурологический подход. Анализируются формы отражения концептов в триединстве национальной культуры, языка и мышления, а также способы выражения культурных маркеров в языковых единицах. Особое внимание уделяется значению понятий, таких как концептосфера и лингвокультурама, в процессе составления словаря. Цель исследования – отобрать лексические единицы, отражающие культурное сознание народа, его историко-эстетические

представления и социальный опыт, классифицировать их на концептуальной основе и разработать методику создания когнитивно обоснованного культурного словаря. В статье проводится сопоставительный анализ культурных единиц в русском, английском и узбекском языках, выявляются универсальные и национально-специфические особенности.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, лингвокультурология, культурный словарь, концепт, концептосфера, язык и мышление, культурная семема, языковая модель, лингвокультурама.

Zamonaviy tilshunoslikda tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniyati, ijtimoiy tajribasi va axloqiy qadriyatlarini mujassamlashtiruvchi murakkab ko'lamli fenomen sifatida o'rganish tendensiyasi kuchaymoqda. Ayniqsa, kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya yo'nalishlarining sintezida shakllangan kognitiv lingvokulturologik yondashuv til va madaniyat o'zaro munosabatini chuqur va tizimli o'rganish imkonini bermoqda.

Til nafaqat kommunikativ vosita, balki milliy madaniyatni, tarixiy xotirani, axloqiy mezonlarni saqlovchi va avloddan avlodga yetkazuvchi muhim ijtimoiy institutdir. Shu sababli, tilshunoslikda lingvomadaniy birliklarni aniqlash, semantik hamda konseptual xususiyatlarini tahlil qilish orqali milliy tafakkur modeli, madaniy xotira va qadriyatlar tizimini ochib berish imkoniyati tug'iladi. Bu jarayonda madaniyatni til orqali anglash, tilda yashiringan madaniy kodlarni ajratib olish va ularni tizimlashtirish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi [1: 15]. Madaniy lug'at yaratish masalasiga esa mazkur jarayonning amaliy natijasi sifatida qaraladi. U xalq tafakkuridagi asosiy konseptlarni aniqlash, ularni lug'aviy jihatdan qayta ishlash va madaniy, tarixiy, axloqiy va estetik yondashuvlar orqali sharhlashni taqozo etadi. Bunday lug'at til o'rganishda, tarjimada, madaniyatlararo kommunikatsiyada, shuningdek, o'zlikni anglash va milliy o'ziga xoslikni saqlashda katta ahamiyatga ega.

Bugungi globallashuv va madaniy xilma-xillik sharoitida har bir xalq o'z madaniy konseptlarini identifikatsiya qilish, ularni o'z tilida qayta ifodalash va boshqa tillarga to'g'ri tarjima qilish zaruriyatini boshdan kechirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, kognitiv lingvokulturologik yondashuv asosida madaniy lug'at yaratish ilmiy-texnikaviy dolzarb muammodir [2: 8]. Ushbu maqolada aynan shu yondashuv asosida madaniy lug'at yaratishning nazariy asoslari, konseptual tasnifi, til birliklarining madaniy konnotatsiyalari, lingvokulturologik birliklarning strukturalashuvi va ularning matnlarda qanday ifodalangani tahlil qilinadi. Shu bilan birga, rus, ingliz va o'zbek tillaridagi muayyan konseptlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning universal va milliy xususiyatlari ochib beriladi. Qisqa qilib aytganda, maqoladan ko'zlangan maqsad xalqning madaniy tafakkurida asosiy o'rin tutuvchi konseptlarni lingvistik va kognitiv jihatdan tahlil qilib, ular asosida madaniy lug'at tuzishning nazariy-uslubiy modelini ishlab chiqishdir.

Kognitiv va lingvokulturologik paradigmalar. Kognitiv tilshunoslik inson tafakkuri va til o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Bu yondashuvga ko'ra, til – insonning dunyo haqidagi bilimini tartibga soluvchi asosiy vosita [3: 21].

Lingvokulturologiya esa til birliklari orqali milliy madaniyatni tahlil qilishga e'tibor qaratadi. Bu ikki yondashuv uyg'unligida quyidagi tushunchalar asosiy nazariy tayanch sifatida maydonga chiqadi:

- Konsept – xalq ongidagi asosiy madaniy, hissiy, axloqiy birliklar (masalan: “or”, “g'urur”, “mehmonnavozlik”).
- Konseptosfera – biror tilda mavjud barcha konseptlar majmuyi.
- Lingvokultutama – milliy madaniyatda muhim o'rin egallovchi til birliklari to'plami.

Kognitiv lingvokulturologik lug'at aynan mana shu birliklar asosida tuziladi [4: 17].

Metodologik yondashuv: madaniy konseptlarni tanlash va tasniflash. Madaniy lug'at yaratishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- Asosiysi – konseptual tahlil: til birliklari ortidagi konseptlarni aniqlash (semantik tahlil, assotsiativ testlar, korpus tahlili orqali).
- Komponent tahlil: semantik qismlarga ajratish orqali birliklarning madaniy yuki aniqlanadi.
- Diskursiv tahlil: konseptlar real matnlarda (folklor, badiiy adabiyot, ommaviy axborot vositalari) qanday ishlatilishini tahlil qilish.
- Solishtirma tahlil: turli tillardagi bir xil konseptlarning milliy xususiyatlarini aniqlash.

Madaniy lug'at modelining strukturasini shakllantirish. Kognitiv lingvokulturologik asosdagi madaniy lug'at quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi lozim:

- konsept nomi (masalan: “mehmondo'stlik”)
- etimologiyasi va kognitiv xaritasi
- madaniy sharhi (tarixiy, etnografik, diniy asoslar)
- diskursdagi ifodalanish shakllari
- lingvistik vositalari (frazologizm, maqol, metafora, ibora)
- parallel konseptlar (boshqa tillarda)
- lingvokulturologik kommentariy (milliy konnotatsiyalar)

Tahliliy bo'lim. Konseptlar misolida amaliy tahlil.

1-misol – “or” konsepti (o'zbek tilida):

- Semantik yadrosi: uyat, sha'n, vijdon
- Madaniy asos: Sharq axloqiy-islomiy qadriyatlari
- Diskursda: “Orsiz odam”, “Or bilan yashash”, “Orim yo'q”

• Boshqa tillarda: ruscha – “честь”, inglizcha – “honor”, biroq ularning milliy asoslari farqlidir.

2-misol – “mehmondo'stlik” konsepti:

- Konseptual maydon: non, dasturxon, duo, mehmonxona, quvonch
- Frazologizmlar: “Mehmon keldi – fayz keldi”
- Madaniy yuk: mehmonni qadrlash qadimiy an'anaviy norma

Milliy va universal konseptlar qiyosiy tahlili

Konsept	O'zbek tili	Rus tili	Ingliz tili
g'urur	g'urur, or	гордость, честь	pride, dignity
duoning kuchi	duo, baraka	молитва, благословение	prayer, blessing
nafosat	chiroy, latofat	красота, изящество	beauty, grace
uyat	uyat, or, hijolat	стыд, совесть	shame, modesty

Bu jadval madaniy lug'atga parallel konseptlar blokini kiritishda yordam beradi.

Lug'atning didaktik va amaliy ahamiyati:

- O'zbek tilini xorijliklarga o'rgatishda madaniy asosli lug'at o'quvchilarga til bilan birga mentalitetni tushunishga imkon beradi [5: 23].

- Tarjimonlar uchun milliy-konnotativ ma'nolarning izchil talqinini ta'minlaydi.

- Til siyosati va milliy madaniyatni targ'ib qilishda madaniy lug'atlar strategik ahamiyat kasb etadi.

Madaniy lug'at zamonaviy tilshunoslikning ko'p paradigmalik yondashuvlarini birlashtirgan holatda yaratilmoqda. Ayniqsa, kognitiv lingvokulturologik asos milliy konseptlarni aniqroq tasniflash, ularning xalq tafakkuri va madaniyatidagi o'rnini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, lug'atni nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, tarjimashunoslik, sotsiologiya va pedagogikada ham muhim vosita sifatida qo'llash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. М.: Academia, 2001.
2. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. М.: Наука, 1972.
3. Bekmuratova N. *O'zbek tilida milliy konseptlar tahlili: "or", "g'urur", "uyat" misolida.* – Toshkent: O'zMU, 2021.
4. Yuldasheva G. *Kognitiv yondashuv asosida til va tafakkur munosabati.* – Termiz: Surxon akademiyasi, 2020.
5. Rahimov S. *Kognitiv lingvokulturologiya va tarjimada milliy mental birliklar.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023.

Feruzaxon MURATKHODJAEVA,

*Oriental universiteti G'arb tillari kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari boyicha falsafa doktori*

KOGNITIV SEMANTIKA DOIRASIDA EMOTSIONAL KONSEPTLARNING TADQIQI

Annotatsiya. Mazkur maqola kognitiv semantika doirasida emotsional konseptlarning lingvistik tahliliga bag'ishlangan. Unda emotsional holatlarni ifodalovchi leksik birliklarning shakllanishi, ularning semantik va konseptual xususiyatlari, xalq ongida qanday mental modellar asosida tashkil topishi tahlil qilinadi. O'zbek tilidagi asosiy emotsional konseptlar – "g'am", "shodlik", "qo'rquv", "alam", "mehr", "nafrat" – semantik maydon, metaforik ifoda, assotsiativ qatlamlar orqali o'rganiladi.

Kalit so'zlar: kognitiv semantika, emotsional konsept, konseptual tizim, metafora, assotsiatsiya, mental model, hissiy leksika, semantik maydon, til va tafakkur, kognitiv lingvistika.

Annotation. This article is devoted to the linguistic analysis of emotional concepts within the framework of cognitive semantics. It examines the formation of lexical units that express emotional states, their semantic and conceptual features, and the mental models underlying them in the collective consciousness. Key emotional concepts in the Uzbek language – such as "grief", "joy", "fear", "pain", "affection", and "hatred" – are analyzed through their semantic fields, metaphorical expressions, and associative layers. The article also presents a comparative analysis of how these emotional concepts are expressed in other languages.

Keywords: cognitive semantics, emotional concept, conceptual system, metaphor, association, mental model, emotional lexis, semantic field, language and cognition, cognitive linguistics

Аннотация. Данная статья посвящена лингвистическому анализу эмоциональных концептов в рамках когнитивной семантики. Рассматривается формирование лексических единиц, выражающих эмоциональные состояния, их семантические и концептуальные особенности, а также ментальные модели, на основе которых они формируются в народном сознании. Основные эмоциональные концепты узбекского языка – «печаль», «радость», «страх», «обида», «любовь», «ненависть» – исследуются с точки зрения семантического поля, метафорического выражения и ассоциативных связей.

Ключевые слова: когнитивная семантика, эмоциональный концепт, концептуальная система, метафора, ассоциация, ментальная модель, эмоциональная лексика, семантическое поле, язык и мышление, когнитивная лингвистика.

Til nafaqat tashqi dunyoni, balki insonning ichki dunyosini ham aks ettiradi. Ayniqsa, emotsional holatlarning til orqali ifodalanishi kognitiv tilshunoslikda markaziy masalalardan biri hisoblanadi. Har bir millat tilida hissiyotlar, kayfiyat, ruhiy kechinmalar o'ziga xos leksik, frazeologik, metaforik vositalar orqali ifodalanadi. Ushbu lingvistik birliklar orqali insonning mental konseptual tizimi, ya'ni tafakkur strukturalari va dunyo manzarasi yuzaga chiqadi [1: 8]. Kognitiv semantika ushbu konseptlarning chuqur semantik qatlamlarini, tafakkurdagi asoslarini, assotsiativ aloqalari va madaniyat bilan bog'liqligini tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu maqolada emotsional konseptlar, ularning semantik ko'lami, konseptual metaforalari va psixolingvistik asoslari kognitiv yondashuv doirasida tadqiq etiladi.

Kognitiv semantika: nazariy asoslar. Kognitiv semantika tilshunoslikning kognitiv yondashuvi asosida shakllangan bo'lib, til birliklarini inson ongidagi konseptual tuzilmalar bilan bog'liq holda o'rganadi. Bu yo'nalish asoschilari G.Lakoff, R.Langacker, E.Rosch, A.Wierzbicka, Z.Kövecses va boshqalar bo'lib, ularning izlanishlari inson tilida aks etgan bilimlar modeli, tajriba asosidagi tahlil va emotsional konseptlarning konseptualizatsiyasiga qaratilgan [2: 12].

Emotsional konsept – inson his-tuyg'ulari bilan bog'liq bo'lgan, tilda ifodalanadigan va madaniyatda tushuniladigan mental konstruksiya. Ular turli til birliklari, metaforalar, frazeologizmlar, grammatik shakllar orqali yuzaga chiqadi. Masalan, o'zbek tilida *Ko'ngli to'ldi*, *Dilini bosdi*, *Yuragi orqaga tortdi* kabi iboralar orqali emotsional konseptlar ifodalanadi.

Emotsional konseptlarning shakllanish omillari. Emotsional konseptlar quyidagi asosiy omillar ta'sirida shakllanadi:

- **Biologik asoslar.** Qo'rquv, g'am, xursandchilik kabi hissiyotlar universal holatlarda mavjud, ammo ifoda shakli farqlidir.
- **Madaniy kodlar.** Har bir jamiyat emotsiyani ifodalash uslubini belgilaydi. O'zbek jamiyatida hissiyotlar ko'proq bilvosita, obrazli tarzda ifodalanadi.

- **Assotsiativ aloqalar.** Til birliklari inson tajribasi bilan bog'liq tasavvurlar asosida shakllanadi (masalan, "yurak" – sevgi, "ko'ngil" – noziklik).

- **Metaforik modellar.** Kognitiv metaforalar orqali emotsiyalar "tana", "harorat", "og'irlik" singari sohalar bilan bog'lanadi.

Emotsional konseptlarning kognitiv tahlili. "G'am" konsepti

"G'am" o'zbek madaniyatida eng murakkab emotsional konseptlardan biri bo'lib, u faqat salbiy holat emas, balki "sabr", "taqdir", "tavakkul" tushunchalari bilan bog'liq. Til birliklari: *G'am bosdi*, *Dilida g'am yotibdi*, *G'am-tashvishga cho'mdi*. Bu birliklarda emotsiya og'irlik va fazoviy metaforalar bilan ifodalangan: "bosdi", "yotibdi", "cho'mdi" [4: 22].

"Quvonch / shodlik" konsepti. Shodlik konsepti ko'pincha yorug'lik, yengillik, harakat bilan bog'liq: *Ko'ngli yorishdi*, *Yuragi yengil tortdi*, *Shodlikdan uchib ketdi*. Ushbu ifodalar ko'ngilni "yorish" (yorug'lik bilan to'lish), "uchib ketish" (harakat va erkinlik) metaforalari orqali konseptualizatsiya qilinadi.

"Qo'rquv" konsepti. Qo'rquvning asosiy metaforalari: *Yuragi orqaga tortdi* – harakatni to'xtatish, *Qon boshi bilan chiqdi* – fiziologik reaksiya, *Yuragi gup etib tushdi* – jismoniy holat orqali ifoda. Qo'rquv nafaqat psixologik, balki tana sezgilari bilan bog'langan konsept bo'lib, ontologik metafora orqali ifodalanadi.

"Alam / naftrat" konsepti. Bu emotsiyalar ko'pincha ichki portlash, qaynash, olov metaforalari bilan ifodalanadi: *Ich-ichidan yondi*, *Ko'zidan olov chiqdi*, *Alam yutdi*. Ular tajovuz, og'riq va norozilik bilan bog'liq konseptual asoslarga ega.

Semantik maydon va konseptual tarmoq. Kognitiv semantika asosida har bir emotsional konsept semantik maydon doirasida tahlil qilinadi. Bu maydonlar:

- Yadro (asosiy tushuncha): g'am, shodlik, qo'rquv.
- Periferiya (ular bilan bog'liq tushunchalar): iztirob, xavotir, ilinj, sabr, najot, faryod.
- Assotsiativ birliklar: yurak, ko'ngil, ko'z, ohang, tashvish.

Tarmoq diagrammalar orqali konseptlar o'zaro bog'langan, ular madaniyat asosida kengayadi [5: 8].

Taqqoslovij aspekt: ingliz va rus tillari bilan qiyoslash:

Emotsiya	O'zbekcha ifoda	Inglizcha ifoda	Ruscha ifoda
Qo'rquv	Yuragi orqaga tortdi	His heart sank	Сердце ушло в пятки
G'am	Ko'ngli cho'kdi	Felt downcast	Душа болит
Quvonch	Yuragi yengil tortdi	His heart lifted	На душе стало легко
Alam	Ichidan yondi	Boiling with rage	Душа разрывается от боли

Bu qiyoslar shuni ko'rsatadiki, har bir til o'ziga xos konseptual metaforalarga ega bo'lib, bu farqlar milliy madaniyat, tafakkur va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq. Kognitiv semantika doirasida emotsional konseptlarni o'rganish tilshunoslikka yangi ko'lam bag'ishlaydi. Bu yondashuv orqali so'z va iboralar ortidagi mental modellar,

madaniy konnotatsiyalar, psixologik asoslar ochiladi. O'zbek tilida emotsional konseptlar chuqur metaforik asos, assotsiativ tarmoq va madaniyatga xos semantik maydonga ega. "Ko'ngil", "dil", "yurak" kabi asosiy birliklar emotsional holatlarni bilvosita, estetik tarzda ifodalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
2. Kövecses Z. *Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000.
3. Кубрякова Е.С. *Язык и знание*. Москва: Славянская Культура, 2004.
4. Sharipov N. *Til va tafakkur: kognitiv yondashuvlar*. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Axmedova M. O'zbek tilida hissiy holatlarni ifodalovchi metaforalarning konseptual tahlili. // *Filologiya masalalari*, 2021, №4.

Dilnoza BOBOKULOVA,

Termiz davlat universiteti fakultetlararo chet tillari kafedrası o'qituvchisi

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI “AKTYORLIK” TUSHUNCHASINING LINGVISTIK IFODASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida “aktyorlik” tushunchasining lingvistik ifodalari, semantik tarkibi, madaniy-ma'naviy mazmuni hamda qiyosiy tavsifi tahlil qilingan. Aktyorlik san'atiga oid atamalarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan leksik va lingvokulturologik muammolari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: aktyor, aktyorlik san'ati, lingvistik tahlil, teatr, termin, semantika, chog'ishtirma tahlil.

Annotation. This article analyzes the linguistic expressions of the concept of “acting” in English and Uzbek, their semantic structure, cultural and spiritual content and comparative description. Lexical and linguocultural problems that arise in the process of translating terms related to the art of acting are considered.

Keywords: actor, art of acting, linguistic analysis, theater, term, semantics, comparative analysis.

Аннотация. В данной статье анализируются языковые выражения концепта «актерство» в английском и узбекском языках, их семантическая структура, культурно-духовное содержание, а также сопоставительная характеристика. Рассматриваются лексические и лингвokulturologicheskie проблемы, возникающие при переводе терминов, связанных с актерским искусством.

Ключевые слова: актер, актерское мастерство, лингвистический анализ, театр, термин, семантика, сопоставительный анализ.

Teatr inson ongi, hissiyoti va tafakkurini ifoda etadigan san'at turi sifatida til va madaniyatning ajralmas qismidir, Shu jihatdan, teatr bilan bog'liq atamalar ham nafaqat lingvistik, balki madaniy ahamiyatga ega. Ular orasida “aktyorlik” tushunchasi alohida o'rin tutadi. Aktyorlik san'ati – insonning ijodiy qobiliyati hamda sahnada obraz yaratish mahorati orqali namoyon bo'ladigan murakkab va serjilo jarayon. Ingliz tilida keng qo'llaniladigan *acting*, *actor*, *performance*, *role-playing*, *stagecraft* kabi terminlar o'zbek tilida *aktyorlik*, *rol ijro etish*, *sahna mahorati*, *sahna obrazi* kabi atamalar bilan ifodalanadi.

Aktyorlik tushunchasining semantik tarkibi. Ingliz tilida *acting* so'zi fe'l shaklida ham (to act – harakat qilmoq, ijro etmoq), ot shaklida ham (acting – sahnada rol ijro etish) ishlatiladi. Bu so'z ko'p ma'noli bo'lib, teatrdan tashqari, siyosiy va ma'muriy sohalarda ham qo'llaniladi (masalan, *acting president* – vaqtincha prezident vazifasini bajaruvchi) [3: 445]. O'zbek tilida esa *aktyorlik* atamasi faqat sahna, teatr va kino sohasiga xos ma'noga ega. Unda leksik chegara aniq belgilangan. Ko'rinib turibdiki, so'zning ma'no doirasi o'zbek tilida nisbatan torroq.

Lingvokulturologik jihatlar. Aktyorlik san'ati har bir xalqning milliy madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Masalan, o'zbek teatr maktabida ko'proq an'anaviy, dramatik uslublar ustun bo'lsa, ingliz teatrida improvizatsiya, realistik va psixologik uslublar ko'p qo'llaniladi. Bu farq

atamalarning qo'llanilishiga ham ta'sir ko'rsatadi. O'zbek teatr san'ati tarixan xalq og'zaki ijodi, dostonchilik, marosimlar va ko'chma teatr an'analari bilan rivojlangan. An'anaviy teatr shakllari (masalan, **qorako'z**, **askiya**, **dostonchi aktyorlar**) ko'proq xalqona, dramatik va didaktik mazmunga ega bo'lgan. Shu bois, o'zbek teatr maktabida ifoda vositalarining obrazli, tasviriy va dramatik bo'lishi ustunlik qiladi. O'zbek aktyorlik uslubi ko'proq sahnadagi jismoniy harakat, so'z ohangi, xalqona mimika, kuchli hissiylik va milliy xarakter yaratishga tayanadi. Masalan, obrazlar ko'pincha yaqqol ajralib turadigan xulq-atvor, kiyim-kechak va sahna harakati orqali ochiladi. Bu teatr maktabida aktyorlar ko'pincha tayyor ssenariy, berilgan dramatik yo'nalish va ijodiy nazorat ostidagi ijroga tayanadilar. Shuningdek, milliy dramalar va tarixiy asarlarda xalq ruhi, axloqiy qadriyatlar va ma'naviy jihatlar kuchli ifodalanadi.

Ingliz teatr san'ati Shekspir davridan boshlab dramaturgiya va aktyorlikda keng ko'lamli tajribaga ega. G'arb teatrida realistik, psixologik va improvizatsion uslublar keng qo'llaniladi. Bu teatr maktabi aktyordan chuqur psixologik tahlil, ichki holatni nozik ifodalash va turli ijodiy uslublarda erkin harakat qilishni talab qiladi. Masalan, **method acting** – aktyorning o'z hayotiy tajribalarini, emotsional kechinmalarini sahna obraziga uyg'unlashtirish usuli. Bu uslub ingliz va Amerika

teatrlarida keng tarqalgan bo'lib, unda obrazd "yashash", ya'ni aktyorning sahnadagi obraz bilan mutlaqo birlashib ketishi muhim hisoblanadi. Shuningdek, ingliz teatrida **improvizatsiya** keng qo'llaniladi. Bu aktyorga oldindan ssenariysiz, holatga mos ravishda obraz yaratish imkonini beradi. Bunday yondashuv aktyordan katta ichki erkinlik, sahnadagi vaziyatni tez anglash va reaksiya bera olish qobiliyatini talab etadi [1:129].

Ingliz tilidagi *method acting* tushunchasi o'zbek tiliga ko'pincha *usulli aktyorlik* deb tarjima qilinadi, lekin buning ortidagi madaniy-tajribaviy mazmun o'zbek sahnasining barcha turlarida mavjud emas. Ushbu uslubiy farqlar teatrga oid atamalarning ham shakllanishi va qo'llanilishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'zbek tilidagi **rol ijro etish, sahna harakati, rolga kirish** kabi iboralarda ko'proq tashqi harakat va ifodaga urg'u berilsa [2: 95], ingliz tilida **role immersion, emotional truth, improvised response, method acting** kabi atamalar ichki holat, psixologik chuqurlik va ijodiy yondashuvni bildiradi. Bu esa teatr terminlarini tarjima qilishda bevosita muammolarni yuzaga keltiradi. Chunki har bir atama orqasida faqat lug'aviy emas, balki **madaniy-falsafiy yondashuv** yotadi. Tarjima faqat so'z darajasida emas, balki **teatr maktablarining uslubiy ruhini** ham o'zida aks ettira olishi kerak.

Tarjimadagi muammolar. Aktyorlikka oid ba'zi inglizcha atamalarni o'zbek tiliga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish qiyin. Aktyorlik san'ati o'z tabiatiga ko'ra madaniy, estetik va ijtimoiy omillar bilan bevosita bog'liq bo'lgan san'at sohasidir. Shu sababli, aktyorlikka oid terminlar har bir til va madaniyatda o'ziga xos semantik, uslubiy va madaniy xususiyatlarga ega. Ayniqsa, ingliz tilidagi teatr terminlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda ko'plab lingvistik va lingvomadaniy muammolar yuzaga keladi. Ushbu muammolar odatda **madaniyatlararo tafovutlar va atamalar tizimidagi farqlar tufayli** yuzaga chiqadi. Ingliz tilidagi ko'plab teatr atamaları G'arb teatr maktabining rivojlanishiga, xususan, Stenislavskiy, Brext, Chexov, Lee Strasberg va Stanislavskiy tizimining G'arbdagi interpretatsiyalariga asoslangan. O'zbek teatr maktabi esa ko'proq milliy-an'anaviy uslub, folklor va dramatik sahnalashtirishga asoslangan. Shuning uchun inglizcha ayrim tushunchalar o'zbek tilida aynan shunday madaniy yoki uslubiy asosga ega emas. Masalan, **method acting** – aktyorning rolga chuqur kirib, haqiqiy hayotdagi psixologik tajribalarini qo'llab obraz yaratishid. Bunday atamani

o'zbekchaga *usuliy aktyorlik* yoki *psixologik kirishish usuli* deb tarjima qilish mumkin, ammo bu tarjimalar ko'pchilikka tushunarli emas va teatr amaliyotida keng ishlatilmaydi. **Stagecraft** so'zida sahnadagi barcha elementlar (dekoratsiya, harakat, texnik jihatlar) qamrab olinadi, o'zbekchada bunga mos umumiy so'z yo'q [1: 387]. **Acting** esa "rollarga taqsimlash" degan ma'noda qo'llaniladi, lekin bunday so'z o'zbek teatr leksikonida faol emas.

Ko'p ma'nolilik va kontekstga bog'liqlik. Inglizcha teatr terminlari ko'pincha matnga qarab turlicha ma'no kasb etadi. Bu holatda ularni so'zma-so'z tarjima qilish notabiiylik va mazmun yo'qolishiga olib keladi [4: 125]. Masalan, **stage presence** atamasi aktyorning sahnadagi jozibas, tomoshabinda qoldiradigan ta'siri va sahnada o'zini tutish qobiliyatini anglatadi. O'zbekchada bunga to'g'ri ekvivalent yo'q. Ba'zan *sahnadagi harakat, aktyorning obrazda tabiiy bo'lishi* kabi tasviriy ifodalar orqali tushuntiriladi. **Cold reading** – aktyorning ssenariyni oldindan tayyorlanmasdan o'qib, o'sha zahotiyok roldagi obrazga kirib ijro etish mashqi. O'zbekchada bunday murakkab uslubga nom berilmagan, shunchaki *tayyorgarliksiz o'qish* deb berilishi esa ma'nonito'liq yetkazmaydi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi *aktyorlik* tushunchasi umumiy ma'noda yaqin bo'lsa-da, ularning ifoda usuli, semantik ko'lami va madaniy fonida muayyan farqlar mavjud. Sohaga oid ingliz tilidagi atamalar ko'proq uslubiy va psixologik jihatlarni qamrab olsa, o'zbek tilidagilari an'anaviy va saxnadagi amaliyotga tayangan. Bu holat tarjima jarayonida alohida e'tibor talab qiladi. Kelgusida teatr atamalariga oid ikki tilli ixtisoslashgan lug'atlar tuzish orqali bu sohadagi lingvistik kamchiliklarni bartaraf etish mumkin. Aktyorlik san'atiga oid inglizcha atamalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar nafaqat til farqlaridan, balki madaniy, uslubiy va semantik tafovutlardan ham kelib chiqadi. Ko'plab terminlar ingliz tilida qisqa, aniqlashtirilgan va teatrga xos konnotatsiyalarga ega bo'lsa, o'zbek tilida bunday ifodalar ko'pincha umumiy, obrazli yoki izohli shaklda bo'ladi. Bu esa tarjimon va tadqiqotchilardan nafaqat lingvistik bilim, balki teatr amaliyoti va madaniy kontekstni chuqur tushunishni talab qiladi. Shunday ekan, teatr atamalarini o'zbek tiliga to'g'ri, mazmunan boy va estetik jihatdan mos tarjima qilish uchun, aytib o'tganimizdek, ikki tilli teatr terminologik lug'atlar, izohli manbalar va milliy teatr terminologiyasini boyitish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Macmillan. English Dictionary for Advanced Learners. – Oxford: Macmillan Publishers Limited, 2007. – 1692 p.
2. Yo'ldoshev A. O'zbek tilining leksik-semantik tizimi. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2018. – 280 b.
3. Madrimov Q. Aktyor sifatida timsol (obraz) yaratish. / Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi, 2025, (2), 441–447.
4. Usmanova Z. Ingliz tilining teatr leksikasi: strukturaviy tahlili. // Science-innovative research in Uzbekistan, 2024, 2(10), 122–127.

Salim DONIYOROV,

“Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri

UCHINCHI RENESSANS – BILIMGA, ILMGA OID HODISA

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Uchinchi Renessansni bunyod etish yo'lidagi dastlabki qadamlar, yangi davr boshlab bergan siyosiy jarayonlar, bu islohotlar yangi tafakkur makonini yaratish maqsadida amalga oshirilayotgani qalamga olingan. Hamkorlikdagi rivojlanishni taqozo etuvchi mazkur davr O'zbekistonni ilm, ma'rifat, adolat va zamonaviy taraqqiyot bilan bog'laydigan yangi bosqich vazifasini o'tayotgani tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yangi tafakkur, ta'lim, jamiyatning intellektual salohiyati, fuqarolik jamiyati, inson huquqlari va erkinligi, milliy o'zlik.

Annotation. The article describes the first steps towards building the Third Renaissance under the leadership of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev, the political processes that began a new era, and how these reforms are being implemented to create a new intellectual space. This period, which requires joint development, serves as a new stage connecting Uzbekistan with science, enlightenment, justice, and modern development.

Keywords: new thinking, education, intellectual potential of society, civil society, human rights and freedoms, national identity.

Аннотация. В статье описываются первые шаги к построению Третьего Ренессанса под руководством Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева, политические процессы, начавшие новую эпоху, и то, как эти реформы осуществляются для создания нового мыслительного пространства. Анализируется, что этот период, требующий совместного развития, служит новым этапом, связывающим Узбекистан с наукой, просвещением, справедливостью и современным развитием.

Ключевые слова: новое мышление, образование, интеллектуальный потенциал общества, гражданское общество, права и свободы человека, национальная идентичность.

O'zbekistonda Uchinchi Renessans davrini boshlab bergan siyosiy jarayonlar markazidan Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan strategiya joy olgan. Buni xalqaro hamjamiyat va nufuzli tadqiqotchilar ham faqat islohotlargina emas, balki butunlay yangi tafakkur makonini yaratish sari qo'yilgan dadil qadam sifatida baholadilar. Prezidentning davlat boshqaruvi va jamiyatni rivojlantirishga oid konseptual murojaatlari an'anaviy tus olib, yangi O'zbekistonning ruhiy va siyosiy poydevorini belgilab berdi. Hamkorlikdagi rivojlanishni taqozo etuvchi mazkur davr O'zbekistonni ma'rifat, adolat va zamonaviy taraqqiyot bilan bog'laydigan yangi bosqich vazifasini o'tamoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Uchinchi Renessans shunchaki ta'lim, ilm yoki madaniyatni rivojlantirish emas, balki mukammal davlat va jamiyat modelini shakllantirishga intilish hamdir [1]. Akademiklar va tahlilchilar bu jarayonni ilmiy asoslangan tarzda izohlashadi. Masalan, ta'lim va madaniyat sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar bevosita jamiyatning intellektual salohiyatini ko'tarishga qaratilgan. Buning natijasida mutaxassislarga emas, oddiy fuqarolar ham yangicha fikrlay boshladi. O'zbekistondagi yangi Renessans g'oyasi, sobiq tarixiy Renessanslar bilan taqqoslaganda o'ziga xos umuminsoniy mohiyatga ega. Misol uchun, Islom madaniyati tarixida buyuk allomalar – Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Forobiyalar asos solgan ilm-fan an'analari bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirish orqali qayta tiklanmoqda. Yangi O'zbekiston faqat iqtisodiy-siyosiy emas, ma'naviy taraqqiyotda ham yetakchi bo'lishni maqsad qilgani e'tirofqa molik.

“Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” g'oyasi asosida keng ko'lamlı islohotlarnı amalga oshirish belgilab berildi. Aniqrog'i, endilikda bola tug'ilganidan boshlab 30 yoshga qadar

bo'lgan davrda uni har tomondan qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan, yaxlit va uzluksiz tizim yaratiladi.

Ilm mash'alasi IX–XII asrlarda Markaziy Osiyo hududida porladi. Bu davrda yurtimiz hududida Birinchi Renessans yuzaga keldi va davr dunyo tan olgan mashhur daholarni yetishtirib berdi [2]. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy singari o'nlab buyuk allomalarning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariy taraqqiyot rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi. “Nur Sharqdan taraladi”, – degan edi nemis faylasufi Georg Hegel. Binobarin, Sharq Uyg'onish davri yutuqlari G'arbiy Yevropada yuz bergan alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri, xususan, XIV–XVI asrlardagi Italiya Renessansiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, tutash chegara mamlakatlari: Qurdoba (Ispaniya), Kavkaz, Bolqon yarim orolida bu jarayon kuchli bo'lgan. Yevropaliklar Sharq olimlarining asarlarini lotin, ispan, yahudiy tillariga qilingan tarjimalar orqali yoki bevosita arab tilida o'qib-organlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda 2030-yilga qadar Global innovatsiya indeksida ilg'or 50 mamlakat qatoridan joy egallash bo'yicha keng ko'lamlı ishlarnı amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart. “Fuqarolik jamiyati va shaxsning rolini oshirish – Uchinchi Renessansning markaziy masalasidir. Huquqiy islohotlar, Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarishlar, inson huquqlari va erkinligiga oid xalqaro standartlarga mos qonunlar qabul qilinishi bunga yorqin misoldir. Siyosiy faollikning oshishi va fuqarolarning qarorlar qabul qilishda ishtirok etishi, demokratik jamiyatning asosiy ko'rsatkichiga aylandi” [3]. Bu jarayonda

milliy o'zlik masalasi ham muhim o'rin tutadi. Milliy o'ziga xoslikni jamiyatning kuchli tarixiy va madaniy poydevori sifatida shakllantirish bilan birga, globallashuv sharoitida uni himoya qilish zarurati ham bor. Zamonaviy tahlilchilar fikricha, globallashuv kichik millatlarning madaniy va siyosiy identifikatsiyasiga tahdid solishi mumkin. Shuning uchun milliy o'zlikni zamonaviy shakllarda qayta ifoda etish jamiyatda barqarorlik va birlikni ta'minlaydi. Siyosatshunoslar ta'kidlashicha, davlatchilikning zamonaviy modelini shakllantirishda faqat huquqiy yondashuv yetarli emas, bunda ma'naviy, tarixiy va falsafiy asoslar ham inobatga olinishi kerak. Mustaqillik yillarida shakllangan milliy g'oyalar, jumladan, bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, ilm hamda ta'limga hurmat kabi qadriyatlar bugungi siyosiy tizimning asosiy elementlari qatoridan joy oldi. Shu bilan birga, O'zbekistonning tashqi siyosati yangi ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Mamlakat xalqaro maydonda nafaqat iqtisodiy hamkor sifatida, balki diplomatik faoliyatda ham faol ishtirokchiga aylandi. Turli yo'nalishlardagi xalqaro forumlar, mintaqaviy sheriklik tashabbuslari va transchegaraviy loyihalar mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlamoqda. Xususan, Afg'oniston bilan qo'shnihilik siyosatining faollashuvi mintaqaxavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy loyihalar, ayniqsa, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasidagi transformatsiyalar, Uchinchi Renessansning amaliy ko'rinishidir. Yangi maktablar va universitetlar, innovatsion o'quv dasturlari, raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim tizimi fuqarolar salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash sohasidagi islohotlar jamiyatning turmush sifatiga bevosita ta'sir qilmoqda. Umuman olganda, uchinchi Renessans – bu faqat tarixiy yoki nazariy tushuncha emas. Bu – jamiyatdagi har bir insonni faol ijtimoiy sub'yektga aylantirish, inson manfaatlariga bosh g'oya sifatida qarash g'oyasidir. Bugungi O'zbekiston – raqobatbardosh, intellektual va ijtimoiy faol jamiyat qurish yo'lida dadil ilgarilamoqda [4].

Renessans – bilimga, bilishga, madaniyatga oid hodisa. Ammo baribir jamiyat va davlatning bior vazifasi shaklida, ya'ni yangi sharoitlarda siyosiy harakatlar dasturini namoyish etish ko'rinishida boshlanishi kerak. Renessans yo'llarini namoyish qilish masalaning mohiyatiga o'tish mumkin bo'lgan siyosiy uyg'onish bilan boshlandi. Davlatimiz rahbarining Prezident sifatidagi birinchi uchrashuvi 2016-yil 30-dekabrda yurtimiz akademiklari bilan

bo'lib o'tgan. O'z navbatida, Prezidentimizning 2017-yil 29-dekabrda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolarini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, Fanlar akademiyasining 32 nafar yangi haqiqiy a'zosi tasdiqlandi. Yangi akademiklar safidan fizika-matematika, kimyo, biologiya, texnika, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya, huquqshunoslik, pedagogika, tibbiyot fanlari hamda san'atshunoslik sohalarida ko'zga ko'ringan olimlar o'rin oldi. E'tibor bering, bunga qadar O'zbekiston Fanlar akademiyasi haqiqiy a'zolariga oxirgi saylovlar 1995-yilda o'tkazilgandi. Oqibatda o'tgan davr mobaynida akademiklarimizning soni ikki barobardan ko'proqqa qisqarib, Fanlar akademiyasining atigi 63 nafar haqiqiy a'zosi qolgan edi, xolos.

Jadid bobolarimiz "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas" g'oyasini hayotiy e'tiqod deb bilgandilar. Milliy istiqolol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin deb hisobladilar. Davlatimiz rahbari ta'kidlagan, "Jamiyat hayotining joni va ruhi – ma'naviyat" degan fikr zamirida oq-qorani tanigan, davr sinovlaridan mardona o'tgan, ilmi hamda ma'rifatli yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, ularni hayot sinovlariga ma'nan hozirlashda faollik ko'rsatishga undash bor.

Milliy o'ziga xoslikni matbuotda aks ettirish – millatning sub'yektiv qiyofasidir. U global, tarixiy, ilmiy, falsafiy, madaniy va boshqa aniq tasvirlar orqali mujassam bo'ladi. Garchi bu qiyofa ko'p jihatdan tarixiy asosga ega bo'lsa-da, uni yaratuvchilar va zamondoshlari uchun u doimo zamonaviy ko'rinishga ega. Yangi O'zbekistonning siyosiy va ma'naviy tiklanishi uchinchi Renessans kontsepsiyasida o'z ifodasini topgan. Bu jarayonning asosida inson qadri, adolat va ma'rifat turadi. Mazkur kontsepsia nafaqat ichki siyosatda, balki tashqi aloqalarda ham yangi standartlarni shakllantirmoqda [5]. Har bir fuqaro, har bir mutaxassis va ijtimoiy guruh ushbu jarayonning ajralmas qismi sifatida o'z o'rnini topmoqda. Shu ma'noda, Uchinchi Renessans – kelajakka yo'naltirilgan millat taraqqiyotining strategik yo'nalishi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Renessans – xalq energiyasi, aql-idrok, mehnat va ijod erkinligi, inson, jamiyat va mamlakat manfaatlarini o'rtasidagi muvozanat. Yangi uyg'onish davri esa oxir-oqibat, davlat va jamiyat taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Saidov A.K. O'zbekistonda Renessans g'oyasi va uning milliy tiklanishdagi o'рни. // Jamiyat va boshqaruv, 2022, №2.
3. Chakrabarti S. Uzbekistan's Transformation Path: Reform, Renewal, Renaissance // European Bank for Reconstruction and Development Reports, 2021.
4. Xalikov M.S., Koretskiy V.A. Globalashuv va ijtimoiy jarayonlar tahlili. – Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2021.
5. Markaziy Osiyo xavfsizligi: dolzarb tahdidlar va hamkorlik istiqbollari. // Toshkent forumi materiallari, 2022.

Manzura TUYCHIEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti stajyor-o'qituvchisi

ZOONIM FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqola zoonim frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini har tomonlama yoritishga qaratilgan bo'lib, ularning tarkibiy-strukturaviy va mazmuniy xususiyatlari tilshunoslik va lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Zoonimlar, ya'ni hayvonot olamiga oid nomlar asosida shakllangan frazeologik birliklar xalqning tafakkur tarzi, psixologiyasi, madaniy qadriyatlari va milliy ongini aks ettiruvchi til vositalari sifatida katta semantik yuklamaga ega.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, zoonim, semantika, metafora, konnotatsiya, lingvokulturologiya.

Annotation. This article is devoted to a comprehensive analysis of the semantic features of zoonym-based phraseological units, examining their structural and semantic characteristics from linguistic and linguoculturological perspectives. Zoonyms, i.e., names related to the animal world, serve as important linguistic tools that reflect a nation's way of thinking, psychology, cultural values, and national identity. Phraseological units formed on the basis of animal names carry a significant semantic load and convey deep metaphorical and connotative meanings rooted in collective consciousness and traditional worldviews.

Keywords: phraseological unit, zoonym, semantics, metaphor, connotation, linguoculturology.

Аннотация. Данная статья посвящена всестороннему освещению семантических особенностей зоонимических фразеологических единиц. Рассматриваются их структурно-семантические характеристики с позиций лингвистики и лингвокультурологии. Зоонимы, то есть наименования животных, входящие в состав фразеологизмов, обладают высокой семантической нагрузкой как языковые единицы, отражающие мировоззрение народа, его психологию, культурные ценности и национальное сознание.

Ключевые слова: фразеологическая единица, зооним, семантика, метафора, коннотация, лингвокультурология.

Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, mentaliteti va madaniyati mujassamlangan ijtimoiy hodisadir. Til orqali jamiyatning ijtimoiy, madaniy, axloqiy va estetik qadriyatlari ifodalanadi, avloddan avlodga uzatiladi. Shu jihatdan qaralganda, frazeologik birliklar tilning boy obrazli qatlamini tashkil etadi va xalq tafakkurining yuksak darajadagi badiiy ifodasi hisoblanadi. Frazeologizmlar o'zining semantik rang-barangligi, ko'chma ma'no qatlamlari va emotsional baholovchanligi bilan tilning milliy ruhi va estetik salohiyatini aks ettiradi [1: 8].

Frazeologik birliklarning tarkibida ko'plab zoonimlar, ya'ni hayvonot olamiga oid nomlar alohida o'rin egallaydi. Hayvon nomlari asosida yuzaga kelgan frazeologik ifodalar inson hayoti, fe'l-atvori, psixologik holati va jamiyatdagi mavqeyini kinoyali, emotsional va ko'chma ma'noda ifodalash imkonini beradi. Zoonim frazeologizmlar inson va hayvon obrazlari o'rtasidagi xususiyatlarni ko'chirish asosida quriladi, bu esa metafora, metonimiya, simbolika kabi semantik mexanizmlar orqali yuzaga chiqadi. Tilshunoslikda zoonim frazeologik birliklar tadqiqi keng ko'lamlil semantik, stilistik, kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar asosida olib borilmoqda. Chunki bu birliklar nafaqat tilda mavjud bo'lgan hayvonot olami haqidagi tasavvurlarni, balki inson psixologiyasi va ijtimoiy stereotiplarni ham o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Masalan, tulkining obrazida ayyorlik, bo'riining obrazida yovuzlik, qo'y obrazida itoatkorlik yoki yuvoshlik timsoli xalq tafakkurida mustahkam o'rinishgan [2: 15]. Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi kunda frazeologik birliklarni lingvokulturologik va kognitiv yondashuvlar asosida o'rganishga ehtiyoj kuchaymoqda. Xususan, zoonim frazeologizmlarning semantik xususiyatlarini chuqur o'rganish nafaqat ularning tildagi estetik va obrazlilik rolini

aniqlash, balki milliy va umuminsodiy tafakkurdagi o'rnini ham ko'rsatish imkonini beradi.

Zoonim frazeologizmlarning umumiy tavsifi. **Zoonim** – hayvonlarga oid nomlar bo'lib, ular frazeologik birliklar tarkibida ko'pincha ko'chma ma'noda ishlatiladi. Masalan: **Qorako'zdek boqmoq** – mehr bilan boqmoq; **Bo'riga yet bo'lmasa, qo'yga mushtoqlik qiladi** – kuchsizlar kuchsizlarga tajovuz qiladi.

Zoonimlar odatda quyidagi vazifalarni bajaradi:

- metaforik obraz yaratish;
- inson xatti-harakatlarini baholash;
- tanqidiy va kinoyaviy ma'no yuklash.

Zoonim frazeologizmlarning semantik tahlili. Zoonim asosli frazeologik birliklar **inson va hayvonlar o'rtasidagi analogiyaga asoslanadi**. Bu birliklar ko'pincha antropomorfik semantikani ifodalaydi [3: 22].

Ijoiy semantika. Ba'zi zoonim frazeologizmlar **ijoiy baho** bildiradi: *sher yurakli* – jasur; *qarg'aday sergak* – hushyor; *otdek xizmat qilmoq* – sadoqatli xizmat.

Salbiy semantika. Ko'pchilik zoonim frazeologizmlar **salbiy konnotatsiyaga** ega bo'lib, insondagi illatlarni fosh qiladi: *itdek yaltoqlanmoq* – or-nomusni yo'qotganicha iltijo qilish; *tulki kabi ayyor* – hiylakor; *eshakcha tirishmoq* – aqlsiz holda mehnat qilish; *bo'riday o'lja talashmoq* – ochko'zlik bilan talashish.

Neytral va kontekstdan kelib chiqadigan ma'nolar. Ba'zi zoonim frazeologizmlar **kontekstdan** kelib chiqib baholanadi: *qo'yday yuvosh* – ba'zida ijobiy (sabrli), ba'zida esa salbiy (passiv, irodasiz) ma'no beradi.

Zoonim frazeologizmlarning metaforik xususiyatlari. Zoonimlar frazeologizmlar tarkibida ko'pincha **metafora** sifatida ishlatiladi [4: 18]. Bu metafora asosida odatda quyidagi belgilar yotadi:

• **Xarakterga oid belgilar:** *tulki* – ayyorlik, *it* – sodiqlik yoki yaltoqlik, *eshak* – tirishqoqlik yoki ahmoqlik.

• **Jismoniy holat:** *kabutar yurak* – qo'rqoq;

• **Ijtimoiy rol:** *bo'ri to'dasi* – tajovuzkorlar guruhi.

Metafora asosida inson hayvonlarga qiyoslab, ularning muayyan sifatlarini umumlashtirish orqali obrazlar yaratiladi.

Zoonim frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari. Zoonim frazeologizmlar **milliy madaniyat va xalqona dunyoqarashni** aks ettiradi. Har bir til va

xalq hayvonlar haqida o'ziga xos tasavvurga ega. **O'zbek tilida** *tulki* – hiylakor, *bo'ri* – yovuz, *it* – sodiq yoki yaltoq. **Rus tilida** ham shunga o'xshash holatlar kuzatiladi: *лисий взгляд* (ayyor nigoh), *волчья хватка* (talonchi xarakter).

Demak, zoonim frazeologizmlar **universal**, ammo **milliy xususiyatga ega** bo'lgan semantik birliklardir.

Qiyosiy aspekt. Turli tillarda zoonim frazeologizmlar **mazmuniy o'xshashlik va farqlarga** ega:

O'zbek tili	Rus tili	Ingliz tili
Tulki kabi ayyor	Хитрый как лиса	As sly as a fox
Itdek xizmat qilmoq	Служить как собака	Work like a dog
Qo'yday yuvosh	Тихий как овца	As meek as a lamb

Bu misollar zoonim asosli frazeologizmlarning **kross-madaniy universallik va milliy o'ziga xoslik** darajasini ko'rsatadi.

Zoonim frazeologizmlar o'z semantik xususiyatiga ko'ra ijobiy baholovchi, salbiy baholovchi, neytral va kontekstdan kelib chiqadigan ma'nolar kabi guruhlariga bo'linadi. Jumladan, *sher yurakli*, *otdek sadoqatli* kabi ifodalar ijobiy bahoni bildirsa, *tulki kabi hiylakor*, *itdek yaltoqlanmoq*, *eshakcha ishlamoq* kabi birliklar salbiy konnotatsiyani o'z ichiga oladi. Bu holatlar xalq tafakkuridagi hayvon obrazlari bilan bog'liq bo'lib, ularning tarixiy-madaniy asoslari mavjud [5: 32]. Zoonim frazeologizmlarning asosiy semantik o'ziga xosligi shundaki, ular hayvonlarning xususiyatini insoniy holatlarga ko'chirish orqali kuchli metaforik ta'sir uyg'otadi. Bunday frazeologizmlar orqali inson xarakterining eng murakkab, nozik jihatlari tasvirlanadi, ularga axloqiy

baho beriladi, ijtimoiy munosabatlarga estetik yondashuv ifodalanadi. Ular inson psixologiyasi va ijtimoiy muhit haqida rang-barang semantik tafsirlar yaratadi. Zoonim frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari ham alohida e'tiborga loyiq. Turli xalqlar tilida bir xil hayvon nomlari o'xshash yoki farqli konnotatsiyalar kasb etadi. Masalan, o'zbek, rus va ingliz tillarida *tulki hiylakorlik* ramzi sifatida ishlatilsa-da, ularning semantik og'irligi va stilistik yuklamasi farqlanadi. Bu esa til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi.

Shunday qilib, zoonim asosli frazeologik birliklar milliy tilning estetik boyligini, semantik ko'lami va madaniy kodini chuqur anglashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ularning tahlili orqali tilning obrazlilik salohiyati va xalq tafakkurining metaforik tafsiri yanada chuqurroq ochib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobojonova Z.Sh. O'zbek tilida frazeologik birliklar. – Toshkent: Fan, 2005.
2. Кубрякова Е.С. Язык и знание. Москва: Языки славянской культуры, 2004.
3. Ahmedova M. Frazeologiya va uning madaniy jihatlari. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2018.
4. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. – Москва: Наука, 1977.
5. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

Gulhayo PO'LATOVA,

Namangan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

O'ZBEK TILIDAGI SIFAT KOMPONENTLI IBORALAR SEMANTIKASI VA TEZAVURSI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida sifati komponentli iboralarning semantik xususiyatlari va ularni tezaurus modeli asosida tahlil qilish masalasi yoritilgan. Tadqiqotda ingliz, rus, turk tillarida yaratilgan WordNet tipidagi lug'at modellariga tayangan holda, o'zbek tilidagi frazeologik iboralarning tezaurus tuzilmasini yaratish bo'yicha metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Bunday yondashuv o'zbek tilshunosligida sifati komponentli iboralarning semantik maydonini chuqur o'rganishga xizmat qilib, tezaurus tuzish tajribasini boyitadi.

Kalit so'zlar: sifati komponentli iboralar, frazeologik birliklar, tezaurus, semantik maydon, sinonim, antonim, WordNet tipidagi lug'atlar.

Annotation. This article explores the semantic features of adjective-based expressions in Uzbek linguistics and analyzes them within a thesaurus model. Drawing on WordNet-type lexical models developed in English, Russian, and Turkish, the study proposes a methodological approach to constructing a thesaurus structure for phraseological expressions in the Uzbek language. This approach aims to deepen the understanding of the semantic field of adjective-based expressions in Uzbek and contribute to thesaurus-building practices in modern lexicography.

Keywords: adjective-based expressions, phraseological units, thesaurus, semantic field, synonym, antonym, WordNet-type lexicons.

Аннотация. В данной статье рассматриваются семантические особенности фразеологических единиц с компонентом прилагательного в узбекской лингвистике и анализируются возможности их представления в виде тезауруса. На основе моделей словарей типа WordNet, созданных для английского, русского и турецкого языков, разработаны методические подходы к построению тезаурусной структуры для фразеологических единиц узбекского языка. Такой подход способствует углубленному изучению семантического поля фразеологических выражений с прилагательным компонентом и обогащает опыт построения тезаурусов в узбекской лексикографии.

Ключевые слова: фразеологизмы с прилагательным компонентом, фразеологические единицы, тезаурус, семантическое поле, синоним, антоним, словари типа WordNet.

Bugungi globallashuv davrida til boyligini chuqur o'rganish, ayniqsa, sifat so'z turkumi doirasidagi birliklarning semantik imkoniyatlarini aniqlash va ularni tizimli tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Sifat komponentli iboralar, ya'ni tarkibida sifat ishtirok etgan frazemalar va barqaror birikmalar tilning bevosita ifoda qudratini belgilaydi. Ularning semantik xususiyatlari, konnotatsiyaviy qatlamlari va tezaurus tizimida shakllanishi hozirgacha yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Ayniqsa, izohli lug'atlarda ba'zi sifatlariga berilgan qisqa ta'riflar ularning mazmun-mohiyatini to'liq ochib bermasligi sifat komponentli iboralarni chuqur semantik tahlil qilishni va ularni tezaurus doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Bugungi kunda o'zbek tilidagi sifat komponentli iboralarning semantik xususiyatlarini aniqlash, ularning leksik-semantik tarmoqlanishini o'rganish hamda ushbu birliklar asosida zamonaviy tezaurus modelini yaratish leksikograf va tilshunoslarning oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shu bois, mavjud metodologik yondashuvlarga tayangan holda ingliz, rus, turk tillarida yaratilgan iboralar tezaurus modelini o'zbek tili xususiyatlaridan kelib chiqib yaratish tadqiqotimizning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Sifat so'z turkumi o'zbek tilining asosiy leksik qatlamlaridan biri bo'lib, predmet va hodisalarning belgi, holat, xossa, rang-tus, makon-zamonini ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi. Sifatlar tilimizda predmetga xos tashqi va ichki belgilarning nomlanishini ta'minlab, tasviriylik, aniqlik hamda emotsional-ekspressivlikni kuchaytiradi. Shu jihatdan ular badiiy matn, og'zaki nutq va rasmiy uslubda keng qo'llanadi. Xususan, sifat so'z turkumiga oid birliklar asosida yuzaga kelgan frazeologik iboralar tilning emotsional, stilistik va semantik boyligining yorqin namunasidir. Ushbu birliklar obrazli fikrlash, emotsional baholash va kommunikativ ta'sirchanlikni kuchaytirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Sifat komponentli iboralar yordamida nutqqa ifoda yuksakligi, ohangdorlik, obrazlilik va ko'p qatlamli ma'no yuklanadi. Masalan, *yumshoq ko'ngil, qattiq qo'l, ichi qora, ochiq ko'ngil, shirin so'z* kabi iboralar yangi, ko'chma va kontekstual ma'nolarda qo'llanib, tilning tasviriy imkoniyatlarini kengaytiradi. Shunday ekan, sifat komponentli frazeologik birliklarni tizimli o'rganish nafaqat

leksik-semantik, balki lingvokulturologik jihatdan ham muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Frazeologik birliklar tildagi barqaror va ko'p komponentli iboralar bo'lib, xalqning dunyoqarashi, milliy tafakkuri, madaniy qadriyatlarini o'zida aks ettiradi. Ushbu birliklarning tuzilishi, semantik xususiyatlari va funksional imkoniyatlari uzoq yillardan buyon ko'plab tilshunoslar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, ingliz tilshunosligida T.Ernst, Martin D.S.Braine, Laporan Penelitian Dosen Mandiri va boshqalarning tadqiqotlarida iboralarning sintaktik joylashuvi, strukturaviy chegaralari va funksional yuklamasi keng tahlil qilingan. Rus tilshunosligida esa M.Dyakonova iboralarning grammatik va semantik jihatlarini tahlil qilgan, frazeologik birliklarning tuzilmasi hamda ularning sintaktik pozitsiyalardagi roli xususida batafsil ma'lumot bergan [1].

O'zbek tilshunosligida ham frazeologik birliklar atroflicha o'rganilgan. Xususan, Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining frazeologik lug'ati" ushbu sohadagi yirik lug'atlardan biri hisoblanadi. Olim 5000dan ortiq frazeologik birliklarni yig'ib, ularning sinonim va antonimlarini keltirib o'tadi. Shuningdek, A.Mamatov, B.Yo'ldoshev kabi tilshunosla tilimizdagi frazemalarni semantik-struktur, stilistik jihatdan tadqiq etgan bo'lsa, X.Abdurahmonov o'zbek tilidagi so'zlarning estetik ifoda kuchi, emotsional, obrazli va stilistik jihatlarini chuqur tahlil qiladi [2]. R.Qo'ng'urovning tadqiqotida esa tasviriylik hosil qiluvchi leksik vositalar: sifatlar, o'xshatishlar, rang ifodalari va boshqa ekspressiv birliklarning lug'aviy, grammatik hamda stilistik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Muallif ularning xalq og'zaki ijodi va badiiy adabiyotda qo'llanishi orqali tasviriy kuchini ochib beradi [3]. Ushbu tadqiqot o'zbek tilining obrazlilik imkoniyatlarini aniqlashda, xususan, sifat komponentli iboralarni tahlil qilishda muhim metodik va nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbek va ingliz tillaridagi sifat komponentli iboralarning lingvokulturologik-qiyosiy aspektida tahlil qilgan M.I.Xolmatova tadqiqotida ingliz tilida o'zbek tiliga nisbatan sifat komponentli iboralar (SKI) son jihatidan ko'proqligini qayd etadi [4]. U ushbu iboralarni ingliz tili grammatik tuzilishiga ko'ra 5 guruhga ajratishni taklif etadi:

1. Oddiy darajali SKI
2. Qiyosiy darajali SKI
3. Orttirma darajali SKI
4. Teng qiyoslangan SKI
5. Va bog'lovchisi bilan bog'langan SKI

Bizning fikrimizcha, bu tasnifning umumiy xususiyatga ega emasligi, ayniqsa, o'zbek tilining morfologik va sintaktik xususiyatlari to'liq hisobga olinmagani bois, ayrim nuqtayi nazarlardan qayta ko'rib chiqish talab qilinadi.

Birinchidan, o'zbek tilidagi frazeologik birliklar, xususan, sifat komponentli iboralar ko'pincha kontekstga bog'liq holda shakllanadi va grammatik darajalash vositalariga qaraganda mustaqil, semantik kuchga ega bo'ladi. Masalan, *oq ko'ngil, qalin terili, ochiq yuzli* kabi iboralarda darajalashning grammatik ifodasi emas, balki obrazlilik va semantik ekvivalentlik ustuvorlik qiladi. **Ikkinchi**dan, o'zbek tilidagi SKIning ko'plab namunalarida morfologik darajalash vositalarining yo'qligi ularni yuqorida keltirilgan "oddiy", "qiyosiy", "orttirma" kabi kategoriyalarga qat'iy ajratishni qiyinlashtiradi. Chunki bu iboralar sifat so'zining konnotativ-mazmuniy yuklamasiga asoslanadi.

Uchinchidan, "teng qiyoslangan" yoki "va bog'lovchisi bilan bog'langan" SKIning turlari ba'zan ibora sifatida emas, balki stilistik vosita sifatida matnga qo'shiladi. Masalan, *katta va qudratli, tez va chaqqon* iboralari muayyan sintaktik kontekstda hosil bo'lib, doimiy frazeologik birliklar sifatida emas, balki stilistik juftliklar shaklida namoyon bo'ladi. Shu jihatlarni inobatga olsak, Xolmatova aklif etgan tasnif ingliz tili strukturasi uchun qulay va samarali bo'lishi mumkin, biroq o'zbek tilidagi SKIn to'laqonli tahlil qilish uchun yetarli emas. Aksincha, o'zbek tilidagi sifat komponentli iboralarni **semantik funksiyasi** (*tasviriylilik, baholovchi, ekspressivlik*), **kontekstual qo'llanish chastotasi**, **milliy-madaniy asoslari** kabi mezonlar asosida tasniflash

maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunday yondashuv frazeologik birliklarning lingvokulturologik va stilistik ahamiyatini chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

Sifat komponentli iboralarning tezaurusini tuzish, avvalo, ularni sinonimiya, antonimiya va metaforik munosabatlar orqali semantik maydonlarda to'plab, ular orasidagi mantiqiy aloqalarni aniqlashga xizmat qiladi. Ikkinchidan, bu kabi tezauruslar tilning zamonaviy axborot tizimlariga (masalan, NLP, avtomatik tarjima, matnni avtomatik tahlil qilish) tatbiq etilishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Chunki bu iboralar ko'pincha kontekstga bog'liq, ko'chma ma'noli va baholovchi xususiyatga ega bo'lib, oddiy so'z shakllaridan farqli tahlilni talab qiladi. Uchinchidan, bu jarayon o'zbek tilidagi semantik boylikni hujjatlashtirish va tasniflash orqali til resurslarini kengaytiradi, ayniqsa milliy tezaurus yaratishda zamonaviy leksikografiyaning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanadi. Shunday qilib, sifat komponentli iboralarni alohida tezaurus ko'rinishida tuzish nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy va texnologik nuqtayi nazardan ham dolzarb va istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Sh.Rahmatullayev tuzgan "O'zbek tilining iboralar izohli lug'ati" o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning boy xazinasini jamlagan muhim leksikografik manbadir. Mazkur lug'atda keltirilgan iboralar orasida sifat komponentiga ega bo'lgan frazeologizmlar alohida e'tiborga loyiq. Ular odatda insonning fe'l-atvori, holati, tashqi ko'rinishi yoki ichki kechinmalarini ifodalovchi obrazli birliklar bo'lib, tildagi tasviriylilik, emotsionallik va baholovchanlikning eng yorqin ko'rinishidir. Yuqorida aytib o'tilganidek, mazkur lug'atda 5000 dan ortiq frazeologik birliklar jamlangan bo'lib, ular tahliliy izohlari bilan boyitilgan. Tadqiqot doirasida **sifat komponentiga ega bo'lgan yuzdan ortiq ibora ajratildi** (1-rasm).

T/r	Sifat komponentli iboralar	Izohi	Sinonimi yoki variantdoshi
1	A'zoyi badan(i) dan sovuq ter chiqib ketdi	Ruhiyatida juda keskin o'zgarish sodir bo'ldi – ruhiyatini juda keskin o'zgartirdi.	A'zoyi badan(i)dan ter chiqib ketdi; Badan(i)dan ter chiqib ketdi; Peshana(si) dan sovuq ter chiqdi; Ter chiqib ketdi.
2	Ahvoli tang	juda qiyin ahvolda qolmoq	Ahvol(i)ga maymunlar yig'laydi
3	Ali ovuchi tor	moddiy imkoniyati cheklangan, kambag'al	Qo'li yupqa, Qo'li yuqa
4	Alin qisqa qilmoq	nafsni tiyib, dunyo ne'matlaridan voz kechmoq	
5	Aqli butun	aqli, miyali, esli	
6	Aqli raso	chuqur fikr yuritadigan, chuqur bilimli	Miyasi to'la
7	Aravani quruq olib qochmoq	uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada maqtanmoq	aravani olib qochmoq; quruq aravani olib qochmoq
8	Arpa(si)ni xom o'rmoq	Nima yomonlik qildi?!	

9	Arqonni uzun tashlab qo'ymoq	biror ishning rivojlanishiga aralashmay, ma'lum bir muddat o'z holiga qo'yib bermoq	arg'amchini uzun tashlab qo'ymoq; ipini uzun tashlab qo'ymoq
10	Arg'amchini uzun tashlab qo'ymoq	arqonni uzun tashlab qo'ymoq	
11	Asabi buzuc	asabiy	
12	Avzo[y](i) buzuc	Vajohati yomon, Vomonlik kutish mumkin	Chehra(si) buzuc
13	Aybni mayib topadi	o'z aybini sezmaslik	
14	Aytmoqqa oson	Bajarish qiyin; Aytish boshqa-yu, amalga oshirish boshqa	Aytishga oson
15	Achi so'zli	so'zi orqali atrofdagilarga ozor beruvchi	
16	Achchiq qilmoq	zarda qilmoq, xafa qilmoq	
17	Achchiq o'yin shirin turmushni buzadi	Qo'pol hazil qilmaslik kerak	
18	Baland kelmoq	kuchli bo'lib chiqmoq	zo'r kelmoq, ustun kelmoq, g'olib kelmoq
19	Baland dorga osilmoq	Mavqeyi o'zidan ancha yuqori oilaga quda bo'lish (qiz tanlash, yigit tanlash) niyatini bildirmoq	
20	Baland oxurdan yem yeb o'rgangan	hashamatli, to'kin-sochin hayot kechirib, o'zini katta tutib, katta gapiradigan	katta oxurdan yem yeb o'rgangan, baland oxurdan suv ichgan
21	Balo odam	juda chaqqon, epchil, usta, abjir	
22	Baxt(i) qora	hayoti xorlik-zorlik bilan, azobda o'tadigan	baxt(i) qaro; baxt(i) qoraligi
23	Baxt(i) qora bo'ldi	hayoti xorlik-zorlikda, azobda o'tadigan bo'lmoq	baxt(i)ni qora qilmoq
24	Bag'r(i) butun	bolalari, eng yaqin tug'ishganlari bir joyga to'plangan, birga yashaydigan	
25	Bag'r(i) keng	mehr-iltifoti ortiq darajada; hamma panoh topib ketadigan	Bag'r(i) tor
26	Bag'ri qattiq	tosh mehr	
27	Bag'r(i) tor	iltifoti yetarli emas; hammaga ham panoh topilavermaydigan	
28	Bag'ri tosh	bemehr, iltifoti yo'q	Bag'ri qattiq; tosh bag'ir
29	Beti qalin	uncha-muncha gap ta'sir qilmaydigan, so'z o'tmaydigan	
30	Bel(i) baquvvat	badavlat, nufuzli yoki shunday orqa qiladigani bor	
31	Bekorchi xo'ja	hech yerda ishlamaydigan odam	
32	Beandaza gap	o'rinsiz, tuturiqsiz, qo'pol, soxta, bichimsiz	
33	Beqaror bo'lmoq	toqatsizlanmoq	
34	Bet(i) qattiq	gapso'z, tanbeh ta'sir qilmaydigan, surbet	Yuzi qattiq

35	Bet(i)ni qattiq qilib	uyat-andishani pisand qilmagan holda	betini qotirib; yuzini qotirib
36	Bevafo dunyo	qadrlay olmaydigan, qadringizga yetmaydigan	
37	Bir parda baland olib yubormoq	sal ortiqcha yubormoq, sal qattiqroq gapirmoq	
38	Bozor(i) chaqqon	talabgori ko'p	
39	Bosh(i) kal bo'lsa ham, ko'ngli(i) nozik	Arzimagan narsadan xafa bo'lib qoladigan, jirtaki odamga qarata aytiladigan ibora	
40	Bosh(i) ochiq	erga tegmagan yoki erdan ajralgan, eri yo'q	
41	Bosh(i) qorong'i	homiladorlikning dastlabki oylarida nimanidir ko'ngli tusash holati	bosh qorong'i
42	Boshi berk	noaniq, tumanli, oxiri ko'rinmagan	
43	Boshi berk ko'cha	mushkul ahvol	
44	Butun boshli	kap-katta	
45	Bo'yni yo'g'on	baquvvat, kuchga to'lgan, zo'ravon	
46	Bo'g'ozini keng	ishtahasi yaxshi, ko'p taom iste'mol qiluvchi	
47	Darajasi baland	yuqori martabali; harorati yuqori; mast	
48	Dardi baland	og'ir kasal, og'ir ahvolga tushib qolish	
49	Dardi bedavo	epaqaga kelmaydigan, qutulish qiyin, daxmaza	
50	Dardi zo'r	og'ir kasal, og'ir ahvolda qolmoq	Dardi qattiq
51	Daryoga ho'l olib borib, quruq qaytarib kelmoq	daryoga oborib sug'ormay kelmoq	daryoning labiga olib borib, quruq qaytarib kelmoq
52	Did(i) baland	go'zallikni, nafislikni his etishi o'ta rivojlangan	
53	Dimog'(i) chog'	kayfiyati yaxshi	dimog'lar chog', kayf(i) chog' vaqt(i) chog', ko'ngil chog'
54	Dimog'(i) baland	kibr-havoli, kekkaygan, kalondimog'	
55	Diyda(si) qattiq	berahm, bemehr; ko'ziga yosh kelmaydigan	
56	Diydasi bo'sh	ko'ngli bo'sh, rahmdil, yig'loqi	
57	Diydasi qattiq	ko'ngli qattiq, berahm; ko'ziga yosh kelmaydigan	
58	Diydor(i)ga zor bo'lmoq	o'ziga yaqin, sog'ingan insonini ko'rishga mushtaq bo'lmoq	
59	Dunyo ko'z(i)ga tor	chidab bo'lmaydigan darajada diltang	ko'z(i)ga dunyo tor, ko'z(i)ga olam tor
60	Dunyodan ko'z(i) ochiq ketmoq	qanoat hosil qilmay, rozi bo'lmay o'lmoq	ko'z(i) ochiq ketmoq

61	Dunyodan toq o'tmoq	umrini turmush qurmay o'tkazmoq	toq o'tmoq
62	Dunyoning achchiq-chuchugini totgan	hayotida turli-tuman hodisalarga duch kelib, ijobiy-salbiy narsalarni ko'rib tajriba orttirgan	turmushning achchiq-chuchugini totgan
63	Do'ppi tor	imkoniyatlar juda cheklanib qolgan	
64	Do'ppi tor keldi	iloj-imkonsiz og'ir ahvolga tushmoq	do'ppi(si) tor keldi; tor kelib qolganda
65	Egri qo'llik qilmoq	mayda o'g'irlik qilmoq	
66	Egri yo'l	g'ayri qonuniy, g'ayri axloqiy xatti-harakat, chora-tadbir	
67	Egri oyoq	xotinlarga hirs bilan muomala qiladigan, shahvoniy tuyg'usiga erk beradigan	
68	Eldan burun	vaqtdan oldin, barvaqt	
69	Erkin nafas olmoq	hech qanday bosim yoki to'siqlarsiz yashamoq, yengillik yoki erkinlikni his qilish	
70	Esi past	fikrlash qobiliyati normal emas, tentak, ovsar	
71	Es(i) butun	anglash-bilish qobiliyati benuqson, to'g'ri fikrlaydigan	Es-hush(i) butun
72	Eski hammom, eski tos	hech qanday o'zgarishsiz; ilgari qanday bo'lsa, hozir ham shunday	boyagi-boyagi, boy xo'janing tayog'i

1-rasm. Sifat komponentli iboralarning leksikografik manbalar bo'yicha tahlili

Yuqorida tanlangan birliklar **semantik xususiyatlari, konnotativ yuki va strukturaviy tarkibiga ko'ra modellashtirilib**, ularning asosida **sifat komponentli iboralar tezaurusining** konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu jarayonda "RussNet", "DanNet", "BulWordNet" kabi WordNet tipidagi lug'atlar tarkibida iboralarning joylashtirish modellaridan foydalanildi. Quyida sifat komponentli iboralar tezaurusi tuzilishini tahlil qilamiz:

"Esi past" iborasining tezaurus tuzilishi

Izohi: fikrlash qobiliyati normal emas, tentak, ovsar.

So'z turkumi: sifat (frazeologik birikma).

Tuzilishi: es – predmet.

past – shakl, hajm.

ma'no ko'chishi – metafora – tentak.

Sinonim: tentak, ovsar, ahmoq, zaif.

Antonim: aqlli, teran fikrlaydigan, yetuk, esi butun.

Namuna: Esing pastmi nima balo? (og'zaki)

Esi past iborasi o'zbek tilidagi sifatli frazeologizmlardan biri bo'lib, aql-idrokning yetishmasligini, ya'ni tentaklik yoki fikrlash zaifligini bildiradi. Bu ibora metaforik yo'l bilan shakllangan bo'lib, "es" – aql, idrok; "past" esa kamlik, sustlik ma'nosida qo'llanadi. Ushbu iboradan obrazli tarzda fikr yurita olmaydigan, ovsar yoki zaif insonni tasvirlashda foydalaniladi. Sinonim sifatida *tentak, ovsar, ahmoq* kabilar ishlatiladi, antonimlari esa *aqlli, esi butun* kabi sifatlardir. Mazkur ibora og'zaki nutqda hissiy ohangda qo'llaniladi.

"Bag'ri tor" iborasining tezaurus tuzilishi

Izohi: 1. Iltifoti yetarli emas. 2. Hammaga ham panoh topilavermaydigan.

So'z turkumi: sifat (frazeologik birikma).

Tuzilishi: bag'ir – predmet.

tor – shakl, hajm.

ma'no ko'chishi – metafora.

Sinonim: xasis, injiq, qizg'onchiq, berahm, murosasiz, kibrli.

Antonim: saxiy, olijanob, mehribon, ochiqko'ngil.

Namuna: Qonxo'r daryo, Sirdaryo.

Buncha bag'ring tor daryo. (*Qo'shiqdan*)

Bag'ri tor o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning semantik maydoniga mansub bo'lib, emotsional va hissiy baholash kuchi yuqori bo'lgan sifat komponentli iboradir. Tezaurus nuqtayi nazaridan qaralganda, bu ibora "insonning ijtimoiy xatti-harakatlari va psixologik qiyofasini ifodalovchi salbiy xarakter xususiyatlari" semantik guruhiga kiradi. Uning sinonim maydonida *xasis, qizg'onchiq, injiq, baxil, ziqna* kabi sifatlar joylashadi. Bu birliklarning barchasi *bag'ri tor* iborasining asosiy semasiga yaqin bo'lib, semantik yadrosida "boshqalar bilan bo'lishmaslik", "ichki torlik" kabi ma'nolar mavjud. Antonimlarida *bag'rikeng, ko'ngli ochiq, saxiy, o'zgalarga mehribon* kabi ijobiy qiymatga ega sifatlar bilan qarama-qarshi munosabatda bo'ladi.

Ushbu antonimik juftliklar orqali tezaurus strukturasida semantik ziddiyatlar aniqlanadi, bu esa frazeologik birliklarning insoniy qadriyatlar tizimidagi o'rnini yanada aniqroq ko'rsatadi. Shunday qilib, iboralarni tezaurus asosida tadqiq qilish va tuzish nafaqat lingvistik tizimdagi semantik strukturalarni aniqlash, balki tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), avtomatik tarjima, leksik resurslar yaratish kabi amaliy sohalar uchun ham zaruriy poydevor sanaladi. Bu esa, o'z navbatida, milliy til resurslarini raqamli makonga samarali olib kirishning muhim bosqichidir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o'zbek tilida sifat komponentli iboralar til boyligi, emotsional ekspressivlik va obrazlilikni ifodalovchi birlik sifatida ajralib turadi. Ular nafaqat kishilarning xulq-atvori, ruhiy holati yoki ijtimoiy munosabatlarini ifodalovchi vosita bo'lib xizmat qiladi, balki milliy tafakkur va madaniy qadriyatlarning aksidir. Ushbu iboralarning tezaurusini yaratish esa ularni tizimli ravishda tartibga solish, semantik munosabatlarini (sinonimiya, antonimiya, metafora) aniqlash va ularni zamonaviy leksikografiya hamda kompyuter lingvistikasi doirasida qo'llash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dyakonova M. A phase-based approach to Russian free word order. Thesis, fully internal, Universiteit van Amsterdam, 2009.
2. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981.
3. Qong'urov R. O'zbek tilida tasviriy so'zlar. – Toshkent: Fan, 1966.
4. Xomatova M.I. Ingliz va o'zbek tillaridagi sifat komponentli iboralarning lingvokulturologik qiyosiy tahlili. // Academic research in educational science, 2022, №3(5). – B. 1007–1014.

O'g'iloy SOXIBOVA,

Toshkent davlat texnika universiteti amaliy ingliz tili kafedrasida katta o'qituvchisi

TARIXIY ROMANLAR VA NEOROMANTIZMNING ALOQASI

Annotatsiya. Maqolada tarixiy romanlar va neoromantizm o'rtasidagi estetik, psixologik va gumanistik aloqalar tahlil qilinadi. Shotland yozuvchisi, shoir Robert Louis Stevenson romanlari asosida tarixiylik va shaxsiy iztirob orasidagi badiiy uyg'unlik ochib beriladi.

Kalit so'zlar: tarixiy roman, neoromantizm, estetik konsepsiya, psixologik tafakkur, gumanizm, Robert Louis Stevenson, tarixiy xotira.

Annotation. The article analyzes the aesthetic, psychological, and humanistic connections between historical novels and neo-romanticism. Based on the novels of the Scottish writer and poet Robert Louis Stevenson, the artistic harmony between historicism and personal suffering is revealed.

Keywords: historical novel, neoromanticism, aesthetic concept, psychological thinking, humanism, Robert Louis Stevenson, historical memory.

Аннотация. В статье анализируются эстетические, психологические и гуманистические связи между историческими романами и неоромантизмом. На основе романов шотландского писателя и поэта Роберта Луиса Стивенсона раскрывается художественная гармония между историзмом и личными страданиями.

Ключевые слова: исторический роман, неоромантизм, эстетическая концепция, психологическое мышление, гуманизм, Роберт Луис Стивенсон, историческая память.

Tarixiy roman janri badiiy tafakkur evolutsiyasining murakkab va ko'p qatlamli ifodasi sifatida qaraladi. Ushbu janr shakllanishidan boshlab adabiy-estetik tafakkurning ichki paradigmasi, tarixiy xotira va milliy o'zlikni ifodalashning samarali vositasi sifatida shakllandi. Xususan, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida shotland yozuvchisi Valter Skott asos solgan tarixiy roman konsepsiyasi adabiy tafakkurda tub burilish yasadi. Uning tarixiy romanlarga yondashuvi an'anaviy xronikal tafakkurdan farqli o'laroq, tarixiy voqealarni realizmga xos ijtimoiy-kollektiv ong mahsuli sifatida talqin qilish bilan ajralib turdi. Bu yondashuv badiiy matnda tarixning aks etish shakllarini insoniyat taraqqiyoti, ijtimoiy ong va estetik ideal mezonlari orqali qayta qurishga xizmat qildi. Tarixiy romanlar zamonaviy adabiy jarayonda o'z mohiyatini saqlab qolgan holda realizm, modernizm, ekzistensializm kabi badiiy-estetik oqimlar bilan sintetik integratsiyaga kirib bordi. XIX

asrning ikkinchi yarmida romantizm va realizm o'rtasidagi dialektik ziddiyatlar kontekstida neoromantizm oqimi shakllandi. Ushbu oqim tarixiy romanni g'oyaviy-metodik va badiiy-estetik jihatdan yangilanish sari yo'naltirdi. Neoromantik tarixiy romanlarda klassik romantikaga xos sadoqat, qalb iztirobi, axloqiy tanlov yangicha psixologik yondashuv, ichki refleksiya va individual dunyoqarash bilan boyitildi. Bu jarayonda insonparvarlik prinsiplarining ustuvorlik kasb etgani, tarixiy jarayonlarga nafaqat ijtimoiy yoki siyosiy, balki antropologik-axloqiy nuqtayi nazardan yondashuv kuchaygani kuzatildi.

“Tarixiy roman janri adabiy tafakkurning transformatsion dinamikasida gumanistik-estetik mezonlarga tayanib, inson ma'naviyatini tarixiy xotira orqali anglashga xizmat qiluvchi muhim badiiy shaklga aylangan” [1: 215]. Neoromantizm oqimining tarixiy roman janriga olib kirgan eng asosiy yangiligi – tarixiylikni an'anaviy

ma'nodagi voqealar xronologiyasi doirasida emas, balki inson ruhiyati, psixologik kechinmalari va individual ongning estetik-madaniy aks sadosi sifatida talqin etishida. Bunday yondashuv tarixiy jarayonni faqat tashqi faktlar yig'indisi emas, balki ichki ma'naviy muhit, ya'ni dramatik makon, estetik fon va ruhiy sinovlar sahnasi sifatida qayta o'ylash imkonini beradi. Neoromantik tarixiy romanlarda tarixiy haqiqat bilan insoniy haqiqat o'rtasidagi murakkab ziddiyatlar psixologik-refleksiv tarzda badiiy ifodasini topadi. Bu esa tarixiy-badiiy konstruksiyani estetik-falsafiy anglashning yangi bosqichiga olib chiqadi. Xususan, Robert Louis Stevenson ijodi bu jarayonning yorqin namunasi bo'lib, uning tarixiy romanlari neoromantizmning tipologik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Asarlarida tarixiy makon va vaqt inson ruhiy iztirobi va axloqiy tanlovlarining badiiy timsoliga aylanadi. Muallif tarixiy voqealarni ijtimoiy ongda aks etganidek emas, balki shaxsiy tafakkur va axloqiy-estetik pozitsiya prizmasidan o'tkazadi. Shu jihatdan, uning romanlarida tarix ruhiy jarohatlar, shaxsiy shakllanish va o'zlikni anglash bilan chambarchas bog'langan holda tasvirlanadi.

R.L.Stevensonning "Kidnapped" (1886) va "The Master of Ballantrae" (1889) neoromantik tarixiy roman janrining psixologik va estetik konsepsiyalarini amalda mujassamlashtirgan fundamental badiiy asarlardir. Ushbu romanlarda tarixiy voqealar, xususan, Yakobitlar qo'zg'oloni, Shotlandiyadagi siyosiy beqarorlik va ijtimoiy ziddiyatlar an'anaviy tarixiy romanlardagi kabi sujetning harakatlantiruvchi kuchi sifatida emas, balki qahramonlarning ichki olami, ruhiy iztiroblari va axloqiy tanlovlarini yoritish vositasi sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv neoromantizmning asosiy tamoyillaridan biri – tarixiylikning estetik-insongarchilik mezonlarida qayta ko'rilishi bilan uzviy bog'liqdir. Stevenson tarixiy faktlarni badiiy-estetik rekonstruksiya vositasida emas, inson psixologiyasi, irodasi, ishonch va xiyonat, birodarlik va dushmanlik singari insoniy tuyg'ular kontekstida qayta tasvirlaydi. Ayniqsa, "The Master of Ballantrae" romanida qarama-qarshi xarakterlar (Jeyms va Genri) o'rtasidagi dramatik ziddiyat tarixiy voqealardan ko'ra ko'proq axloqiy va ruhiy maydonda kechadi. Shu orqali tarixiy roman psixologik chuqurlik, ruhiy dramatism va ichki refleksiya mezonlari asosida boyitiladi, bu esa uni gumanistik-estetik nuqtayi nazardan yangicha bosqichga olib chiqadi [2: 118].

R.L.Stevensonning Kidnapped romanidagi bosh qahramon Devid Balfur neoromantik tarixiy romanning psixologik va axloqiy-estetik mezonlariga mos holda shakllantirilgan murakkab xarakterlardan biridir. U o'zining ichki dramasi, ma'naviy o'sishi va axloqiy tanlovi orqali tarixiy hodisalar bilan bevosita emas, balki ichki tafakkur, ruhiy sinovlar va shaxsiy o'zlikni anglash jarayoni orqali to'qnashadi. Bu orqali tarix shunchaki fon yoki faktlar majmuasi emas, balki qahramon ongining shakllanishiga ta'sir etuvchi ramziy-estetik muhit sifatida namoyon bo'ladi. Roman voqealari Yakobitlar qo'zg'oloni kontekstida kechsa-da, asosiy masala siyosiy tarix emas, insoniylik, erkinlik,

sadoqat va axloqiy tanlov muammolariga qaratiladi. Ayniqsa, Devid va Alan Brek Chik o'rtasidagi ichki ziddiyatlar, bir-biriga bo'lgan ishonch va shubha, sadoqat va jasorat o'rtasidagi murakkab munosabatlar psixologik chuqurlik va estetik ifoda vositalari orqali ochib beriladi. Bu obrazlar vositasida muallif inson ruhiyatining ko'p qirrali holatini, tarixiy kontekstdagi individual irodaning shakllanish mexanizmlarini badiiy tahlil qiladi. [3: 134–139].

Adabiyotshunos Ian Duncan o'z tadqiqotlarida "Kidnapped" romanining estetik-falsafiy salohiyatini alohida e'tirof etadi. Ushbu asarni "tarixiy romanlar orasida insoniy o'sish metaforasi sifatida eng muhimlaridan biri" deb atab, quyidagi fikrni ilgari suradi: "Stevensonning "Kidnapped" romanida tarix oddiy voqealar ketma-ketligi emas, balki zamonaviy insonning shakllanishi uchun ramziy bir makondir" (In Stevenson's "Kidnapped", history is not a chronicle of events, but a metaphorical field for the formation of the modern subject) [4: 203]. Duncanning ushbu yondashuvi Stevenson romanlarining o'ziga xos adabiy-estetik xususiyatlarini falsafiy-nazariy kontekstda talqin qilishga asos bo'ladi. Ushbu qarash tarixiy roman janrida tarixiylik tushunchasining yangicha, ya'ni metaforik va ruhiy kontekstda tushunilayotganini anglatadi. Tarix endilikda voqealarning ketma-ketligi emas, balki qahramon ongining shakllanishi, shaxsiy identifikatsiyasi va ichki refleksiyasi uchun estetik-falsafiy makonga aylanadi. Bu esa Stevenson romanlarida tarixni shunchaki fon emas, balki insoniy o'zlikni anglash va shakllantirish vositasi sifatida talqin qilishga xizmat qiladi. Shu asosda "Kidnapped" singari asarlarni tarixiy roman janrining **gumanistik va estetik yuksalish darajasiga ko'tarilgan namunasi** sifatida baholash mumkin.

"The Master of Ballantrae" romani Robert Louis Stevensonning eng dramatik va murakkab tarixiy asarlaridan biri sifatida alohida o'rin egallaydi. Asarda 1745-yilgi Yakobitlar qo'zg'oloni va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini an'anaviy tarixiy romanlardagidek voqeaboplik asosida emas, inson ruhiyatining buzilishi, axloqiy parokandalik va ichki ziddiyatlar manzarasida badiiy talqin etiladi. Romanda aka-ukalar – Jeyms va Genri Durie obrazlari tarixiy fon bilan chambarchas bog'liq bo'lsa-da, ular o'rtasidagi qarama-qarshilik siyosiy emas, balki eksistensial-axloqiy mohiyat kasb etadi. Jeyms Durie obrazida romantik, sarguzashtparast, impulsiv xarakter mujassam bo'lsa, Genri bosiq, muvozanatli, axloqiy mezonlarga sodiq shaxs sifatida tasvirlanadi. Ular orasidagi ziddiyat real tarixiy voqealardan ko'ra ko'proq ruhiy-falsafiy kontekstda kechadi. Bu esa roman strukturasi va mazmunini gumanistik-estetik yuksalikka olib chiqadi. Shu jihatdan, "The Master of Ballantrae" nafaqat tarixiy roman janrining neoromantik talqinida muhim o'rin egallaydi, balki insoniy tanlov, ma'naviy muvozanat, irodaviy kuch va vijdoniy to'qnashuvlar orqali tarixiylikni chuqur psixologik va metaforik darajada qayta anglashga xizmat qiladi [4: 211–215]. Tadqiqotchi Linda Dryden bu romanni

romantizm va realizm o'rtasidagi ziddiyatni ochib beruvchi badiiy sintez namunasi sifatida baholaydi: "Stevenson "The Master of Ballantrae"da romantizm va realizm o'rtasidagi ziddiyatni inson ruhining buzilishi orqali ifodalaydi. Tarixiy drama psixologik inqirozga aylantirilgan" [5: 94]. Ushbu yondashuv tarixiy roman janrida estetik dramatismning yangi bosqichini boshlab berib, tarixni ijtimoiy hodisa emas, inson psixologiyasining ifoda vositasi sifatida talqin qilishga asos bo'ldi.

Neoromantizm estetikasi nuqtayi nazaridan qaralganda, Stevenson tarixni faktlar ketma-ketligi yoki siyosiy voqealarning yirik panoramasini emas, qalbdagi o'zgarishlar, ma'naviy iztiroblar va ruhiy ziddiyatlar tasviriga xizmat qiluvchi badiiy makon sifatida ko'radi. Bu psixologik dramatism tarixiy roman janrining gumanistik-estetik darajada chuqurlashuviga zamin yaratdi va XX asr adabiyotida yangi estetik paradigmalarining shakllanishiga olib keldi.

Neoromantizm va ekzistensializm o'rtasidagi munosabat. Neoromantizm va ekzistensializm adabiy-falsafiy tafakkur tarixida turli davrlarda shakllangan ikki mustaqil oqim bo'lishiga qaramay, ularning estetik, ruhiy va axloqiy tamoyillari o'rtasida muayyan uyg'unlik va ichki uzviylik mavjud. Har ikkala oqimda ham inson o'z hayoti, taqdiri va ma'naviy tanlovlari uchun mas'ul, ichki dunyosida bo'layotgan jarayonlarni anglaydigan murakkab mavjudot sifatida tasvirlanadi. Neoromantik tarixiy romanlarda sarguzasht tashqi harakat emas, balki ichki iztirob va o'zlikni izlashning badiiy metaforasiga aylanadi. Bu esa ekzistensial adabiyotdagi asosiy motivlar: ma'no izlash, yolg'izlik, tanlov va ongda bo'shliq kabi tushunchalar

bilan uyg'unlashadi. Neoromantizm qahramon odatda o'z shaxsiy qadriyatlari bilan tashqi dunyo o'rtasida ziddiyatga tushadi, ekzistensializm esa bu ziddiyat yanada chuqurroq tus oladi: u inson mavjudligining mohiyati, maqsadsiz va beg'am dunyoda erksizlik, tanlov mas'uliyati va "inson nima uchun yashaydi?" degan savol atrofida shakllanadi. Shu jihatdan R.L.Stevensonning "The Master of Ballantrae" va "Kidnapped" romanlarida qahramonlarning axloqiy tanlovlari va ichki iztiroblari qanday markaziy o'rin tutsa, Albert Kamyuning "Begona", Frans Kafka yoki Jan-Pol Sartarning asarlarida ham inson o'z tanlovi va qarorlarining oqibatida yolg'izlik va begonalik holatiga tushgan mavjudot sifatida tasvirlanadi. Adabiyotshunos F.Jameson bu haqda quyidagicha yozadi: "Neoromantik obraz hali umid bor deb hisoblasa, ekzistensial qahramon yo'qotilgan ma'nolar dunyosida yashayotgan odamdir" [6: 147]. Shu ma'noda, Stevenson romanlaridagi qahramonlar hali axloqiy yechim topishga intilayotgan bo'lsa-da, Martin Iden obrazida bu jarayon tanazzul va o'z-o'zini yo'qotishga olib boradi. Bu bir vaqtning o'zida ekzistensial fojiga yaqinlashuvdir.

Neoromantizm ko'pincha tarixiylik, milliy identitet, axloqiy pozitsiya, qahramonlik kabi motivlarni individual kechinma orqali badiiylashtiradi. Ekzistensializm esa bu kechinmalarning global mohiyati, ya'ni insonning barcha davrlarda uchrashi mumkin bo'lgan mavjudlik muammosini e'tibor markazida tutadi. Masalan, R.L.Stevenson romanlarida qahramon tanlov qiladi, vijdon bilan yuzlashadi va buning oqibatlarini qabul qiladi. A.Kamyu romanlarida esa qahramon hech qanday axloqiy tayanchga ega emas, u o'zining harakatlarida ma'no ko'rmaydi, lekin baribir ularni bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov T. Tarixiy roman poetikasi va zamonaviylik ruhi. – Toshkent: Fan, 2017.
2. Stevenson R.L. Kidnapped. – London: Cassell and Company, 1886.
3. Stevenson R.L. Kidnapped. – London: Cassell and Company, 1886.
4. Duncan I. Scott's Shadow: The Novel in Romantic Edinburgh. – Princeton: Princeton University Press, 2007.
5. Duncan I. Scott's Shadow: The Novel in Romantic Edinburgh. – Princeton: Princeton University Press, 2007.
6. Dryden L. The Modern Gothic and Literary Doubles: Stevenson, Wilde and Wells. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2003.

Shakhribonu SIROJIDDINOVA,

Associate docent, PhD,

Department of English Language Kimyo International University in Tashkent, Samarkand branch

TEMPTATION AND PUNISHMENT: TWO VISIONS OF THE FORBIDDEN FRUIT IN EAST AND WEST LITERATURE

Annotation. This article explores the many interpretations of the Forbidden Fruit in both Eastern and Western literary and theological traditions. Using the IMRAD format, the article compares and contrasts Eastern Jewish and Islamic interpretations, where the fruit is varyingly identified as a grape, fig, or wheat, with the Western Christian association of the fruit with the apple, which is largely shaped by Latin wordplay and artistic-literary tradition (e.g., Paradise Lost). The study makes the case that Eastern viewpoints emphasize moral progress, human understanding, and consequences without a fixed fruit identity, while Western perspectives emphasize sensual temptation and the idea of original sin.

Keywords: Forbidden fruit, temptation, punishment, apple, grapevine, fig, wheat, East and West literature, Rabbinic Judaism, Islam, Christianity, Paradise Lost, original sin, Midrash, Symbolism.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq va G'arb adabiy hamda ilohiyot an'analarida "taqiqlangan meva"ning turli talqinlari o'rganiladi. IMRAD talabidan kelib chiqqan holda sharqiy yahudiy va islomiy talqinlar qarama-qarshi qo'yilib, taqqoslanadi. Bu talqinlarda meva sifatida uzum, anjir yoki bug'doy ko'rsatilgan bo'lsa, g'arbiy nasroniy an'anasida meva asosan lotin tilidagi so'z o'yini va badiiy-adabiy an'analar ta'sirida (masalan, "Yo'qotilgan Jannat" asarida) olma bilan bog'lanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Sharq nuqtayi nazarini axloqiy taraqqiyot, insoniy tushuncha va natijalarga e'tibor qaratib, muayyan meva turini belgilamaydi. G'arb qarashlarida esa hissiy vasvasaga va asl gunoh g'oyasiga urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: taqiqlangan meva, vasvasa, jazolash, olma, uzum, anjir, bug'doy, Sharq va G'arb adabiyoti, rabboniy yahudiylik, islom, nasroniylik, "Paradise Lost", asl gunoh, midrash, ramziy ma'no.

Аннотация. Данная статья посвящена разнообразным интерпретациям Запретного плода в восточных и западных литературных и теологических традициях. Используя структуру IMRAD, автор сопоставляет восточные иудейские и исламские взгляды, в которых плод отождествляется с виноградом, инжиром или пшеницей, с западной христианской традицией, где запретный плод ассоциируется с яблоком – во многом под влиянием латинской игры слов и художественно-литературного наследия (например, «Потерянный рай»). Исследование показывает, что восточные интерпретации акцентируют внимание на нравственном развитии, человеческом понимании и последствиях, не привязываясь к конкретному виду плода, тогда как западные подходы подчеркивают чувственное искушение и идею первородного греха.

Ключевые слова: запретный плод, искушение, наказание, яблоко, виноград, инжир, пшеница, восточная и западная литература, раввинистический иудаизм, ислам, христианство, «Потерянный рай», первородный грех, мидраш, символизм.

The theme of the Forbidden Fruit acts as a powerful symbol of temptation and consequence in both Western and Eastern religious and literary contexts. In Western literature and theological discussions, the fruit is frequently depicted as an apple, whereas Eastern traditions including Rabbinic Judaism and Islamic interpretations suggest other possibilities such as grapes, figs, or wheat. This article explores how these two traditions understand temptation and punishment through the imagery of the Forbidden Fruit. The objective of the research is to explore how both poets express the moral and spiritual aspects of punishment, guilt, and forgiveness within their unique religious and historical contexts Milton in the Puritan Christian tradition of 17th-century England and Oripov within the Islamic and post-Soviet environment of 20th-century Uzbekistan. By closely analyzing semantic domains, metaphorical expressions and narrative frameworks, the study emphasizes how these thematic issues are ingrained in the poets' linguistic and symbolic selections [8: 70].

This research employs a comparative literature-based methodology to explore the symbolic and theological representations of the Forbidden Fruit in both Eastern and Western traditions. The analysis draws on a range of primary textual sources, including biblical passages, particularly Genesis chapters 2 and 3, which narrate the story of Adam and Eve and their transgression in the Garden of Eden. On the Western front, the research also takes into account significant literary pieces, particularly John Milton's epic poem *Paradise Lost*, which has had a substantial impact on the Christian cultural perception of the Fall of Man. In addition to these primary sources, the research utilizes secondary scholarly works to explore the historical and cultural evolution of the fruit's identity and its changing symbolism throughout different periods and locations. Azzan Yadin-Israel's monograph, *Temptation Transformed*, is particularly significant, providing an in-depth analysis of how the apple became associated with the Forbidden Fruit in Western Christian thought. The research also references academic articles

that examine the development of the apple motif and theological commentaries, including those by Augustine of Hippo, whose writings had a substantial impact on Christian teachings regarding sin, temptation, and human disobedience [5].

In Western Christianity, the *apple* predominates as the Forbidden Fruit. This identity emerges from medieval Latin punning (Latin *mālum* "apple" vs. *malum* "evil") and became cemented in art after Dürer's 1504 engraving and Lucas Cranach depiction [1: 63]. Additionally, the apple's symbolic significance in Greco-Roman mythology, particularly the golden apple of discord in the Judgment of Paris myth, likely influenced its selection as a fruit embodying desire and downfall. The fruit's aesthetic appeal and availability in European regions also contributed to its use, as artists and theologians frequently incorporated familiar local elements into religious imagery. Consequently, the apple evolved into not only a biblical symbol but also a teaching tool for illustrating moral lessons about disobedience, temptation, and human vulnerability.

Milton's *Paradise Lost* evokes the apple's sensual allure via the "ambrosial smell" and the serpent's "savorie odour," signifying temptation and disobedience [e.g. Book 9, Noon scene] [3: 2]. The consequence is the *Fall of Man*, punishment via expulsion from Eden and introduction of death and sin. Western theology frames this as original sin and eternal estrangement from divine grace. This representation is consistent with the larger Christian theological tradition, particularly the teachings of Augustine, which perceive the initial sin not just as an act of disobedience, but as a profound fracture in humanity's relationship with God. Additionally, Milton's decision to highlight the fruit's alluring qualities – its fragrance, beauty, and flavor – reflects the Renaissance theological interest in the body and the senses as pathways for both divine and corrupting experiences. Thus, the apple in *Paradise Lost* serves not only as a prohibited object but also as a means through which Milton explores the essence of temptation, the intricacies of choice, and the irreversible repercussions of moral wrongdoing.

Eastern (Rabbinic and Islamic) traditions. In Jewish interpretations of the Genesis story, there is no consensus regarding the exact nature of the “forbidden fruit” that Adam and Eve ate. Rabbinic literature offers a range of possibilities, suggesting that the fruit may have been a grapevine, a fig, or even wheat, as seen in interpretive midrashim such as *Berachot 40a*, *Sanhedrin 70a*, and *Bereishit Rabbah 15:7* [6]. The range of interpretations illustrates the wider exegetical method found in Rabbinic tradition, which often analyzes biblical texts both literally and through symbolic and pedagogical lenses. These methods demonstrate how the ambiguous nature of scripture can prompt theological contemplation and ethical guidance instead of conclusive historical interpretations.

ishonishga moyilligi borligini ko'rsatadi. Bu kabi holatlar o'quvchilarga SI vositalaridan **tanqidiy va tahliliy**

yondashuv asosida foydalanish zarurligini o'rgatish lozimligini isbotlaydi.


8-savolga o'quvchilar bergan javoblarning tahlili:

Sun'iy intellektning turlaridan foydalanish darajasi




9-savol asosidagi natijalar tahlili:

O'quvchilar SI dan qancha vaqtdan buyon foydalanishi




10-savolga o'quvchilar bergan javoblar tahlili:

SI vositalaridan foydalanishga sarflanadigan vaqt




11-savolga olingan javoblar tahlili:

SI sizga qachondir pand berganmi?



12- savolga olingan javoblar tahlili:


SI bilan bog'liq xatoliklarning qaysi fan yoki sohalarda kuzatilishi haqidagi fikrlar



13-savolga barcha o'quvchilar SI ning to'lovsiz shaklidan foydalanishini ma'lum qilishdi.

14-savolga berilgan javoblar tahlili:

SI jamiyat uchun xavfli bo'lishi mumkinligi



Dastlabki tadqiqot natijalariga ko'ra, so'rovnoma da ishtirok etgan o'quvchilarning asosiy qismi SI haqida tushunchaga ega va undan muntazam foydalanishadi. Foydalanishlardan asosiy maqsad dars tayyorlash jarayoniga to'g'ri kelgani va hatto uyga beriladigan hamda sinfda bajariladigan nazorat ishlarida ham unga mjurojaat ta'lim jarayonida SI dan **maqsadli va mas'uliyatli foydalanish**

bo'yicha tizimli amaliy ko'nikmalarni shakllantirish zarurligini ko'rsatdi.

O'smirlar SI bilan hayotiy va shaxsiy masalalarda suhbatlashish holatlarini ham qayd etishgani ularning shaxsiy daxlsizlikka intilishi, tortinchoqlik kabi psixologik himoya mexanizmlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, ularning ta'lim-tarbiyasiga mas'ul bo'lgan

o'qituvchi va tarbiyachilardan **g'amxo'rlik, empatiya va e'tiborli yondashuvni** talab qiladi. Natijalarga ko'ra, so'rovnomada ishtirok etganlarning hammasi asosan **ChatGPT** kabi sun'iy intellektga asoslangan chat-botlardan foydalanishadi. Aksariyati 2 yildan buyon foydalanishini qayd etgan.

Qiziqarli jihatlardan biri shundaki, ko'pchilik ishtirokchilar SI bilan bog'liq **xatoliklar** va uning **insoniyat hamda jamiyat uchun keltirishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar** haqida fikr bildirgan. Bu esa o'quvchilarda yangi texnologiyalar to'g'risida **muayyan bilim, tanqidiy qarash va mustaqil fikr yuritish qobiliyati** shakllanganligini ko'rsatadi.

Tadqiqotga asoslanib xulosa qilish mumkinki, butun dunyoda dolzarb bo'lib borayotgan innovatsiyalar, xususan, sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari O'zbekiston maktablariga ham kirib kelishga ulgurgan. O'quvchilar hozirda SI vositalarining asosan bir yoki ikkita ommabop

turidan foydalanayotgan bo'lsalar-da, bu vositalarga sarflanayotgan vaqt va u orqali bajarilayotgan topshiriqlar hajmi salmoqli ulushni tashkil etmoqda. Tadqiqot ishtirokchilarining ko'pchiligi o'zlariga yuklatilgan mustaqil topshiriqlarni SI yordamida tez va qulay tarzda bajarishayotganini ta'kidlagan. Bu holat esa sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha **ta'limiy va tarbiyaviy chora-tadbirlar zarurligini** ko'rsatadi. Ilm-fan namoyandalari bot-bot ta'kidlanayotganidek, istalgan o'quvchi SI vositalaridan foydalanishning salbiy oqibatlarini girdobiga tushib qolishi mumkin. Shu sababli, sun'iy intellektdan **oqilona foydalanish qoidalarini** shakllantirish hamda uning **salbiy ta'sirlarini imkon qadar kamaytirish** bugungi kun pedagoglari zimmasiga yangi mas'uliyatlarni yuklaydi. Bu jarayonda nafaqat **ta'lim oluvchilar**, balki **ta'lim beruvchilar** ham zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollangan bo'lishi, yangiliklardan foydalanishda **tanqidiy va tahliliy fikrlash** tamoyillariga amal qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gerlich M. AI Tools in Society: Impacts on Cognitive Offloading and the Future of Critical Thinking. // Societies, 2025. 15(1), 6.
2. Holmes W., Bialik M., Fadel C. Artificial intelligence in education promises and implications for teaching and learning. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2019.
3. Moor J. The Dartmouth College artificial intelligence conference: The next fifty years. // AI Magazine, 2006. 27(4), 87-87.

Iroda ERNAZAROVA,

*Samarqand davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

FOLKLOR ASARLARINI O'QITISHNING TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada folklor asarlarni o'qitishga doir materiallar tahlilga tortilgan bo'lib, maqol, matal, topishmoq, ertak, dos-ton kabi folklor namunalari samarali metodlar yordamida o'qitish bugungi adabiy ta'limning dolzarb vazifalaridan biri ekani aniq dalillar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, og'zaki nutq, milliy meros, tarbiya, darslik, komil inson.

Annotation. This article analyzes materials related to teaching folklore works. It clearly demonstrates that effectively teaching folklore examples such as proverbs, sayings, riddles, fairy tales, and epics using efficient methods is one of the urgent tasks of contemporary literary education.

Keywords: modern education, oral speech, national heritage, upbringing, textbook, well-rounded individual.

Аннотация. В статье анализируются материалы, касающиеся преподавания фольклорных произведений. На основе конкретных фактов раскрывается, что обучение таким образцам фольклора, как пословицы, поговорки, загадки, сказки и эпосы, с использованием эффективных методов является одной из актуальных задач современного литературного образования.

Ключевые слова: современное образование, устная речь, национальное наследие, воспитание, учебник, гармонично развитая личность.

Mamlakatimizda keyingi yillarda xalq og'zaki ijodi materiallarini chuqur o'rganish va yosh avlodga o'rgatish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bugungacha "Alpomish" dostonining ming yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlanishi, "O'zbekiston xalq baxshisi" unvonining joriy etilishi, ikki yilda bir marta "Boysun bahori" xalqaro ochiq folklor festivalining o'tkazilishi, "O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari" ning kitob shaklida nashr etilishi amaliy sa'y-harakatlarning dastlabki boshqichlari bo'lgan deyishimiz

mumkin. Bugungi kunda ham bu borada mintaqaviy va xalqaro doirada katta ishlar olib borilmoqda.

Folklor asarlari insonning ma'naviy kamolotiga beqiyos hissa qo'shuvchi muhim vosita sifatida ta'lim-tarbiyada o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodi namunalari komil insonni tarbiyalashdagi muhim o'rnini nazarda tutgan holda, ularni maktabgacha ta'lim bosqichidan boshlab o'rgatish ta'lim muhitida tarbiya jarayonida samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Biroq biz

mazkur maqolada asosiy e'tiborimizni folklor namunalarini maktab va oliy ta'lim tizimida o'qitish masalalariga qaratdik. Boshlang'ich sinf darsliklarida xilma-xil mavzulardagi topishmoq, tez aytish, maqol va ertaklarning berilishi va o'qitilishi o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirib, og'zaki va yozma savodxonligini rivojlantiriradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun mo'ljallangan "Adabiyot" darsligida maqollar, topishmoqlar va "Uch og'a-ini botirlar" ertagi berilgan [2: 48]. Bizningcha, mazkur yoshdagi o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda, xalq og'zaki materiallarining hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq. Masalan, xalq dostonlari matnidan qisqa parchalar keltirish aynan shu yoshdan dostonlarga qiziqish uyg'otishga asos bo'ladi. 6-sinf darsligida esa xalq qo'shiqlarini o'zlashtirish tavsiya etilgan va xalq og'zaki ijodi, xalq qo'shiqlari haqida qisqacha nazariy ma'lumot ham berib o'tilgan [3: 62]. 7-sinf darsligida folklor asarlarini o'qitish bo'yicha hech qanday ma'lumot

va material yo'q. Vaholanki, bu yoshdagi o'quvchilarni, bizningcha, boy folklor xazinasidan o'rin olgan afsona, mif va asotirlar bilan tanishtirish lozim. 8-sinf uchun mo'ljallangan "Adabiyot" darsligida "Kuntug'mish", 9-sinf darsligida "Alpomish", 10- va 11-sinf darsliklarida esa "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni hamda tahlili berilgan. Ammo zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangani hamda maktablarda sinfxonalarning televizor bilan jihozlanganini e'tiborga olib, yuqori sinf o'quvchilariga dostonlar asosida ishlangan filmlarni ko'rsatish va muhokama qilish zaruratga aylandi deya olamiz. Qolaversa, bu darsning qiziqarli bo'lishini ta'minlabgina qolmay, o'quvchilarning dunyoqarashini o'stirishga ham xizmat qiladi.

Ma'lumki, mamlakatimizda kitobxonlikni keng targ'ib qilish maqsadida har yili "Yosh kitobxon" tanlovi o'tkazilmoqda. Mana shu tanlov uchun tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxatiga xalq og'zaki ijodi materiallari ham kiritilgan:

10–14 yosh	15–19 yosh	20–30 yosh
"Alpomish" dostoni	"Yusuf va Ahmad" dostoni	"Mashriqo" dostoni
"Ravshan" dostoni"	"Rustamxon" dostoni	"Zevarxon" doston
"Yunus va Misqol pari" dostoni		

Filologiya yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga "Xalq og'zaki ijodi" fani o'qitiladi. Ular folklor materiallarini to'plash bo'yicha turli hududlarda amaliyot o'taydilar. Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universitetidagi "Folklorshunoslik va shevashunoslik" yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar esa "Xalq og'zaki ijodi poetikasi", "O'zbek mifologiyasi", "Xalq lirikasi" kabi fanlar doirasida folklorshunoslik bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'ladi. Mazkur soha bo'yicha Toshkent, Samarqand va Andijon viloyatlaridagi oliy ta'lim muassasalarida magistratura ixtisosligi mavjud bo'lib, magistrantlar "Folklorshunoslik nazariyasi", "Xalq og'zaki ijodi poetikasi", "O'zbek mifologiyasi" fanlari doirasida folklor materiallari [1: 233] tadqiqi bilan shug'ullanadilar.

Ta'limda zamonaviy xalqaro tendensiyalar yuzaga kelayotgan bir davrda xalq og'zaki ijodi namunalarini o'qitishning ahamiyati keng qamrovli va ko'plab omillarni o'z ichiga oladi. Bizningcha, darsliklardagi folklorga oid materiallarni takomillashtirish lozim. Zero xalq og'zaki ijodi namunalarini tarbiyaviy ahamiyati bilan o'quvchi yoshlarni yuksak axloqiylik, ruhiy barkamollik, insoniy qadriyatlarga sodiqlik, ma'naviy merosga muhabbat ruhida tarbiyalashga katta hissa qo'shadi hamda ularni ajdodlarimizning ko'p asrlik badiiy tafakkur durdonalarini

o'zida mujassamlashtirgan milliy qadriyatlar tizimini asrab-avaylashga undaydi. Shuningdek, turkiy va qardosh xalqlar folklor namunalari bilan maktabdanoq o'quvchilarni tanishtirish ularda boshqa xalqlarning folklor namunalariga qiziqishni uyg'otadi. Bu boradagi amaliy ishlar asosini esa xalq og'zaki ijodi materiallari bilan tanishtirishga doir dasturiy vositalar, saytlar, ilovalar hamda qiziqarli elektron o'yinlar yaratish tashkil qiladi. Mazkur zamonaviy vositalar xalq og'zaki ijodini keng targ'ib qilish, o'qitishda qo'l keladi. Ta'limning oliy bosqichida esa talabalar o'rtasida folklorni targ'ib etuvchi turli musobaqalar, tanlovlar hamda qiziqarli tadbirlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Filologiya yo'nalishida tahsil oluvchi talabalardan folklor jamoalarni tuzish va ularning ijtimoiy tarmoqlar, OAV orqali xalq og'zaki ijodi namunalarini, ularga oid o'z qarashlarini keng ommaga yetkazishini yo'lga qo'yish ham tengdoshlarining qiziqishi ortishiga ko'mak beradi. Talabalar va xalq baxshilari bilan ijodiy uchrashuvlarni tashkil etishni doimiy yo'lga qo'yish ham o'z samarasini bermay qolmaydi. Xulosa qilganda, bu milliy boyligimizni ta'lim jarayoniga imkon qadar yaqinlaqshirish va undan unumli foydalanish ta'lim tizimida biz erishmoqchi bo'layotgan natijalarga yo'l ochishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev T., Jurayev M., Turdimov Sh., Eshonkulov J., Tilovov A. O'zbek folklori. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2020. – 240 b.
2. Ahmedov S. va boshq. Adabiyot [Matn]: 5-sinf uchun darslik. – Toshkent, 2020. – 272 b.

3. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot [Matn]: 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
4. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot [Matn]: 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 224 b.
5. Olim S., Ahmedov S., Qo'chqorov R. Adabiyot [Matn]: 8-sinf uchun darslik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 353 b.
6. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshebekov J. Adabiyot: umumiy o'rta ta'lim maktablarning 9-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2019. – 368 b.
7. Mirzayeva Z., Jalilov K. Adabiyot [Matn]: 10-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 312 b.
8. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot [Matn]: 11-sinf uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.

Dilafroz KENJABAYEVA,

*Termiz davlat universiteti fakultetlararo chet tillari kafedrası dotsent v.b.,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

ESTETIK DID VA MADANIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy adabiyotlardan foydalanish orqali o'quvchilarda estetik did va madaniy tafakkurni shakllantirish masalalari tahlil etilgan. Adabiy asarlarning nafaqat til o'rganish jarayonidagi, balki estetik va axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'рни ham ochib beriladi. Xorijiy mualliflarning badiiy matnlari orqali talabalar boshqa xalqlarning san'ati, madaniy qadriyatlarini va estetik qarashlari bilan tanishib, madaniyatlararo tafakkur, nutq madaniyati va badiiy ifoda ko'nikmalarini egallaydi.

Kalit so'zlar: xorijiy adabiyot, estetik did, madaniy tafakkur, badiiy matn, madaniyatlararo kompetensiya, til va madaniyat, estetik tarbiya, adabiy o'qish, lingvomadaniyat.

Annotation. This article analyzes the issues of forming students' aesthetic taste and cultural thinking using foreign literature. The role of literary works not only in the process of language learning but also in the development of aesthetic and moral competencies is revealed. Through the artistic texts of foreign authors, students become acquainted with the art, cultural values, and aesthetic views of other peoples, acquire skills in intercultural thinking, speech culture, and artistic expression.

Keywords: foreign literature, aesthetic taste, cultural thinking, literary text, intercultural competence, language and culture, aesthetic education, literary reading, linguistic culture.

Аннотация. В данной статье проанализированы вопросы формирования эстетического вкуса и культурного мышления у учащихся с использованием зарубежной литературы. Раскрывается роль литературных произведений не только в процессе изучения языка, но и в развитии эстетических и нравственных компетенций. Через художественные тексты зарубежных авторов студенты знакомятся с искусством, культурными ценностями и эстетическими взглядами других народов, приобретают навыки межкультурного мышления, культуры речи и художественного выражения.

Ключевые слова: зарубежная литература, эстетический вкус, культурное мышление, художественный текст, межкультурная компетентность, язык и культура, эстетическое воспитание, литературное чтение, языковая культура.

Zamonaviy ta'limda shaxsni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash ustuvor vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, til o'rganish jarayonida madaniy tafakkur, estetik did, san'at va ma'naviyatga hurmat tuyg'usini shakllantirish ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi. Bunda xorijiy adabiyot namunalariidan foydalanish o'quvchilarning nafaqat lingvistik bilimini, balki ichki dunyosini, tasavvur doirasini, estetik idrokini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Adabiyot – madaniyatning eng nozik qatlami. Mazkur maqolada xorijiy adabiyotlarning estetik tarbiya va madaniy tafakkur rivojidadagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Xorijiy adabiyotlar – boshqa xalq tilida yozilgan, ularning hayoti, qarashlari, urf-odatlarini, estetik qarashlari va tarixiy-madaniy tafakkurini aks ettiruvchi badiiy matnlardir. Ular o'quvchiga o'rganilayotgan tilning nafaqat grammatik qoidalarini, balki mazmuniy-estetik jihatlari ham tushunishga yordam beradi. Xorijiy adabiyot orqali o'quvchi bir xalq hayotiga go'yo "badiiy oynadan" qaraydi: u xalqning dunyoqarashi, qadriyatlarini, tarixiy ruhiyatini

bilan tanishadi. Misol uchun, ingliz adabiyotida realizm va ijtimoiy tanqid kuchli bo'lsa, fransuz adabiyotida romantizm, erkinlik va falsafiy tafakkur ustunlik qiladi. Rus adabiyotida esa inson qalbi, imon, axloq va jamiyat munosabatlari chuqur yoritiladi. Har bir adabiy maktab o'z xalqining tarixiy va madaniy ruhini aks ettiradi. Masalan, **ingliz tilida o'qitilayotgan adabiy asarlar** (William Shakespeare, Charles Dickens, Jane Austen, George Orwell) o'quvchini ingliz xalqi tarixi, ijtimoiy muammolari, estetik didi bilan tanishtiradi. **Fransuz adabiyoti** (Victor Hugo, Guy de Maupassant, Antoine de Saint-Exupéry) orqali talaba romantizm, realizm, individualizm, ijtimoiy adolat kabi tushunchalarni anglaydi. **Nemis adabiyoti** (Goethe, Schiller, Kafka) esa o'quvchini falsafiy mushohada, ruhiy ziddiyatlar, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarga olib kiradi [1: 97].

Xorijiy adabiyot bilan ishlash quyidagi yo'nalishlarda o'quvchining **estetik va madaniy tafakkurini** shakllantirishda yordam beradi:

Estetik tasavvurni rivojlantirish. Badiiy matnlar orqali o'quvchi go'zallik mezonlari, obrazli ifoda vositalari, uslubiy boyliklar bilan tanishadi. Bu qobiliyat bolalikdan shakllana boshlaydi va ko'proq adabiy-badiiy asarlar orqali rivojlanadi. Badiiy matnlar inson qalbini boyitadi, tasavvurini kengaytiradi, hayotni chuqurroq idrok etishga yordam beradi. Ayniqsa go'zallik mezonlari, obrazli ifoda vositalari va uslubiy boyliklar estetik dunyoqarashni shakllantirishda beqiyos o'rin tutadi.

Badiiy matnlar orqali o'quvchilar turli obrazlar, metafora, epitet, ta'sirli tasvirlar bilan tanishadi. Bu esa ularning nafaqat tilida, balki ruhiy-estetik olamida ham yangicha qarashlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan, tabiat go'zalligi, inson qalbi nozikliklari yoki milliy qadriyatlar obrazli ifoda vositalari orqali berilsa, o'quvchi unga chuqur estetik baho bera boshlaydi. Shuningdek, badiiy uslubdagi boy ifodalar – ramziy obrazlar, she'riy qurilishlar, ohangdorlik va ritm – matnga go'zallik, joziba baxsh etadi. Bu uslubiy boyliklar orqali o'quvchi nafaqat matn mazmunini, balki uning estetik qiymatini ham anglaydi.

Madaniyatlararo tafakkurni kengaytirish. Zamonaviy globallashtirish davrida inson nafaqat o'z milliy madaniyatini, balki boshqa xalqlarning hayot tarzi, urf-odatlarini va estetik qarashlarini ham chuqur anglash zaruratiga duch kelmoqda. Xalqlarning an'anaviy estetik qarashlari va madaniy qadriyatlari bilan tanishish orqali insonning dunyoqarashi kengayadi, madaniyatlararo tafakkuri shakllanadi. Chunki har bir xalqning estetik qarashi, san'atga munosabati va go'zallikni tushunish mezonlari o'ziga xosdir. Masalan, yapon madaniyatida soddalik va tabiiylik asosiy estetik qadriyat bo'lsa, hind san'atida bezakdorlik va ramziy ma'nolar ustunlik qiladi. Yevropa xalqlarining klassik san'ati bilan tanishish esa uyg'unlik va mukammallikni qadrlash hissini oshiradi. Shu tarzda, turli millatlarning madaniy kodlari ularning kiyinish uslubi, marosimlari, me'morchilik uslublari yoki og'zaki ijod namunalari orqali ifodalanadi va o'rganiladi [2: 56].

Madaniyatlararo tafakkurni rivojlantirish yosh avlodga bag'rikenglik, hurmat, hamkorlik kabi ijobiy fazilatlarni tarbiyalaydi. Bunday tafakkurga ega inson o'ziga madaniyat vakillariga ochiq, ularning qadriyatlarini qadrlovchi va o'zaro muloqotda tolerant bo'ladi. Bunda xorijiy adabiyot, xalq og'zaki ijodi namunalari va badiiy filmlar muhim o'rin tutadi. "Ulardagi tasviriy ifoda vositalari – metafora, epitet, personifikatsiya, tashbeh kabi usullar – o'quvchini so'z

ma'nosini chuqur anglashga undaydi. Bunday uslublar bilan tanishgan o'quvchi oddiy so'z ortida turgan ma'no, his-tuyg'u va tasvirni ilg'ay oladi. Natijada, u nafaqat fikr bildirish, balki uni go'zal va ta'sirli tarzda yetkazish ko'nikmasiga ega bo'ladi" [2: 58]. Shuningdek, adabiy tilning ohangdorligi – uning ritmi, tovush uyg'unligi, intonatsiyasi – o'quvchida estetik eshitish sezgilarini rivojlantiradi. Bunday til bilan muloqot qilish, uni o'rganish jarayoni o'quvchini nafaqat bilimli, balki nutqi boy, so'z san'atini egallagan shaxsga aylantiradi. Nutq madaniyatiga ega bo'lgan inson esa o'z fikrini aniq va lo'nda bayon qila oladi. U boshqalar bilan muloqotda samimiy, madaniyatli va e'tiborli bo'ladi. Bunday inson jamiyatda ham hurmatga sazovor, chunki uning nutqi nafaqat mazmunga, balki shaklga, ya'ni estetik ifodaga ham boy bo'ladi.

Adabiy matnlar bilan ishlashda o'qituvchining metodik yondashuvi alohida ahamiyatga ega. U faqat matnni o'qitibgina qolmasligi, balki uni estetik tahlil qilishi, ijtimoiy-madaniy kontekstda talqin etishi, personajlar va sujet asosida o'quvchilarni muhokamaga jalb etishi kerak. Vizual yordamchi vositalar, drammatizatsiya, sahnalashtirish, interaktiv tahlil metodlari bu jarayonni yanada jonlantiradi. Adabiy asarlar orqali o'quvchilar yozuvchining turli obrazlar, badiiy vositalar, sujet tuzilmasi, ruhiy kechinmalar va hayotiy voqealarga bo'lgan munosabati bilan tanishadi. O'qituvchi esa bu jarayonda yo'naltiruvchi, ochuvchi va tahlilchi rolini bajaradi. Har bir adabiy matn o'ziga xos davr, muhit va madaniy hodisalarga tayangan holda yaratiladi. Shu sababli, o'qituvchi adabiy matnni o'quvchilarga faqat badiiy asar sifatida o'rgatishi kerak emas, aksincha, ularda asarni ijtimoiy, tarixiy va madaniy kontekstda tahlil qila olish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berishi zarur [3: 144].

Xorijiy adabiyotlar o'quv jarayonida faqat til o'rgatish vositasi emas, balki shaxsni estetik, madaniy va axloqiy jihatdan shakllantirishga xizmat qiluvchi badiiy vositadir. Ular orqali o'quvchi o'zining estetik qarashlarini kengaytiradi, boshqa xalqlarning madaniy tafakkurini anglaydi va tilni badiiy kontekstdagi nozikliklari bilan o'zlashtiradi. Shu bois, xorijiy til o'qitish metodikasida adabiy matnlar asosida estetik tarbiya berish yondashuvi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa til o'rganishni yuksak madaniy ong va did asosida olib borish, insonni badiiy-estetik fikrlaydigan, tolerant va madaniyatlararo muloqotga layoqatli shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdusalimovna K.D.Z. Teaching foreign languages through interactive methods to professional education students. // European International Journal of Pedagogics, 2024, 4(03), 96–99.
2. Kalandarova S. Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usullari. // Zenodo, 2025. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15175497>.
3. Raupova M. Ijtimoiy axloq mezonlari hamda qadriyatlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirish omillari. // Maktabgacha va maktab ta'limi, 2024, 1(8). <https://doi.org/10.5281/zenodo.14616415>.

Barno YUNUSOVA,

*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi
amaliy fanlar bo'limining tasviriy san'at va chizmachilik fanlari metodisti,
Oriental universiteti mustaqil izlanuvchisi*

TASVIRIY SAN'ATNI O'QITISH MAZMUNINI SHAKLLANTIRISHDA NAZARIY VA ILMIIY YONDASHUVLARNING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasviriy san'at ta'limining mazmunini shakllantirish bo'yicha ilmiy-nazariy yondashuvlar atroflicha o'rganiladi. Ta'lim mazmuni ta'lim jarayonining asosiy elementi bo'lib, uning sifati o'quvchilarning estetik didi, badiiy tafakkuri va ijodiy salohiyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi ta'lim mazmunini aniqlashda psixologik, pedagogik, madaniy hamda badiiy jihatlar bir butun holda tahlil qilinadi. Maqolada ta'lim mazmunini bolalarning yosh davrlari va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish zarurligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, ta'lim mazmuni, ilmiy-nazariy yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, integratsiya, estetik tarbiya, metodika, ijodkorlik, amaliy mashg'ulotlar, badiiy tafakkur.

Annotation. This article explores in detail the scientific and theoretical approaches to forming the content of visual arts education. The content of education is a fundamental element of the educational process, and its quality plays a crucial role in developing students' aesthetic taste, artistic thinking, and creative potential. In this direction, the content of education is analyzed holistically, taking into account psychological, pedagogical, cultural, and artistic aspects. The article emphasizes the need to structure the educational content based on children's developmental stages and individual psychological characteristics.

Keywords: visual arts, educational content, scientific-theoretical approach, competency-based approach, integration, aesthetic education, methodology, creativity, practical lessons, artistic thinking.

Аннотация. В данной статье всесторонне изучаются научно-теоретические подходы к формированию содержания обучения изобразительному искусству. Содержание образования является основным элементом учебного процесса, и его качество играет важную роль в формировании эстетического вкуса, художественного мышления и творческого потенциала учащихся. В этом направлении при определении содержания обучения рассматриваются в единстве психологические, педагогические, культурные и художественные аспекты. В статье подчеркивается необходимость организации содержания обучения с учетом возрастных этапов развития детей и их индивидуальных психологических особенностей.

Ключевые слова: изобразительное искусство, содержание образования, научно-теоретический подход, компетентностный подход, интеграция, эстетическое воспитание, методика, творчество, практические занятия, художественное мышление.

Zamonaviy ta'lim tizimida san'at, xususan, tasviriy san'at fanining o'zni tobora ortib bormoqda. Badiiy-estetik tarbiya vositasida yosh avlodning dunyoqarashi, didi, tafakkuri va ijodiy salohiyati shakllanadi. Shu bois, tasviriy san'atni o'qitishda nafaqat texnik ko'nikmalarni o'rgatish, balki estetik dunyoqarash va badiiy tafakkurni rivojlantirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Bu jarayonda ta'lim mazmunini to'g'ri va puxta tashkil etish, uni ilmiy-nazariy asosda yondashuvlar bilan boyitish zaruriyati tug'iladi [1: 12].

Ta'lim mazmuni – o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va tarbiyaviy ta'sirlar majmuasi. Tasviriy san'at sohasida bu mazmun nafaqat bilimlar tizimi, balki madaniy qadriyatlar, san'atni idrok etish va uning vositasida o'z fikrini ifodalash kabi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Ta'lim mazmunini shakllantirishda pedagogika, psixologiya, san'atshunoslik va metodika fanlarining yutuqlari asos qilib olinadi. Bu esa o'z navbatida, mazkur fan doirasida ilmiy-nazariy yondashuvlarning o'rganilishini va ularni amaliyotga tadbiiq etishni taqozo etadi. Ilmiy-nazariy yondashuvlar orqali o'quv dasturlarining asosiy tamoyillari, maqsad va vazifalari aniqlanadi, o'quvchilar yosh xususiyatlari va individual qobiliyatlariga mos

metodlar tanlanadi. Jumladan, kompetensiyaviy, integrativ va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar san'at ta'limida keng qo'llanilmoqda. Bu yondashuvlar asosida shakllangan ta'lim mazmuni o'quvchilarning tasviriy ifoda vositalarini egallashi, mustaqil fikrlashi va badiiy-estetik qadriyatlarni anglashiga yordam beradi [2: 23].

Zamonaviy ta'lim tizimida tasviriy san'atni o'qitish mazmunini shakllantirishda nazariy va ilmiy yondashuvlarning tutgan o'zni beqiyosdir. Tasviriy san'atga nisbatan nafaqat badiiy faoliyat, balki inson estetik madaniyatini, tafakkurini, dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omil sifatida qaraladi. Shu boisdan, ushbu fan o'qitilishida faqat amaliy ko'nikmalar emas, chuqur nazariy bilimlar, tahliliy fikrlash, estetik qadriyatlarni anglash kabi jihatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qitish mazmunini belgilashda, avvalo, san'atshunoslik, pedagogika va psixologiya fanlarining nazariy asoslariga tayangan holda ta'lim strategiyalari ishlab chiqiladi. Tasviriy san'atni o'rganish – asarlarning shakli va mazmunini, ifoda vositalari va kompozitsiyasini, badiiy obraz va rang tasvirilarining mazmunini yukini tushunish jarayoni. Buning uchun o'quvchilarga san'at

tarixidan boshlab, tasvir vositalari, janrlar, uslublar, badiiy qonuniyatlarigacha tizimli bilim berish zarur. Bunday nazariy bilimlar ularning san'atga bo'lgan munosabatini chuqurlashtiradi, mushohada yuritish, baholash, fikr bildirish qobiliyatini rivojlantiradi. Ilmiy yondashuvlar esa pedagogik jarayonning asosiy komponentlarini tizimli tarzda rejalashtirish va amalga oshirishga xizmat qiladi [3: 13].

Tasviriy san'atni o'qitish mazmunini shakllantirish jarayoni ta'lim tizimidagi muhim yo'nalishlardan biri. Mazkur jarayon o'quvchilarda badiiy-estetik didni, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, ularni san'at olamiga kengroq jalb qilish, qalblariga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, tasviriy san'atni o'qitishda mazmunni to'g'ri tanlash va uni ilmiy asoslangan holda shakllantirish o'qitish samaradorligini oshirishga olib keluvchi muhim omildir. Mazmunni shakllantirishda nazariy yondashuvlar, eng avvalo, san'atshunoslik, pedagogika, psixologiya va metodika fanlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari hamda tayyorgarlik darajasini hisobga olishni taqozo etadi. Nazariy yondashuvlar asosida ta'limning mazmuni faqatgina amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishga emas, san'at asarlarining mazmun-mohiyatini tushunish, g'oyaviy-estetik ahamiyatini anglashga ham yo'naltiriladi. Bu esa o'quvchilarda tasviriy san'atga nisbatan ongli munosabatni, badiiy tafakkur va tahliliy yondashuvni shakllantiradi. Ilmiy yondashuvlar esa mazmunni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilg'or tajribalar va fan yutuqlaridan foydalanishga asoslanadi. Jumladan, kognitiv yondashuv, kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli, interfaol metodlardan foydalanish tasviriy san'atni o'qitishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Ilmiy tadqiqotlar asosida shakllantirilgan mazmun o'quvchilarda nafaqat rasm chizish ko'nikmalarini, balki ularning badiiy didini rivojlantirish, ijodkorlik qobiliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Tasviriy san'at darslarida ilmiy yondashuvlarning qo'llanishi ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishga yordam beradi. Bu esa har bir o'quvchining o'z qobiliyati va imkoniyatlarini ochib berish, ularning san'atga qiziqishini oshirish va mustaqil ijod qilishga rag'batlantirish imkonini beradi. Natijada o'qitish mazmuni faqatgina ma'lumot berish bilan cheklanib qolmay, o'quvchilarni ijodiy va estetik faoliyatga jalb etish bilan ham boyitiladi [4: 17].

Ushbu tadqiqot davomida nazariy tahlil (ilg'or xorijiy va milliy tajribalarni o'rganish), amaliy kuzatuv (tasviriy san'at darslarining real holatini o'rganish), so'rovnoma (o'qituvchilar va o'quvchilarning fikrlarini aniqlash) va eksperimental (ilmiy asosda ishlab chiqilgan dars materiallarini sinovdan o'tkazish) metodlardan foydalanildi. Eksperimentda qatnashgan o'quvchilar ikki guruhga bo'lindi:

nazorat guruhi an'anaviy dastur asosida, **tajriba** guruhi esa ilmiy-nazariy yondashuv asosida tayyorlangan dasturni o'zlashtirdi. Yakunda tajriba guruhidagi o'quvchilarning tasviriy fikrlash darajasi, ijodiy yondashuvi va estetik tafakkuri sezilarli darajada yuqori bo'lgani aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tasviriy san'at ta'limi mazmunini ilmiy-nazariy asosda shakllantirish o'quvchilarning umumiy estetik qarashlari rivojlanishiga, ijodiy qobiliyatlariga va san'atga bo'lgan ongli munosabatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday yondashuvlar orqali ta'lim samaradorligini oshirish, o'quv dasturlarini yangilash va zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish imkoniyati kengayadi [5: 27].

Tasviriy san'at ta'limi nafaqat o'quvchilarga rasm chizishni o'rgatish, balki ularning estetik didini, badiiy tafakkurini, tasavvurini, dunyoqarashini va ijodiy salohiyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish va mazmunan boyitish uchun chuqur nazariy va ilmiy yondashuvlar asosida yondashish zarur. Ilmiy-nazariy asoslar tasviriy san'at o'qitish jarayonining yo'nalishini belgilab beradi. Bu yo'nalishlar o'quvchilarga san'at asarlarini idrok etish, ularning ichki mazmunini tahlil qilish, obraz va kompozitsiya vositalari orqali fikr ifodalash, badiiy tasvir usullarini puxta egallash imkonini yaratadi. Bunda san'atshunoslik, pedagogika, psixologiya, estetik tarbiya, metodika fanlarining uzviy integratsiyasi asosida shakllangan yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi [6: 130].

Nazariy yondashuvlar o'quv dasturlarini shakllantirishda, ta'lim mazmunini tizimlashtirishda, fanlararo bog'liqlikni ta'minlashda, hamda o'quvchilarni san'atga oid mukammal bilim bilan qurollantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, klassik san'at nazariyalari, zamonaviy badiiy tendensiyalar, tarixiy-kultural kontekstlar orqali o'quvchilarda keng qamrovli bilim va tushunchalar hosil qilinadi. Ilmiy yondashuvlar esa pedagogik jarayonga asoslanib, yosh xususiyatlariga mos ta'lim metodikasini ishlab chiqishda, samarali interaktiv metodlarni tanlashda, o'quvchilar faoliyatini monitoring qilishda va ta'lim sifatini baholashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, konstruktivistik yondashuv asosida o'quvchi o'quv jarayonining faol sub'ekti sifatida qaraladi, bu esa uning shaxsiy tajribasiga asoslangan ta'limni tashkil etish imkonini beradi [7: 44].

Bugungi globallashtirish davrida tasviriy san'atni o'qitish mazmuni ham zamon talablari asosida takomillashib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, vizual madaniyatning rivojlanishi, dizayn va media san'at yo'nalishlarining kirib kelishi tasviriy san'at ta'limining ham mazmunini boyitmoqda. Shu bois, o'quv dasturlarini zamonaviy ilmiy asosda yangilab borish, pedagogik yondashuvlarni tanlashda analitik fikr yuritish, milliy va jahon san'ati

asosida o'quvchilarda madaniy ong va estetik tafakkurni shakllantirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'atni o'qitish jarayonida nazariy va ilmiy yondashuvlarning uyg'unligi ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish va ularni estetik jihatdan kamol toptirish

uchun zaruriy shart hisoblanadi. Mazkur yondashuvlar asosida shakllangan ta'lim mazmuni o'quvchilarning san'atga bo'lgan qiziqishini mustahkamlash, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek, estetik madaniyatini yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharipova L. Ijodiy yondoshuvlar va tasviriy san'at. // Ta'limda innovatsiyalar, 2022.
2. Egorova M. San'at ta'limi: Kreativ metodlar va ularning o'qitishdagi roli. // Ta'lim va madaniyat, 2021.
3. Mikhailov A. Amaliy san'at va kreativ metodlar. O'quvchilarni tasviriy san'atga qiziqtirish usullari. – Toshkent, 2021.
4. Koryagina T. Pedagogika va tasviriy san'atni o'qitishning innovatsion metodlari. – Toshkent: Oliy ta'lim, 2022.
5. Vasiliev S. San'atni o'qitishda kreativ metodlarni qo'llash. // Pedagogik yondashuvlar, 2023.
6. Farmonov Z. Tasviriy san'at o'qitish metodikasining didaktik asoslari. // Uzbek Scholar Journal, 2022. Vol. 4, pp. 136 b.
7. Oltmishev T. Tasviriy san'atning amaliy mashg'ulotlarida talabalarning o'qitilishi va baholashdagi ayrim kamchiliklar. // Filologiya ufqlari, 2022, Vol 4. №4.

Durdona O'TAYEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti

ALISHER NAVOIY G'AZALLARINING TARJIMALARIDA YOR OBRAZINING STILISTIK VA LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Annotatsiya. Alisher Navoiy g'azallaridagi yor obrazining stilistik va lingvopragmatik tahlili o'zining boy madaniy va adabiy merosi bilan ajralib turadi. Yor obrazining tahlili orqali nafaqat she'riy ijodning o'ziga xos tomonlarini, balki o'sha davrning ijtimoiy, madaniy va lingvistik xususiyatlarini ham ochib berish mumkin. Navoiy ijodida yor obrazining ko'p qirrali bo'lishi, uning stilistik va lingvopragmatik jihatdan chuqur va ko'p qatlamli tahlilini talab qiladi. Ushbu maqolada Alisher Navoiy g'azallarining tarjimalarida yor obrazining stilistik va lingvopragmatik tahlili haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: yor obrazi, lingvopragmatik tahlil, ifoda, mehr, muhabbat, she'riyat, stilistik tahlil, metodlar, metaforalar, epitelar.

Annotation. The stylistic and linguopragmatic analysis of the beloved's image in Alisher Navoi's ghazals is distinguished by its rich cultural and literary heritage. By analyzing the image of the beloved, one can reveal not only the features of poetic creativity but also the social, cultural, and linguistic features of that period. The multifaceted nature of the beloved's image in Navoi's work requires its deep and multi-layered stylistic and linguopragmatic analysis. This article provides information on the stylistic and linguopragmatic analysis of the beloved's image in the translations of Alisher Navoi's ghazals.

Keywords: image of yor, linguopragmatic analysis, expression, love, love, poetry, stylistic analysis, methods, metaphors, epithets.

Аннотация. Стилистический и лингвопрагматический анализ образа возлюбленной в газелях Алишера Навои отличается своим богатым культурным и литературным наследием. Анализируя образ возлюбленной, можно раскрыть не только особенности поэтического творчества, но и социальные, культурные и лингвистические особенности того периода. Многогранность образа возлюбленной в творчестве Навои требует его глубокого и многослойного стилистического и лингвопрагматического анализа. В данной статье представлена информация о стилистическом и лингвопрагматическом анализе образа возлюбленной в переводах газелей Алишера Навои.

Ключевые слова: образ ёра, лингвопрагматический анализ, экспрессия, любовь, поэзия, стилистический анализ, приёмы, метафоры, эпитеты.

Yor obrazining stilistik tahlili uning she'riy til va ifoda vositalaridagi o'ziga xosligi, tasvir va metaforalardagi betakrorligi bilan boshlanadi. Alisher Navoiy g'azallarida yor obrazining tasviri ko'pincha ulug'vorlik, go'zallik, mehr-muhabbat ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Yor tushunchasi faqatgina jismoniy go'zallikni emas, balki ma'naviy poklik, mehr va muhabbatning ramzlarini o'zida mujassamlashtiradi. Stilistik jihatdan yor ko'plab sinonimlar, epitelar, metafora va boshqa badiiy ifoda

vositalari yordamida tasvirlanadi. Navoiy o'z she'rlarida yor obrazini ko'pincha yorug'lik, nur, gul va tabiatdagi boshqa go'zal narsalar bilan qiyoslaydi, bu esa obrazning didaktik va estetik qiyofasini yanada boyitadi. Lingvopragmatik tahlil esa yor obrazining til va muloqot kontekstidagi o'rnini ochib beradi. Alisher Navoiy g'azallarida yorning ishtiroki ko'pincha muallif va yurakdagi muhabbatning o'zaro dialogi sifatida namoyon bo'ladi. Yor bilan bog'liq so'z va ifodalar muallifning ichki his-tuyg'ularini, orzularini, shuningdek,

ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. Shu jihatdan, yor faqatgina sevgi obyektini sifatida emas, balki muallif va o'quvchi o'rtasida lingvopragmatik muloqot vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yor obrazining til xarakteristikasi uning kontekstga bog'liqligi, pragmatik vazifasi va foydalanilish maqsadiga ko'ra turlicha ko'rinishlarga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy g'azallaridagi yor obrazining stilistik va lingvopragmatik tahlili uning she'riy matndagi pozitsiyasini yorqinlashtiradi. Yor ko'pincha muallifning ichki olami va tashqi dunyo bilan aloqasining ramzi sifatida ko'rsatiladi. Yorga nisbatan ishlatiladigan badiiy vositalar uning shaxsiy, ijtimoiy va falsafiy mazmunlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Yor obrazining lingvopragmatik tahlili esa u orqali amalga oshiriladigan kommunikativ va muloqot funksiyalarini tahlil qiladi. Bu esa o'quvchiga nafaqat she'r mazmunini, balki uning ichki muloqot tizimini, tilning mantiqiy va emotsional funksiyalarini anglash imkonini beradi. Bu obrazning she'riy matnda cheklanmagan ma'nolarga ega bo'lishi uning ko'p qirrali va mukammal bo'lishidan dalolat beradi. Alisher Navoiy yorni turli kontekstlarda, badiiy va falsafiy qatlamlarda ochadi. Yor nafaqat sevgining ramzi, balki insonning ma'naviy yuksalishi, hayotdagi go'zallik va adolatning timsoli sifatida ham qabul qilinadi. Shu sababli, Yorni tahlil qilishda uning stilistik jihatlaridan tashqari, lingvopragmatik aspektlari ham o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ladi [1].

Yor obrazining lingvopragmatik tahlilida uning ijtimoiy muloqotdagi o'rni, maqsadi va auditoriya bilan bog'lanishi chuqur o'rganiladi. Yorning she'riy matndagi ishtiroki nafaqat hissiy ifoda, balki ijtimoiy kommunikatsiya vositasi sifatida ham ko'riladi. Alisher Navoiy yor orqali o'z fikrlarini, his-tuyg'ularini, ijtimoiy qadriyatlarni o'quvchi bilan bo'lishadi. Yor obrazining pragmatik vazifasi uning kontekstga moslashuvi, muayyan holatlarda turlicha talqin qilinishi bilan bog'liq. Masalan, yor ba'zan sevgining ramzi sifatida, ba'zan esa insonning ma'naviy va axloqiy jihatlarini ifodalovchi obraz sifatida ishlatiladi. Stilistik va lingvopragmatik tahlil yor obrazining butunlay yangi ma'nolarga ega bo'lishini ta'minlaydi. Yor o'zining badiiy shakli, lingvistik ifodasi va kommunikativ vazifasi orqali o'quvchida chuqur hissiy va estetik ta'sir qoldiradi. Navoiy yor kitobxonga orqali dunyoqarashi, axloqiy g'oyalari va estetik qarashlarini yetkazadi. Yorning bunday ko'p qirraliligi uning nafaqat adabiy, balki madaniy va falsafiy ahamiyatini ham oshiradi [2].

Yor obrazining tahlilida uning tarixiy va madaniy konteksti ham katta ahamiyatga ega. Alisher Navoiy asarlari o'z davrining madaniy, diniy va ijtimoiy muhitini aks ettiradi. Obrazning shakllanishida bu omillar muhim rol o'ynaydi. Yor nafaqat shaxsiy sevgi timsoli, balki o'sha davr axloqiy, falsafiy va estetik qadriyatlarining ifodasi. Uning

lingvopragmatik tahlili orqali o'sha davrdagi til, muloqot va estetik me'yorlar yanada ravshanroq ko'rinadi. Alisher Navoiy g'azallarida yorning har bir ifodasi, tasviri chuqur ma'no va badiiy tusga ega. Stilistik jihatdan boyligi uning turli badiiy uslublar, metaforalar, epitet va sinonimlar bilan ifodalanishida namoyon bo'ladi. Yorning lingvopragmatik tahlili esa uning muloqotdagi o'rni va vazifalarini ochadi. Yor orqali Navoiy sevgi mavzusidan tashqari, inson va jamiyat, ma'naviyat va axloqiy qadriyatlarni ham ifodalaydi [3]. Shuning uchun ushbu obrazning stilistik va lingvopragmatik tahlili Alisher Navoiy she'riyatining murakkab va boy qatlamlarini ochib beradi. Yor nafaqat badiiy obraz, balki til va muloqot vositasi, shuningdek, ma'naviy va ijtimoiy tushunchalar majmuasi sifatida ham o'rganilishi zarur. Uni chuqur tahlil qilish orqali Navoiy ijodining adabiy, madaniy, ijtimoiy va falsafiy ahamiyatlarini ham anglash mumkin.

Yor nafaqat o'sha davr she'riy an'analari, balki Navoiy ijodida ham yangi, innovatsion obraz sifatida paydo bo'ladi. Uning lingvopragmatik funksiyalari esa she'riyatning kommunikativ qirralarini kengaytiradi. Yorning stilistik boyligi uning badiiy tasvirini yanada jozibador va ma'nodor qiladi. Navoiy g'azallaridagi yor obrazining stilistik va lingvopragmatik tahlili zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biridir. Yorning she'riy matndagi o'rni, lingvistik va kommunikativ xususiyatlarini o'rganish orqali nafaqat o'sha davr madaniyati, balki inson qalbining nozik tuyg'ulari haqida ham yangi tushunchalar paydo bo'ladi. Yor obrazining badiiy va lingvopragmatik jihatlarini uning o'ziga xosligini, o'quvchida chuqur ta'sir qoldirish qobiliyatini ko'rsatadi [4].

Alisher Navoiy g'azallarida yor obrazining madaniy va ijtimoiy konteksti chuqur va ko'p qirrali tarzda aks ettirilgan. Shakllanishi va ifodalanishida o'sha davrning madaniy, ijtimoiy, diniy va axloqiy qadriyatlari muhim rol o'ynaydi. U ijtimoiy va madaniy kontekstdagi insoniy munosabatlarning, jamiyatdagi qadriyat va me'yorlarning ifodasi sifatida ham ko'riladi. Madaniy kontekstda yor tasviri ko'pincha O'rta asr Sharq madaniyatining estetik qadriyatlari, go'zallik va mehr-muhabbat haqidagi falsafiy qarashlari bilan chambarchas bog'liq. Yor go'zal, ma'naviy jihatdan pok, ulug'vor va ilohiy sifatlar bilan tasvirlanadi, bu esa o'sha davr madaniyatida sevgi va go'zallikka berilgan ulkan e'tibor bilan izohlanadi. Yorning nur, gul, oy kabi tabiiy va ramziy tasvirlar bilan bog'lanishi o'sha davr madaniyatining badiiy estetik didini ifodalaydi va o'quvchida chuqur hissiy ta'sir qoldiradi. Uning ijtimoiy kontekstda shakllanishi jamiyatning axloqiy me'yorlari, oilaviy va jamiyatdagi munosabatlar tizimi hamda insoniy qadriyatlari bilan bog'liq. Alisher Navoiy yor orqali shaxsiy muhabbatni, insonning ichki olamidagi sevgini, shu

bilan birga, jamiyatdagi mehr-oqibat, hurmat va halollik kabi ijtimoiy qadriyatlarni ifodalaydi. Yorning ko'pincha idealizatsiya qilinishi, uning mukammallik timsoli sifatida ko'rsatilishi o'sha davr jamiyatining axloqiy va madaniy intilishlarini aks ettiradi [5].

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy g'azallaridagi yor obrazining stilistik va lingvopragmatik tahlili uning she'riy ijodidagi markaziy mavzular va obrazlarning bir qismi sifatida katta ahamiyatga ega. Yor obrazining badiiy ifodasi

va kommunikativ funksiyalarining mukammal uyg'unligi muallif ijodining yuksak san'atkorlik darajasini ko'rsatadi. Yor insoniy qadriyatlarining timsolidir. Bu obrazni chuqur tahlil qilish orqali nafaqat Alisher Navoiy g'azallarining mazmun-mohiyatini, balki o'sha davr madaniy va ijtimoiy muhitini, shuningdek, inson qalbidagi nozik tuyg'ularni ham yaxshiroq anglash mumkin. Bu esa obrazning badiiy va lingvopragmatik ahamiyatini yanada oshirib, adabiy merosdagi o'rnini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunova G. Alisher Navoiy g'azallarida Yor obrazining stilistik tahlili. // O'zbek adabiyoti va san'ati, 2021, 3(12), 45–53.
2. Axmedov S. Navoiy g'azallarida ishq va yor tasviri: lingvopragmatik yondashuv. // Tilshunoslik va adabiyot, 2022, 8(2), 115–123.
3. Qodirova N. Yor obrazining badiiy ifodasi va lingvistik xususiyatlari (Alisher Navoiy g'azallari misolida). // Ilmiy izlanishlar, 2020, 5, 78–85.
4. Rasulova D. Alisher Navoiy g'azallarida Yor obrazining madaniy va ijtimoiy konteksti. // O'zbekistonda til va adabiyot, 2023, 14(4), 60–68.
5. Ergasheva M. Navoiy she'riyatida yor obrazining stilistik vositalari. // Zamonaviy filologiya, 2021, 9(1), 34–42.
6. Sobirov A. Alisher Navoiy g'azallarida yor obrazining semantik va pragmatik tahlili. // Fan va ta'lim, 2022, 10(3), 50–58.
7. Ismoilova L. Yor obrazining lingvopragmatik jihatlari (Navoiy asarlari tahlilida). // O'zbek tilshunosligi, 2020, 6, 72–79.

Mehriban SƏRDAROVA,

Azərbaycan dövlət pedaqoji universiteti

AZƏRBAYCAN RESPUBLİKASINDA MİLLİ TƏHSİLİN İNKİŞAFINDA DÖVLƏT SİYASƏTİ

